ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2023

2-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari (tavsiya)
		TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
I. Siddiqov	6	Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi
K. Abrorxonova, Sh. Bo‘riyeva	12	Uzliksiz ta’lim tizimida mediamadaniyatni rivojlantirish mexanizmi
D. Xakimova	16	O‘qituvchnii innovatsion salohiyatini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari
B. Umarov	21	Bo‘lajak falsafa doktorlarining tadqiqotchilik va innovatsion kompetentligini rivojlantirishda loyihaviy yondashuv (xorijiy tajribalar asosida)
N. Omonova	26	Ta’limda kooperativ yondashuvni rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati
Sh. Ashurova	31	Xorijiy til o‘qituvchisining kasbiy va nutqiy kompetensiyalarining o‘rni va ahamiyati
Yu. Yarmanova	35	Shaxs ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasi va uni shakllantirish mazmuni
M. Abdisodiqova	38	O‘quv-biluv jarayonida talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmasini takomillashtirish mexanizmi
M. Tursunova	42	Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish
		TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI
D. Xolmurodov, S. Tursunova	45	Texnika ixtisosliklari ta’limida fundamental qonunlar va ilmiy-texnik nazariyani o‘zaro aloqadorligining tavsifi
M.L. Aripova	49	Xorijiy tilni o‘rgatishda vatanparvarlik tarbiyasi
Z. Ismatova, X. Jamolova	52	2-sinf tabiiy fanlar darslarida “o‘simliklar” mavzularini o‘qitishda o‘quv-tajriba maydonchasidan foydalanish
K. A. Bobomurodov	57	Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari tomonidan o‘quv matnlarini tushunish darajasini oshirish metodikasi
J. Begijonov	62	Badiiy kulolchilik mashg`ulotlari jarayonida talabalarni kreativ kompitentligini rivojlantirish
O‘. Xushvaqtov	67	“Qattiq jismlar fizikasi”ni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish
O. Berdiyeva	72	O‘quvchilarga geometriya fanidagi tushunchalarni kengaytirish hamda mavzular uzviyligi va uzluksizligini sinflar kesimida ta’minlash masalalari
		ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
I. Madatov	78	Kredit-modul tizimida masofali o‘qitishning nazariy va didaktik asoslari

Sh. Karimova	83	Talabalarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi
Sh. Mavlonov	86	O‘quvchilarni tabiiy-iqtisodiy manbalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishda pedagogik ta’lim texnologiyalaridan foydalanish
I. Samatova	89	Vitagen ta’lim texnologiyasining mazmun va mohiyati
		MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI
D.N. Abdullayeva, T.M. Qurbonova	92	Muqaddas ziyoratgoh maskanlarining bugungi kundagi ahamiyati (Surxondaryo viloyati misolida) (Chilgiz ota, Takiya ota, Sulaymon ota)
D. Qurbonova	97	Talaba qizlarda temuriy malikalar ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini pedagogik va axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
T. Achilov	102	O‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va tayyorlash modeli (jismoniy tarbiya fani misolida)
		MAKTABGACHA TA’LIM
F. Raximova	107	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim orqali bo‘lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari
Z. Mirzayunusova	111	Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida pedagogik texnologiyalardan foydalanish
N. Sultonova	115	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlantiruvchi markazlardagi o‘yin faoliyatlarini tashkil etish
V. G‘aniyeva	118	O‘yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o‘ziga xosligi
		PSIXOLOGIYA
B. Xakimova	122	Gender – o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida o‘smirlarni mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirishni amaldagi holati
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
А. В. Шаркова	126	Роль пословиц в воспитании учеников для начальных классов
		ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ
Л. Рустамов	130	Актуальные проблемы преподавания физической культуры в школе
		КУЛЬТУРА, ИСКУССТВО И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ
Г. Абдуллаходжаев	137	Компютерные технологии и её роль в современом искусстве
		НАУКА, ПРОСВЕЩЕНИЕ И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ
З. Абылова	140	Цифровые риски внедрения цифровых технологий на уроках английского языка в средней школе

UZLUKSIZ KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH ISHLARI (TAVSIYA)

Inson ilmu ziyosi, kasbu kori bilan go‘zal erur. Beshikdan to qabrgacha ilm olishga intilib, hayoti davomida biror bir hunarning etagidan tutmoqlik xatto muqaddas islom dinida ham farz sanalgan. Buyuklarimiz ilmni yorug‘lik, nuru ziyoga qiyoslashgan. Ilmga oshno qalbning hayot yo‘llari hamisha charog‘on bo‘lib, umri davomida hurmatu ehtiromga loyiq, nomlari ham boqiy yashagaydir. Bilimli kishining hayot yo‘llari poyoniga yetsa ham nomi hamisha tirik, ilmsizni esa garchi ul tirik bo‘lsa-da, tiriklikda ham misoli o‘lik, deyish mumkin. Demakki, inson umri mobaynida ilm olib, kelgusi avlodlariga doimiy ulashishni farz qilgan ekan, buni biz bizgacha saqlanib kelinayotgan o‘lmas bitiklar, betakror asarlar, boy adabiyotlarda ko‘rishimiz mumkin.

Farzandi ulg‘aygani sari ilm olishiga sharoit yaratib, o‘ziga munosib biror kasbu hunar tanlashga yo‘l ko‘rsatib borishlik azaldan oilaviy an’anaga aylanib ulgurgan. Bu o‘rinda muhimi – ota-onaning farzandiga ilmu hunar o‘rgatishi bilan birga axloq va odob fazilatlarini tobora ko‘proq o‘qtirib borishlari hamda o‘z farzand va nabiralariga yaqindan ko‘maklashishlari samaraliroqdir.

Binobarin, bolaga ta’lim-tarbiya berish – e’tiborli, mashaqqatli va albatta uzoq vaqt talab etadigan mas’uliyatli jarayondir. Bugungi kunda ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar bo‘layotgan bir paytda bog‘cha yoshidan boshlab bolaning qarashlarini o‘rganish, qiziqishlariga sayqal berish hamda boyitish, kerak bo‘lsa, shu davrdanoq kasbga yo‘naltirish maqsadga muvofiq. Ta’bir joiz, ta’lim-tarbiyaning hamohangligi va uzluksiz kasbga yo‘naltirish masalalarining tub ildizi ham shu maskandan, shu davrdan una boshlaydi. Bu esa ta’lim tizimida ayni damda ilgari surilayotgan dolzarb va aslo kechiktirib bo‘lmaydigan, ya’ni bolani uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirishdek rejadagi sharafli islohotlarga o‘zining mustahkam poydevorini qo‘yadi.

Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlarni uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari ta’lim tizimining eng muhim vazifasi bo‘libgina qolmay, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati darajasida ham ko‘tarildi. Shu bilan bir paytda, ta’lim tizimida olib borilayotgan tub o‘zgarishlar hamda islohotlar e’tiborlidir.

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridayoq bolalarning ijtimoiylashuvi, ularda o‘z qiziqishlariga mos ravishda ma’lum bir kasblarni tanlash motivatsiyaning shakllanganligi va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarining mavjudligi, ma’naviy ruhiy va aqliy salohiyat darajasining ta’lim talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinf, professional ta’lim o‘quvchilari hamda oliy ta’lim talabalarining yosh hususiyatlarini inobatga olgan holda uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib borish hamda ularda mehnat ko‘nikmalari va malakalarini rivojlantirish, kasbiy o‘zlikni anglash, kasbiy tanlov va kasbiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish oldimizda turgan eng muhim vazifa ekaligini bilamiz.

Erta kasb-hunarga yo‘naltirish bosqichida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan “Kasblar alifbosi” bilan tanishtirish, boshlang‘ich kasb-hunarga

yo‘naltirish bosqichida boshlang‘ich sinflarda (1- 4-sinflar) kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun “Kim bo‘lsam ekan?” texnologiya darsi hamda sinf soatlari, o‘quv mashg‘ulotini amalga oshirish, qidiruv-rivojlantiruvchi kasbga yo‘naltirish bosqichida o‘rta sinflar (5- 6- 7-sinflar) umumta’lim maktablarining kichik va o‘rta yoshdagi o‘smirlar uchun “Kasblar olamiga sayohat” sinf soatlari va texnologiya darslari hisobiga o‘quv mashg‘uloti tashkil etish, shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish va rivojlantirish bosqichi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida (8- 9-sinflar) katta yoshdagi o‘smirlar uchun “Men orzu qilgan kasb” maktab ixtiyoridagi soatlar va texnologiya darslari hisobiga psixologik-pedagogik tashxis metodikalari sinf soatlari o‘tkazish, kasbiy o‘zlikni anglash bosqichida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilari (10-11-sinf) va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarida o‘z tanlagan kasb-hunarlariga dastlabki kirish, kasbiy tanlovning aniqlashtirish hamda mustaxkamlash yuzasidan ta’lim muassasasida, ishlab chiqarish korxonalaridagi “Men tanlagan kasb” psixologik-pedagogik tashxis metodikalari mustaqil va ma’naviyat soatlari, amaliy mashg‘ulotlar hamda amaliyot hisobiga kasbiy faoliyatdagi amaliy mashg‘ulotlar orqali olib boriladi.

Oliy ta’lim bosqichida ham kasbiy tanlovni ongli ravishda tanlagan, ota-ona maslahati va tengdoshlariga ergashib, shuningdek, kasbni tasodifan tanlagan shaxslar uchraydi. Ularning har biri bilan induvidual yondoshgan holda tyutorlar (guruh rahbarlari), ishlab chiqarish ustalari va fan o‘qituvchilari tomonidan kasbiy maslahatlar, to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish ishlari amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari hamda texnologiya (mehnat ta’limi) o‘qituvchilariga, professional ta’lim muassasalari maxsus fan o‘qituvchilari, guruh rahbarlari, oliy ta’lim tashkilotlari tyutorlari, umumkasbiy hamda maxsus fan o‘qituvchilari uchun amaliy faoliyatlarini tashkil etishning quyidagi bosqichlarini tavsiya etamiz:

Birinchi bosqich – “Kasblar alifbosi” bilan tanishish, erta kasb-hunarga yo‘naltirish.

Ikkinchi bosqich –“Kim bo‘lsam ekan?” boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirish.

Uchinchi bosqich–“Kasblar olamiga sayohat” qidiruv-rivojlantiruvchi kasbga yo‘naltirish.

To‘rtinchi bosqich – “Men orzu qilgan kasb” shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish va rivojlantirish.

Beshinchi bosqich – “Men tanlagan kasb” kasbiy o‘zlikni anglash, kasbiy moslashish, kasbiy o‘sish va shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi.

Oltinchi bosqich – “Kasbiy barqarorlashuv” kasbiy qaror qabul qilish va kasbiy tanlovning yakuniy bosqichi.

Hozirda kasb-hunarga yo‘naltirish masalalari mamlakatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri sanalib kelinmoqda. Azaldan qadr topgan ilm ahli va kosiblarning hozirda ham hurmat topayotganlari quvonarli, albatta. Buni biz yurtimizda har yili turli kasb egalari va ma’rifatli insonlarning ilm-fan hamda xalqimiz osoyishtaligi yo‘lidagi fidokorona mehnatlari uchun yuksak mukofotlar bilan taqdirlanayotganlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa shulki, ota-ona yoxud ustoz bolani yoshlik chog‘idanoq bilim olishi va hunar o‘rganishi uchun to‘g‘ri yo‘lini ko‘rsatsa, kelgusida kamol topachak avlod yanada barkamol bo‘ladi. Bunda ayniqsa, boshqa xalqlarda deyarli uchramaydigan ustoz-shogirdlik an’anasi asrlar mobaynida davom etishining ijobiy natija berishi shubhasizdir.

Ilyosjon SIDDIQOV,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi, aholining barcha qatlamlariga yetib borishi ijtimoiy hayot, jumladan, ta'lim tizimiga ham juda katta ijobiy ta'sir etishi hamda dars mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'lajak tarix o'qituvchilarida interfaollikni oshirishga xizmat qilishi borasidagi ayrim fikr-mulohazalar informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga doir o'quv topshiriqlar asosida bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Zamonaviy va ilg'or ta'lim texnologiyalari, axborot va kommunikatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, multimediali format, o'quv jarayoni, informatsion-analitik kompetentlik, pedagogik texnologiya.

В данной статье описываются широкое распространение цифровых технологий, их доступ ко всем слоям населения очень положительно влияет на жизнь общества, в том числе и на систему образования, а некоторые мнения об использовании цифровых технологий на уроках послужат повышению интерактивности у будущих учителей истории в части развития информационно-аналитической компетентности описываются на основе учебных задач.

Ключевые слова. Современные и передовые образовательные технологии, информационно-коммуникационные технологии, цифровые технологии, мультимедийный формат, образовательный процесс, информационно-аналитическая компетентность, педагогические технологии.

In this article described, the wide spread of digital technologies, their reach to all strata of the population has a very positive effect on social life, including the education system, and some opinions about the use of digital technologies in the classroom will serve to increase interactivity in future history teachers, regarding the development of informational and analytical competence on the basis of educational tasks.

Key words. Modern and advanced educational technologies, information and communication technologies, digital technologies, multimedia format, educational process, informational and analytical competence, pedagogical technology.

XXI asrda axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida, xususan tarix fanini o'qitishda ham zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini yanada oshirishni taqozo qilmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda".

Raqamli texnologiyalarning o'rni YUNESKO tomonidan 2015-yilda "Ta'lim – 2030"

doirasida qabul qilingan “Barqaror rivojlanish uchun ta’lim” dasturida ham alohida ta’kidlangan. Shu nuqtayi nazardan, Xalqaro ta’lim texnologiyalari jamiyati ma’lumotlariga ko‘ra, texnologiya talabalarga axborot texnologiyalari bilan ishlash, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish, mazkur vositadan ijodiy va samarali foydalanuvchi bo‘lish imkonini beradi (ISTE, 2000). Ta’lim jarayonida texnologiyani qo‘llash orqali bu boradagi ko‘nikma va malakalarini shakllantirish talabalari kelajakdagi kasb-hunarga tayyorlashga yordam beradi.

Bugungi zamonaviy talabalar allaqachon raqamli, kibernetik bo‘lib, ularning hayoti, nutqi, fikrlari, xatti-harakatlari murakkab qurilmalar va mahsulotlar bilan shakllantirilgan. Zamonaviy bo‘lish bugungi davrning talablaridan biri. Shunday qilib, talabalarda raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishda tarix fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari, mavzularda raqamli texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘quv materiallarni ikki guruhga ajratish mumkin: nazariy darslarda foydalanish uchun mo‘ljallangan interaktiv vositalar hamda amaliy bajarish uchun mo‘ljallangan grafik ilovalar.

Raqamli texnologiyalar yordamida yaratiladigan multimediali formatdagi materiallar o‘zining tasvirlarni aniq taqdim qilish, ma’lumotlarni yanada chuqurroq anglash uchun maxsus effektlarni yarata olish hamda keng ko‘lamli vizual ma’lumotlar taqdim eta olish imkoniyatlari bilan ta’lim sohasida beqiyos salohiyatga ega. Pedagogning raqamli texnologiyalar borasidagi savodxonligi uning darslarni tashkil etishi, ma’lumotlarni tez va sifatli yetkazib berishi hamda talabalarda ham zamonaviy bilimlarni shakllantirishida alohida o‘ringa ega.

Raqamli texnologiyalar bilan ishlay olish o‘quv jarayonining har ikki subyekti faolligini oshiradi, o‘quv jarayonini individuallashuviga olib boradi, talaba shaxsining rivojlanishi rag‘batlantiriladi – uning qarorlari mustaqilligi, tashabbusi, vazifalarni aniq bajarishga bo‘gan talablar ortadi, o‘qituvchi va talaba o‘rtasida mavzuni o‘zlashtirish bo‘yicha qaytar aloqa sezilarli darajada oshadi. Masalaning pedagogik tomoniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash kerakki, informatsion raqamli texnologiyalarini joriy etish ta’limning asosiy tamoyillari – ko‘rgazmalilik va qulaylik tamoyillarini amalga oshirishga yordam beradi. Ta’lim jarayonida qo‘llanmalarni (elektron yoki bosma) ishlatish, shuningdek, ularni mustaqil ravishda ishlab chiqarish va har xil turdagi pedagogik ehtiyojlar uchun ko‘rgazmali material tayyorlash imkoniyatlari raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladi.

Informatsion texnologiyalari sohasida mahorat va bilimlarga ega bo‘lgan pedagog talabalarning turli yosh guruhlarida nazariy va amaliy bilimlar blokini o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirishi va tezlashtirishi, shuningdek, o‘rganilayotgan ma’lumotlarni taqdim etish uslubini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Hozirgi davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib bunday talablarga javob bera oladigan shaxsni shakllantirishda quyidagi mezonlarni tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Zamonaviy va ilg‘or ta’lim texnologiyalari.
2. Raqamli texnologiya + zamonaviy va ilg‘or pedagogik texnologiya.
3. Xalqaro tajribalar.

Texnologiyalar bilan hamnafas yurish yoshlarni madaniyat bilan bog‘laydigan va ta’limda an’anaviy ravishda taklif qilinadigan modellarga qaraganda yoshlarni o‘rganish jarayoniga faolroq jalb qiladigan metodlarni loyihalashtirish, yaratishga ko‘maklashadi hamda talabalardagi tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Shuningdek, raqamli

texnologiyalar darslardagi interfaollikni ham oshirishga xizmat qiladi. Interfaollik tushunchasi bu yangi muhitda o‘rganish haqida fikr yuritganimizda asosiy xususiyatga aylanadi. Ta’lim nazariyotchilari o‘tmishda auditoriya sharoitida interaktivlikka katta e’tibor berishgan, lekin asosan guruhda muammolarini hal qilish, guruhli muhokama, qisqa namoyishlarni kiritish yoki qisqa, asossiz yozish kabi ta’lim strategiyalariga e’tibor berishgan, mashqlar, fikr-mulohazalar, bahs-munozaralar, muammolarni hal qilish modellari va rolli o‘yinlaridan foydalanishgan. Hozirda esa mazkur metodlar bilan bir qatorda yangi vositalar orqali interaktivlikning o‘rni va uning faol ta’lim bilan aloqasi o‘rganilmoqda.

Raqamli texnologiyalarni tarix ta’limida o‘qitishda qo‘llash borasida fikr yuritilganda, ta’lim mazmuniga mosligi va talabalarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalar bilan bog‘liqligini inobatga olish zarur. Xususan, Pepplerning fikricha raqamli texnologiyalarning tarkibiy qismi bo‘lgan informatsion ta’minotni yaratish uchun muhim uchta keng tushunchalar mavjud:

– o‘quv jarayonida faol ishtirok etish;

– yoshlarning o‘z ishi bilan shaxsiy aloqasi, bu o‘rganishga umumiy muhabbatni uyg‘otadi va avvalgi tajribalariga asoslanadi;

– keng jamoatchilik uchun muhim bo‘lgan loyihalarni yaratish.

Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasining tashkiliy-pedagogik komponentini takomillashtirish maqsadida ikkita blokdan iborat o‘quv topshiriqlari majmui ishlab chiqildi: informatsion-analitik kompetensiyani va tarixiy-analitik kompetensiyani rivojlantirishga doir.

I. **Informatsion-analitik kompetensiyani rivojlantirishga doir topshiriqlar.**

I.1. *Informatsion-analitik kompetensiyani rivojlantirishga doir topshiriqlar:*

“Men – arxeolog”– ishbilarmonlik o‘yini. Mazkur topshiriq talabalarga arxeologik yodgorliklarga oid axborotlarni izlash, tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Yashil rangdan boshlab, madaniy qatlamlarga o‘xshash qattiq turli rangdagi qog‘oz varaqlari albom ko‘rinishida tikiladi. Varaqlarda madaniy qatlamlarnikiga o‘xshash tarzda mazkur hududda yashagan qadimgi odamlarning moddiy madaniyatini va tabiiy-geografik shart-sharoitlari bilan mustahkam bog‘liqlikda aholining mashg‘ulotlari haqidagi tasavvurlarini hosil qiluvchi turli narsa-buyumlarni aks ettiruvchi rasmlar yopishtiriladi. Oldindan javoblarni tekshirish uchun nazorat varaqlari tayyorlab qo‘yiladi. Komanda a’zolariga uchta shunday albom beriladi. O‘yin ishtirokchilari munozara o‘tkazish uchun qulay tarzda joylashadilar va navbati bilan “madaniy qatlamlar”ni ochishib, qazish jarayonida topganlarini tahlil qilishadi. Keyin “arxeologik hisobot” uchun ishtirokchilarga vaqt taqdim etiladi. Topshiriqni bajarish jarayonida qazish ishlari olib borilgan joyga tegishli (mehnat qurollari, turar joylar, xo‘jalik buyumlari) aniq davr bilan bog‘liq savollar muhokama etiladi. Yakuniy qismida savollar, to‘ldirish, aniqlashga jalb qilingan boshqa komanda tomonidan aniqlashtiruvchi xulosa qilinadi.

Chalkashni aniqlashga doir topshiriq. Dastlab o‘qituvchi doskaga arxeologik yodgorliklarni aralash holda yozib qo‘yadi. So‘ng ularni qaysi davrga oidligiga qarab, to‘g‘ri o‘ringa qo‘yib chiqishni so‘raydi. Mazkur jarayonda talabalar arxeologik yodgorliklar xaritasidan foydalanish mumkin.

1. Jonbos-4	6. Zarafshon
2. Xo‘jakent	7. Qayroqqum
3. Bomi	8. Tuzkon
4. Joytun	9. Teshiktosh
5. Qorabura	10. Qavat

Talabalar topshiriqni o‘z daftarlariga bajarishib bo‘lishgach, so‘ng o‘qituvchi arxeologik yodgorliklarni ketma-ketlikda yozib, ularning har birini varaqqa qayd etadi. Talabalarga navbat bilan chiqish va bir voqeani zanjirdagi to‘g‘ri o‘ringa qo‘yish so‘raladi. Hamma bir qadar yagona fikrga kelgach, o‘qituvchi ulardan o‘zlarining taxminlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tekshirish uchun matnni o‘qish chog‘ida voqealar tartibiga e’tiborni jamlashni so‘raydi.

I.2. Arxeologik yodgorlik asosida “**Besh daqiqalik esse”**yozish.

I.3. Talabalardan mazkur arxeologik yodgorlik bo‘yicha ular nimalarni bilishlari va ularni qiziqtirgan bitta savol berishlar so‘raladi.

I.4. Nomoddiy merosni o‘rganishga doir topshiriqlar:

Nomoddiy merosni qiyosiy o‘rganishga doir topshiriq. Nomoddiy meros qiyosiy o‘rganilsa, talabalar ular haqidagi axborotlarni to‘liq anglab yetishadi. Yuqori darajada anglanganlik natijasida talabalarda axborot-tahliliy kompetensiya rivojlanadi.

Topshiriqni bajarish tartibi.

Nomoddiy meros yodgorliklari tanlab olinadi (uch-to‘rtta). So‘ng o‘qituvchi quyidagi rasmda ko‘rsatilganidek, jadval to‘ldirishni talabalarga taklif etadi.

Nomoddiy meros nomi	Nimalar kiradi?	Qanday ahamiyatga ega?	Siz qanday axborotga egasiz?
So‘z san’ati			
Madaniy muhit			
Tomosha san’ati			

Muammoli savol va topshiriqlar:

I.5. So‘z san’ati ham axborot xuruji xarakteriga ega bo‘lishi mumkinmi? Fikringizga aniq misol keltiring. Agar axborot xuruji xarakteriga ega, deb hisoblasangiz, unga qarshi dalillarni o‘ylab toping.

I.6. Navro‘z bayrami nima uchun Sovet davrida ta’qiqlab qo‘yilgan? Milliylikka qilingan tahdid, deb hisoblash mumkinmi? Navro‘z bayramiga nisbatan qanday bo‘htonlar o‘ylab topilgan?

I.7. Nega xalq dostonlarini o‘rganish Sovet davrida ta’qiqlab qo‘yilgan? “Alpomish” dostoniga qanday axborot xuruji o‘ylab topilgan?

I.8. Ilmiy-tarixiy asarlar va qo‘lyozma manbalarini o‘rganishga doir topshiriqlar.

Tushunchalar asosida matn tuzing.

1)Xorazm, Bog‘dod akademiyasi, rasadxona, o‘nlik tizim, to‘rt amal, algoritm, algebra;

2) sakkizta asar, “Samoviy jismlarning harakati va yulduzlar ilmi”, astronomiyadan qo‘llanma;

3) Forob, Damashq, Misr, 160 dan ortiq asar;

4) Kat shahri, Ma’mun akademiyasi, xorijiy tillar, 200ga yaqin ilmiy asar, globus, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, G‘azna;

5) Sayram, Yassi, 23 yosh, “Hikmatlar”.

Ikki qismli kundalik bilan ishlashga doir topshiriq.

Quyidagi tarixiy-badiiy asarlarni o‘qing va ikki qismli kundalikni to‘ldiring: G‘iyosiddin Alining “Hindiston g‘azovoti kundaligi”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Ispaniya elchisi Klavixoning Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”.

Ikki qismli kundalik uchun talabalar yozilmagan qog‘ozning o‘rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Kog‘ozning chap tomoniga matnning qaysi qismi ularga eng ko‘p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg‘otar yoki hayotlarida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Yoxud ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg‘otar. O‘ng tomonida ular sharh berishlari kerak: ayni shu sitatani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularga qanday fikrlar uyg‘otdi? Shu munosabat bilan ularda qanday savol tug‘ildi? Qisqasi, matnni o‘qirkan, o‘quvchilar vaqti-vaqti bilan to‘xtashlari va o‘zlarining qo‘shaloq kundaliklarida shunday belgilar qo‘yib borishlari kerak.

Ikki qismli kundalik namunasi.

Klavixo boshqa elchilar bilan birga, podshoh saroyidagi bazmda ishtirok etadi.	Amir Temur Klavixoning kuy chalinayotgan harakatidan uning yevropalik ekanligini fahmlab oladi.

Eslatma: qatorlar qo‘shib borilishi mumkin.

II. **Informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga doir o‘quv topshiriqlari.**

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga doir o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda ko‘proq refleksiv usullarga tayanildi.

Refleksiv usullar kibermakonda xavfsizlikni ta’minlash yo‘llarini aniqlashga olib keluvchi virtual muloqot jarayonida talabalarga o‘z shaxsiy qiyofasini boshqa inson qiyofasiga aylantirish imkonini beradi.

Kibermakonda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha talabalarning refleksiv nuqtayi nazarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vaziyatli topshiriq namunalarini ko‘rib chiqamiz.

1-vaziyat. Yangiliklar taqdim etib boriladigan saytni ko‘rib turib, tarixiy meros haqidagi yangiliklarga sharhlarga oid dialogda quyidagi fikrlarga guvoh bo‘ldingiz:

x: axborot texnologiyalari rivojlangan davrda tarixiy merosni o‘rganish bizga nimaga kerak?

u: to‘g‘ri shu tarix, tarixiy meros haqida gap ketsa, menda ham shunday fikr uyg‘onadi.

x: tarixiy merosning allaqachon nou-xaularni o‘rganish kerak edi.

Topshiriq. Dialog ishtirokchilarining fuqarolik pozitsiyasini baholang. Internetdagi mazkur muloqot tarixiy merosga nisbatan boshqalarda ham shunday fikrlarni hosil qilmaydimi? Siz dialogga aralashib, qanday munosabat bildirgan bo‘lar edingiz. Sizning fikringiz qanday?

2-vaziyat. Siz bildingiz, Sizning o‘rtog‘ingiz doimiy ravishda xaker sifatida ta’qiqlangan saytlarning faol ishtirokchisi. Tasavvur qiling, ana shunday saytlardan birida o‘zbek xalqining kelib chiqishi, tarixiy merosi va milliy siyosati haqida buzg‘unchi g‘oyalar tarqatiladi. O‘rtog‘ingiz ham ana shu g‘oyalarga ishonadi. Masalan, deylik – O‘z-

bekistonning Buxoro shahrida joylashgan tarixiy yodgorliklar o‘zbek xalqiniki emas, degan fikrga.

Topshiriq: Siz tarixiy meros vositasida qanday tarzda mazkur axborot tahdidiga qarshi fikr bildirasiz? Siz o‘rtog‘ingizning buzg‘unchi g‘oyaga ergashayotganiga o‘zingizni aybdor deb hisoblaysizmi? O‘rtog‘ingizni vatanparvar va milliy g‘ururi bor inson, deb hisoblaysizmi? O‘zingizni vatanparvar, millatparvar, xalqparvar, deb hisoblaysizmi? Mazkur vaziyatdan qutilish uchun nima qilishi kerak?

Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda refleksiv nuqtai nazarni shakllantirishga yo‘naltirilgan “Ideal” mashqidan foydalanish mumkin. Mazkur mashqni bajarish uchun muammoli savollar talabalar bilan birga ular uchun dolzarb va hayratlantiruvchi mavzular asosida shakllantiriladi.

Mashq beshta qadam orqali amalga oshiriladi: 1) “I” – qiziq, muammo nimada – muammoni umumiy ko‘rinishda shakllantirish bosqichi; 2) “D” – muammoli savollar tuzish – savol ko‘rinishida muammoni shakllantirish; 3) “YE” – muammoni hal etishning qandaydir yechimi bormi – dastlab individual, keyin juftliklarda ko‘proq yechim topish; 4) “A” – tanlov qilish qanday qiyin – muammoning maqbul va ratsional yechimini tanlab olish; 5) “L” – qiziquvchanlik, hayotda qanday kechadi – qarorni amalga oshirish jarayoni bosqichi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarning dunyo miqyosida keng tarqalishi va jamiyatning rivojlanishida ahamiyati oshib borayotganligini inobatga olsak, endi talabalarda ham mazkur texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishi lozim ekanligini anglashimiz mumkin. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni umumta’lim maktablarida o‘tiladigan barcha fanlar qatori tarix fanini o‘z ichiga qamrab olishi lozim. Chunki, bugungi kunda keng tarqalayotgan raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq dizayn sohalari hamda texnologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan multimedia ta’lim vositalarida ishlash asoslari tarix fani bilan bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: “O‘bekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 05.10.2020-yildagi PF-6079-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.

4. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. UNESCO. (2017). Retrieved from https://www.unesco.de/ sites/ default/ files/ 2018 08/ unesco education for sustainable development goals. pdf

5. Xamidov O. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning ustuvor vazifalari. Boshlang‘ich ta’limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. B. 5-6.

Kamolaxon ABRORXONOVA,
Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri, pedagogika bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Shaxnoza BO‘RIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA MEDIAMADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida axborot xavfsizligi ta’minlash, shuningdek, uni faollashtirish va yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish zarurligi yoritib berilgan. Maktab o‘quvchilarini kiberjinoyatchilikdan saqlash ularda mediamadaniyatni shakllantirish haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot xavfsizligi, kiberjinoyat, zamonaviy axborot texnologiyalari, talabalar, media, madaniyat, mediamadaniyat, mediata’lim, mediasavodxonlik, mediabilimdonlik, mediamahorat, mediakompetentlik.

В данной статье освещается необходимость обеспечения информационной безопасности в системе непрерывного образования, а также ее активизации и защиты молодежи от информационных атак. О защите школьников от киберпреступности даны рекомендации по формированию у них медиакультуры.

Ключевые слова. Информационная безопасность, киберпреступность, современные информационные технологии, студенты, средства массовой информации, культура, медиакультура, медиаобразование, медиаграмотность, медиакоммуникации, медиакомпетентность.

This article highlights the need to ensure information security in the system of continuing education, as well as its activation and protection of young people from information attacks. On the protection of schoolchildren from cybercrime, recommendations are given on the formation of their media culture.


Key words. Information security, cybercrime, modern information technologies, students, mass media, culture, media culture, media education, media literacy, media communications, media competence.

Mamlakatimizda har tomonlama yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani bajarish, asosan pedagoglarga bog‘liq bo‘ladi. Shu maqsadda yoshlarni bilim olishiga katta e’tibor qaratish lozim. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo‘naltirishimiz kerak. Shu bilan birga axborotni himoyalash, mediamadaniyat haqida ma’lumot berish hozirgi kunimizning dolzarb muammosi sifatida o‘rganilib bu borada davlatimizda turli samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu sohada yosh tadqiqotchilar xorijiy amaliyotlarga tayangan holda ish olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi ‘‘Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g’risida’’gi (PF-5349-son), 2017-yil 7-fevraldagi ‘‘O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida’’gi (PF-4947-son) farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi ‘‘Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘grisida’’gi (PQ-2909-son) qarorida ta‘lim muassasalari pedagog o‘qituvchilarining ilg‘or

pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarini ta‘lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishlari uchun uslubiy va amaliy yordam berish ko‘zda tutilgan. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda. “Pedagogik texnologiya” so‘z birikmasi asosida “texnologiya”, “texnologik jarayon” tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta’limda esa fan bo‘yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo‘li aniq belgilangan maqsadlarga qaratish, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak. Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqgan holda ta’rif bergan. Hali bu tushunchaga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflar ichida eng maqsadga muvofig‘i YUNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi.

O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi quyidagicha:



Ushbu ta’lim berish davrlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyos. Hozirgi yoshlar yangicha fikrlashga va zamon bilan hamnafas bo‘lishga intilmoqda. Uning asosi esa intellekt hisoblanadi. Yuqori suratdagi kompyuter texnologiyasi taraqqiyoti insoniyat tafakkurida yanada kengaytirilgan sermazmun ahamiyat kasb etmoda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” Axborot asri, deb nom olgan asrimizni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin. So‘nggi rusumdagi telefon, planshet, noutbuk va kompyuterlar, internet orgali bizga asosiy ma’lumot va yangiliklarni bir zumda aniqlashda beminnat xizmat qiladi. Bu borada yoshlar ma’naviyati va milliy madaniyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ma’na-

viy immunitet va ularda ilmiy va dunyoviy qarashlarini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Har qanday jarayonning salbiy va ijobiy tomonlari bo‘lganidek, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining salbiy tomonlari ham mavjud. Tan olib aytishimiz kerakki, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanmagan vaqtlarda yoshlar ilm olishga, kitob o‘qishga qiziqishgan, sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishgan. Bugungi yoshlarning qiziqishi esa aksincha. Endi ularning ko‘pchiligi internet kafelari, kompyuter o‘yinlari markazlariga intilmoqdalar. Ammo ular bu yoshida bilim egallash, kasb-hunar o‘rganish, o‘zini kelajagini yaratish uchun harakat qilishlari lozim. Internetda tarqaladigan turli yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan xabarlar, be’mani rasmlar, videolar va kompyuter o‘yinlari natijasida yoshlarning saviyasi pasayib, hayotga, atrof-muhitga va insonlarga bo‘lgan munosabati tubdan yomonlashib bormoqda. Beshavqat kompyuter o‘yinlari yoshlar ongini zaharlamoqda. Shoir Ahmad Shavqiy aytganidek, “Millatlar ahloqi bilan millat bo‘ladi, ahloqi ketsa, millat ham ketadi”. Millatimizning uzoq yillik tarixi mavjud. Ushbu davrlar mobaynida qanchadan-qancha mutafakkirlar, olimlar, ulamolar, din peshvolari yetishib chiqdi. Ular dunyo olimlari va mutafakkirlari tomonidan tan olinib, jahon sivilizatsiyasiga munosib hissalar qo‘shdilar. Bugungi kunga kelib esa bizni eng qiynayotgan muammolardan biri, aynan yoshlarning intellektual salohiyati va tafakkurining sustligi, bu esa ularning aynan internetdan foydalanishida ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Mediasavodxonlik nima uchun kerak? Avvalo:

- huquqiy demokratik jamiyatimizning to‘laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- axborot orqali inson ongini boshqarishga yo‘l qo‘ymaslik va har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish;
- insonning vizual obrazlar ta’siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko‘rinmas ma’lumotlarni “o‘qiy olish”;
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish;

Axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o‘zida aks etayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir. Media savodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo‘lib, AQShning Jamiyat xususidagi xalqaro ensiklopediyasida qayd etilishicha, ‘‘Media savodxonlik’’ (media literacy) inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas’uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo‘lishi, mediamatnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir.

Axborot savodonligi o‘z ichiga quyidagi ko‘nikmalarni oladi:

- axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash va anglash: menga nima kerak? Qanday muammoni hal qilishga urinyapman?
- axborot manbalarini aniqlash: qaysi axborot manbalaridan foydalangan ma’qul: Internet ma’lumotlari, kitoblar yoki televideniyedanmi? Birlamchi, ikkilamchi yoki uchlamchi manbalarning qaysi biridan foydalanish kerak?
- axborot manzilini aniqlash va izlash: axborotni qayerdan izlagan ma’qul? Yordam olish uchun kimga murojaat qilish kerak?
- axborot sifatini tahlil qilish va uni baholash: axborotning ishonchliligi va haqqoniyligini aniqlash.
- axborotni saralash, saqlash va arxivlash: bir nechta axborot manbalaridan olin-

gan axborotni qanday qilib samarali tashkil etish mumkin?

• axborotdan etikaga (odob-axloq me'yorlariga) rioya qilgan holda samarali foydalanish: Axborot yaratuvchilarining mualliflik xuquqlari buzilmasligi uchun qanday harakat qilishim kerak?

• yangi bilimlarni yaratish va ulashish: axborotni qanday taqdim etish mumkin?

Axborot borasida savodxon inson axborot izlash jarayonini o'z vaqtida to'xtatishni ham biladi. Mavjud barcha ma'lumotlarni to'plab bo'lmaydi. Axborot borasida savodxonlik yetarli darajada ma'lumot to'plangan va hali qayta ishlanmagan ma'lumot manbalari ko'p bo'lishiga qaramasdan, olingan yangi ma'lumot o'zlashtirilmaydigan, to'yinish nuqtasiga erishilgan paytni aniqlash imkoniyatini beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ko'ngilochar funksiyani amalga oshirish bilan bir qatorda mediamadaniyat tarbiya va ta'lim beradi, medialar olami haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi, kengaytiradi. Shaxsiy his-tuyg'ularimizga qo'shimcha ravishda kitob, fotosurat, gazeta, jurnallar, radio va televideniye, Internet hatto eng kichik yoshdagi bolalarga ham katta hajmdagi axborotni taqdim etadi. O'zbekistondagi uzluksiz ta'lim tizimida medianing o'rni katta. Media savodxonlik – media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u berish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq so'zi" gazetasi – www info XS.Uz.
2. "Turkiston" gazetasi – www turkiston sarkor.uz.
3. "Ma'rifat" jurnali - www ma'rifat – inform.uz
4. Suvi Tuominen, Sirkku Kotilaynen, Anniina Lundvall., Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jixatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. - Extremum-press, 2017
5. Axborot texnologiyalari – Samarqand 2020 Aminov. I.B., Bustonov. X,A.
6. Axborot texnologiyalari o'quv jarayoniga kiritish, ''Boshlang'ich maktab jurnali" Zaxarova N.I.
7. Ijodkor o'qituvchi ilmiy uslubiy jurnal _2022 yil 17-son Maqsudov U.
8. Delhes K. Soziale Kommunikation. Opladen, 1994.
9. Норенков И.П., Зимин А.М. Информационные технологии в образовании: Учебное пособие.–.М.: Изд. МГТУ им. Н. Баумана, 2002.
10. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasini axborotlashtirish konsepsiyasi. Loyiha. O'zbekiston "O'qituvchi" 2004-yil 9-aprel

Dildora XAKIMOVA,
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dotsent

O‘QITUVCHINI INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada “metodologik yondashuv” tushunchasi, o‘qituvchining innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirish usullari shuningdek,o‘qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirishda tizimli, sinergetik, aksiologik, akmeologik yondashuv masalalari ochib berilgan va ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion salohiyat, metodologik yo‘nalish, rivojlanish, sinergetik yondashuv, faoliyatli yondashuv, aksiologik yondashuv, ekologik yondashuv, ijodkorlik, uzluksiz rivojlantirish.

В статье раскрыты и научно обоснованы понятие” методологический подход", методы непрерывного развития инновационного потенциала учителя а также вопросы системного,синергетического, аксиологического, акмеологического подходов в развитии инновационного потенциала учителя.

Ключевые слова. Инновационный потенциал, методологическая направленность, развитие, синергетический подход, деятельностный подход, аксиологический подход, экологический подход, творчество, непрерывное развитие.

The article reveals and scientifically substantiates the concept of ”methodological approach", methods of continuous development of the innovative potential of the teacher, as well as issues of systemic, synergetic, axiological, acmeological approaches in the development of the innovative potential of the teacher.

Key words. Innovative potential, methodological orientation, development, synergetic approach, activity approach, axiological approach, ecological approach, creativity, continuous development.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimiz zamonaviy yuksalishga erishish maqsadida innovatsion rivojlanish bosqichiga kirganligi e’tirof etilgan. “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g‘oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo‘liga o‘tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi” deya ta’kidlab o‘tgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonining 44-maqsadida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda o‘qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda jahon taraqqiyoti informatsion-innovatsion davrida kechmoqda. Bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi – bu ilmiy yutuqlar, yangi texnologiyalarni jadal o‘zlashtirish va samarali boshqarishga asoslanadigan o‘zgarishlardir. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassalari o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish bugunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati har doim yangi yoki nisbatan yangi natijaga erishishga qaratilgan. Shuning uchun ishlab chiqarish faoliyati uning tashkil etilishini talab qiladi, bu esa metodologiyani qo‘llashni anglatadi.

Olimlar orasida “metodologik yondashuv” tushunchasi odatda uning asosida tadqiqot olib boradigan olimning ma’lum bir metodologik pozitsiyasi sifatida talqin etiladi. Pedagogikada ilmiy ishlanmalar mualliflari turli xil metodologik yondashuvlardan foydalanadilar, shuning uchun o‘qituvchi innovatsion salohiyatini doimiy ravishda rivojlantirish uchun metodologik yondashuvlarni tanlash zarurati mavjud.

Innovatsion salohiyat amalga oshirilgan (o‘tmish), amalga oshirilayotgan (hozirgi) va amalga oshiriladigan (kelajak) bo‘lishi mumkin. Shu sababli biz metodologik yondashuvlarni tanlash ko‘rib chiqilayotgan salohiyatning tahlil qilingan vaqtiga mos kelishi kerak deb hisoblaymiz.

Amalga oshirilayotgan salohiyatning xarakteristikasi (hozirgi) faoliyat asosini, qabul qilingan qiymat yo‘nalishlarini, shaxsiy yutuqlarga intilishni va salohiyatni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadigan muhitni o‘z ichiga olishi kerak. Bunday holda, faoliyat, aksiologik, akmeologik va atrof-muhit kabi metodologik yondashuvlarga ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Tizimli yondashuv – bu obyektlarni tizim sifatida o‘rganishga asoslangan maxsus ilmiy bilimlar va ijtimoiy amaliyot metodologiyasining yo‘nalishi. Tizimli yondashuv muayyan fanlardagi muammolarni adekvat shakllantirishga va ularni o‘rganishning samarali strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Tizimli yondashuvning metodologik o‘ziga xosligi, tadqiqotni obyektning yaxlitligini aniqlashga va uni ta’minlovchi mexanizmlarni aniqlashga, rang-baranglikni aniqlashga qaratganligi bilan belgilanadi.

O‘qituvchi innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirish uchun ushbu yondashuvning roli shundaki, u belgilangan muammoga bag‘ishlangan individual tadbirlarni maqsad va turli darajadagi tuzilishga ega bo‘lgan yagona tizimga birlashtirishi mumkin.

Bizni qiziqtirgan muammoni hal qilishda tizimli yondashuvning rolini tushunish uchun uning asosiy qoidalarini ta‘kidlab o‘tish zarur:

1) Har qanday obyekt yoki hodisani tizim deb hisoblash kerak, shuning uchun obyekt o‘zgarganda tizimning barcha xususiyatlariga e‘tibor qaratish lozim;

2) Har qanday tizim umumiy tizimning bir qismi – megatizim sifatida qaraladi. Binobarin, o‘qituvchining innovatsion salohiyati pedagogik jamoaning innovatsion salohiyatining yoki ta‘lim tashkilotining innovatsion salohiyatining bir qismidir;

3) Har bir tizim o‘z imkoniyatlarida cheklovlarga ega, shuning uchun tizimni “yaxshi” qila olmaydigan joyda emas, balki, uni muvaffaqiyatli bajaradigan joyda ishlatish zarur. Masalan, o‘qituvchi yangi didaktik materiallarni yaxshi ishlab chiqadi, ammo uning rivojlanishini ilmiy asoslay olmaydi. Bunday holda, siz uni ilmiy yozish ko‘nikmalarini takomillashtirishga majburlamasligingiz kerak, uning metodologik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlashingiz va ularni rag‘batlantirishingiz kerak va ilmiy umumlashtirish buni yaxshi bajaradigan o‘qituvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, har bir o‘qituvchining o‘z muvaffaqiyatli roliga ega bo‘lgan mualliflik jamoasini yaratish mumkin;

4) Maqsadlarga erishish uchun tizimni u yaratilgan asoslarni hisobga olgan holda tanlashi mumkin. Ushbu qoida tizimning barcha tomonlarini va undan foydalanishning eng samarali variantini topish uchun uning ishlash shartlarini hisobga olishni belgilaydi;

5) Tizim dinamik – u o‘zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladi, bu esa alohida elementlarni moslashtirishga olib keladi;

6) Ongli ravishda harakat qiluvchi obyekt sifatida shaxsning yetakchi roli;

7) Sintez va induksiyaga tayanish. Har bir o‘qituvchi mavjud tajriba asosida keyingi harakatlarni bashorat qilishga qodir.

O‘qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirishga tizimli yondashuv aniq va ishonchli ma‘lumotlarni olish uchun turli xil ilmiy usullarni qo‘llash, faoliyatni to‘g‘ri yo‘nalishda tashkil etish, bizni qiziqtirgan hodisani loyihalash va uzluksiz rivojlantirishning o‘ziga xos usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, tizimli yondashuv rivojlanishning maqsad va vazifalarini aniqlashga, ushbu yo‘nalishdagi ishlarning mazmunini tanlashga, rivojlanish vositalari va shartlarini tanlashga, shuningdek, innovatsion salohiyatning tuzilishini aniqlashga imkon beradi.

Sinergetik yondashuv pedagogik jarayonlarning o‘zini o‘zi tashkil etish mexanizmlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Sinergetika (yunoncha synergeia) – birgalikda ishlash, harakatni birlashtirish, degan ma‘noni anglatadi, bu tizim qismlarining izchil o‘zaro ta‘siriga (bir butun sifatida) urg‘u beradi.

O‘qituvchining innovatsion salohiyatini uzluksiz rivojlantirishga sinergetik yondashuv ushbu rivojlanishni yaxlitlik, ochiqlik va ijodkorlik tamoyillari asosida loyihalash imkonini beradi.

Faoliyatli yondashuv – inson rivojlanishining asosiy sharti ekanligi haqidagi postulatni himoya qiladi, bundan tashqari, u talabalarni rivojlantirish va o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Faoliyatli yondashuv (kattalar ta‘limiga nisbatan) – bu ta‘limni birgalikda bo‘lingan faoliyat (pedagogik va o‘quv) sifatida tan olishga asoslangan yondashuv bo‘lib, unda o‘quv faoliyati yetakchi rol o‘ynaydi-talabalarning o‘z kompetentsiyasini rivojlantirish bo‘yicha faol mustaqil faoliyatidir.

Ta‘limda faoliyatli yondashuvning mohiyati barcha pedagogik chora-tadbirlarni jadal, doimo murakkab bo‘lgan faoliyatni tashkil etishga yo‘naltirishdir, chunki inson faqat o‘z faoliyati orqali fan va madaniyatni o‘rganadi, dunyoni bilish va o‘zgartirish usullarini, shakllarini o‘rganadi, shaxsiy fazilatlarini shakllantiradi va yaxshilaydi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, faoliyatning mazmunli tomoni shaxsning qadriyat yo‘nalishlari bilan ta‘minlanadi. Buning sababi faoliyat yondashuvida o‘qiyotgan kattalar “o‘z faoliyatini va unda o‘zini rivojlantirishga qodir bo‘lgan o‘quv jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi”.

Shunday qilib, o‘qituvchining innovatsion salohiyatini uzluksiz ravishda rivojlantirish uchun faol yondashuv quyidagilarga imkon beradi:

– o‘qituvchining malakasini oshirish yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash tizimini uni modernizatsiya qilish motivlari, maqsadi, vositalari va usullariga ega bo‘lgan mustaqil faoliyat sifatida ko‘rib chiqish;

– o‘z malakasini oshirayotgan o‘qituvchini faoliyat subyekti sifatida ko‘rib chiqish;

– o‘qitishda o‘qituvchining dolzarb kasbiy vazifalari bilan integratsiyasi.

Faoliyatli yondashuv quyidagilarni ta‘minlaydi:

– faol, mustaqil bo‘lishga imkon beradigan faol ijodiy faoliyatga o‘qituvchilarni jalb qilish;

– jamoada ishlash qobiliyatini oshirish;

– o‘qish va bo‘sh vaqtni tashkil etish;

– ijtimoiylashuv va kasbiy o‘zini o‘zi belgilash.

Aksiologik yondashuv – bu qadriyatlar, ijtimoiy, madaniy omillar va shaxsni bog‘laydigan mexanizmdir.

Aksiologik yondashuvning asosi dunyoning o‘zaro bog‘liqligi, o‘zaro aloqadorligi va o‘zaro ta‘siri haqidagi bayonotdir, bu munosabatlarning tizimni tashkil etuvchi ele-

menti o‘rganish yoki o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida qadriyatlarga aylanadigan bilimdir.

Akmeologik yondashuv eng yuqori darajadagi professionallikni, maksimal darajada o‘zini o‘zi anglash va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni, doimiy ravishda o‘zini takomillashtirishni, kasbiy salohiyatni, shu jumladan, innovatsion salohiyatni rivojlantirishni, shuningdek, bunday rivojlanish imkoniyatlari uchun sharoitlarni, pedagogik pozitsiyani modellashtirishni va pedagogik faoliyatda innovatsionlikka qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion salohiyatni rivojlantirish uchun ta‘lim tashkilotidagi innovatsion muhitning mohiyati va roli (akmeologik yondashuv nuqtayi nazaridan) M.I. Plugina tomonidan o‘rganiladi. Unga ko‘ra akmeologik yondashuv ta‘lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonini optimallashtirish imkoniyatini beradi; o‘qituvchining global ta‘lim muhitiga integratsiyalashuvi jarayonini faollashtirishga imkon yaratadi; bo‘lajak o‘qituvchilarning bosqichma-bosqich rivojlanishi mexanizmlarini asoslaydi.

Salohiyatni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning roli juda yuqori. Bu “akmeologik salohiyat”ning insonning kasbiy va shaxsiy salohiyatidan ajralishini isbotlaydi. Biz olimlarning bunday pozitsiyasini qo‘llab-quvvatlaymiz, chunki o‘z-o‘zini takomillashtirish motivatsiyasining mavjudligi, kasbiy faoliyatida o‘sish istagi o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi mavjud zaif tomonlarni qoplashi va uni o‘z sohasining haqiqiy professionaliga aylantirishi mumkinligi ko‘p marta isbotlangan.

Umuman olganda, akmeologik yondashuv o‘qituvchi tomonidan bajariladigan kasbiy faoliyat funktsiyalarini umuman mavjud salohiyatni va xususan innovatsion salohiyatni maksimal darajada amalga oshirish nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi. Ushbu yondashuv ta‘lim tashkilotining muhitini, uning elementlarini tahlil qilish va baholashga imkon beradi, bu uning ta‘lim jarayonining barcha subyektlariga ta‘sirining ehtimoliy strategiyalari va modellarini belgilaydi.

Ekologik yondashuv o‘qituvchining faol innovatsion faoliyati, innovatsiya sohasida qadriyat yo‘nalishlarining mavjudligi, shuningdek, pedagogik yuksaklik cho‘qqilariga intilishi sharti bilan o‘qituvchining mavjud innovatsion salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon beradi.

Shaxsiy yondashuv shaxsning ichki dunyosining o‘ziga xosligini belgilaydi va barcha pedagogik ta‘sirlarning natijasi inson hayotini belgilaydigan “muvofiqlashtirish tizimi” bo‘lishi kerak. Ushbu holatlar N.A. Alekseev, E.V. Bondarevskaya va S.V. Kulnevich va boshqalar tomonidan tubdan ishlab chiqilgan.

Ushbu yondashuv shaxsni barcha tashqi ta‘sirlarni buzadigan ichki sharoitlarning integral aloqasi sifatida tushunishni taklif qiladi. Shunga muvofiq, shaxsiy yondashuv pedagogik jarayonlarni pedagogik faoliyat subyektlarining o‘zini o‘zi anglashi va o‘zini o‘zi rivojlantirishga ko‘maklashish nuqtai nazaridan qurishni taklif qiladi. Bu shaxsning to‘g‘ri yo‘nalishda, bizning holatlarimizda – innovatsion faoliyatda jadal rivojlanishi uchun sharoit yaratish zarurligini belgilaydi. I.S. Yakimanskayaning ta’rifiga ko‘ra, birinchi bosqichda ma’lum vaziyatda subyektiv tajriba ochib beriladi, so‘ngra faoliyatning mazmuni va maqsadlariga muvofiqlashtiriladi.

Shaxsiy yondashuvni amalga oshirish quyidagi talablarni nazarda tutadi:

– o‘zining va o‘quvchilarining individual xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini yaxshi bilish;

– shaxsiy fazilatlarning rivojlanishini tashxislash va monitoringini tashkil etish qobiliyati (munosabat, motivlar, qiymat yo‘nalishlari, fikrlash turi, o‘ziga bo‘lgan munosa-

bat, atrofdagi odamlar va turli xil faoliyat turlari va boshqalar);

– o‘quvchilarni shaxsning progressiv rivojlanishiga hissa qo‘shadigan maxsus tashkil etilgan faoliyatga jalb qilish;

– talab qilinadigan kasbiy va pedagogik natijalarni cheklash sabablarini aniqlash va yo‘q qilish, o‘qitish va tarbiyalashning taktik usullarini qo‘llashda moslashuvchanlik;

– ta‘lim usullarini shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalashi bilan mohirona uyg‘unligi;

– o‘z ishlarida mustaqillik va tashabbusni rivojlantirish va o‘quvchilarda faoliyatning ushbu xususiyatlarini rag‘batlantirish.

Antropologik yondashuv o‘qituvchining innovatsion salohiyatini insonning moslashuvining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradigan, uning o‘zini anglashi va o‘zini rivojlanishini hayotning strategik omili sifatida ta‘minlaydigan ijtimoiy antropologik fazilatlar to‘plami sifatida ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Bundan tashqari, ushbu fazilatlar shaxsning innovatsion faoliyatga jalb qilishini ta‘minlaydi. Bularning barchasi o‘qituvchining innovatsion xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Madaniy yondashuvo‘qituvchining madaniyat bilan tabiiy va uzviy bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Uni o‘zlashtirgan odam tashqi o‘zgarishlarga osonroq moslashadi, ba‘zi hollarda ularga qarshi tura oladi va jahon sivilizatsiyasi salohiyatini oshiradi. Aytishimiz mumkinki, inson madaniyat elementlarining yaratuvchisiga aylanadi, chunki u bizning hayotimizga g‘ayrioddiy, nostandart, yangi narsalarni olib keladi.

Shunday qilib, taklif qilingan metodologik yondashuvlar konstruktsiyasi o‘qituvchining innovatsion salohiyatini kuchli va zaif tomonlarini amalga oshirilgan, amalga oshiriladigan va amalga oshirilmagan jihatlarda o‘rganish va tushunish uchun asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 24.07.2020-yil O‘RQ-630-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yil O‘RQ- 637-son.

3. 2022-yil 28-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., 2018, 19-20-betlar.

5.Алексеев Н.А. Педагогические основы проектирования личностно ориентированного обучения: дис. … д-ра пед. наук / Н.А. Алексеев. – Тюмень, 1997. – 310 с.

6. Бондаревская Е.В. Педагогика: Личность в гуманистических теориях и системах воспитания: учеб. пособие / Е.В. Бондаревская, С.В. Кульневич. – М.: Ростов н/Д: Академия, 1999. – 560 с.

7. Волкова О.М. Синергетические принципы как основа методологической парадигмы иноязычного образования в школе / О.М. Волкова // Молодой ученый. – 2014. – № 6. – С. 631–634.

8. Коджаспирова Г.М. Педагогическая антропология: учеб. пособие / Г.М. Коджаспирова. – М.: Гардарики, 2005. – 287 с.

Bahrom UMAROV,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

BO‘LAJAK FALSAFA DOKTORLARINING TADQIQOTCHILIK VA INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY YONDASHUV (xorijiy tajribalar asosida)

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak falsafa doktorlarining tadqiqotchilik va innovatsion kompetentligini rivojlantirishda loyihaviy yondashuv mohiyati rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalari asosida ilmiy asoslangan. Shuningdek, falsafa doktorlarini tayyorlashda loyihaviy yondashuv da’vogarlarning tadqiqot ishini aniq maqsad va samarali natijalarga ega bo‘lgan haqiqiy loyiha sifatida shakllanishida potensial ta’sir etishi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar. Globallashuv, bo‘lajak falsafa doktori, loyihaviy yondashuv, tadqiqot, innovatsiya, kompetentlik, oliy ta’lim, texnologik taraqqiyot, dissertatsiya.

В статье изложена сущность проектного подхода в развитии исследовательской и инновационной компетентности будущих докторов философии, научно обоснованного на основе опыта развитых зарубежных стран. Также, было исследовано потенциальное влияние проектного подхода в подготовке докторов философии на формирование исследовательской работы соискателей как реального проекта с четкой целью и эффективными результатами.

Ключевые слова. Глобализация, будущий доктор философии, проектный подход, исследования, инновации, компетентность, высшее образование, технический прогресс, диссертация.

The article describes the essence of the project approach in the development of research and innovation competence of future doctors of philosophy, scientifically based on the experience of developed foreign countries. The potential impact of the project approach in the preparation of doctors of philosophy on the formation of the research work of applicants as a real project with a clear goal and effective results was also investigated.

Key words. Globalization, future doctor of philosophy, project approach, research, innovation, competence, higher education, technical progress, dissertation.

Yangi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitda ta’lim va fanning sifati va raqobatbardoshligini oshirish, O‘zbekistonning xalqaro ta’lim va ilmiy makonga integratsiyalashuvini jadallashtirishga qaratilgan tub o‘zgarishlar zarurati, ta’limda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, uning sifatini innovatsion asosda oshirish O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bugungi kunda mamlakatimizda ham oliy ta’limning ilmiy-pedagogik xodimlarini ilmiy-tadqiqot va innovatsion tayyorlashga katta e’tibor talab qiladi, chunki oliy ta’lim sifati ilmiy va pedagogik kadrlarning malakasiga bog‘liq.

Mamlakatimizda falsafa doktorlarini tayyorlashda transformatsion o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan asosiy omil esa, dastavval bilimlar ko‘lami, so‘ngra axborot texnologiyalarning rivojlanishi va shunga mos ravishda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash-

ga ijtimoiy talabning o‘sishi edi. Bunday sharoitda oliy ta’lim iqtisodiy o‘sish va rivojlangan ijtimoiy soha hisobiga inson kapitalini yaratish va mehnat unumdorligi darajasini oshirishning asosiy manbai hisoblanadi.

Bo‘lajak falsafa doktorlarini tayyorlash tizimi rivojlanishining ma’lum bosqichida sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotda tatbiq etish ilmiy-pedagogik kadrlarning tadqiqotchilik va innovatsion kompetentligini rivojlantirishda bevosita va bilvosita ta’sir etishi shubhasiz.

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar o‘z taraqqiyotlarini aynan oliy ta’limdan keyingi ta’limdagi keskin burilish va tadqiqotchilik qobiliyatiga bo‘lgan e’tibordan boshlaganlarinini yashirmaydilar. Milliy elitani shakllantirish zarur bo‘lgan yuqori malakali kadrlar zaxirasini, uning intellektual potensialining tarkibini ilmiy-amaliy jihatdan yuzaga chiqarish va undan oqilona, jamiyat tarqqiyoti yo‘lida unumli foydalanishdir.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, keyingi o‘n besh yil ichida rivojlangan mamlakatlarda ham doktoranturada tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu o‘zgarishlar doktorantura dasturlariga kengroq kirish, tuzilgan o‘quv va ilmiy dasturlarni joriy etish hamda ta’lim natijalariga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limni amalga oshirish, doktoranturaga loyihaviy yondashuvni joriy etish, falsafa doktorlarining akademik harakatchanligini oshirish, ularni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalardan samarali foydalanishda ustuvorlik berilishi bilan ko‘zga tashlandi.

Xorijiy mamlakatlarda oliy ta’limning uchinchi bosqichiga e’tiborning kuchayishi o‘quv va ilmiy jarayonni tashkil etishning yangi samarali shakllari hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat uchun bo‘lajak falsafa doktorlarini tayyorlash usullari, jumladan, tadqiqot guruhi modeliga “shogirdlik” modeli, loyiha asosida tashkil etilgan ta’lim (kooperativ ta’lim, ijtimoiy tadbirkorlik, ishlab chiqarishda malaka oshirish, ilmiy konsalting, PhD kollokviumlari, ish joyida o‘qitish)ni joriy etishga olib keldi.

Yevropa Komissiyasi 2011-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlangan yevropa tadqiqot hududi doirasida innovatsion doktorlik ta’limining yettita tamoyilini ishlab chiqdi. Shu ma’noda “innovatsion doktorantura” atamasi asl tadqiqot o‘tkazish, ijtimoiy muammolarni kompleks hal etish uchun bilim yaratish va falsafa doktorlarni kasbga tayyorlash o‘rtasidagi muvozanatni topishni anglatadi. Belgilangan yettita tamoyil quyidagi qoidalarni o‘z ichiga oladi:

– fundamental tadqiqot olib borishga e’tibor qaratish (tadqiqotchilarning yangi avlod vakillari ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak);

– jozibador innovatsion muhitni yaratish (doktorantlar mustaqil tadqiqotchi bo‘lishlari uchun qulay mehnat sharoitlariga ega bo‘lishi va kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak);

– fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va integratsiyani ta’minlash;

– tarmoqlararo hamkorlikni mustahkamlash (kadrlar tayyorlash sohasida manfaatdor tomonlarni jalb qilish, doktorantlar tayyorlashni birgalikda moliyalashtirish mexanizmlari);

– xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish (qo‘shma tadqiqotlar, ikki tomonlama diplomlar, mobillik);

– umumiy kasbiy ko‘nikmalarga o‘rgatish (muloqot, jamoada ishlash, tadbirkorlik, loyihalarni boshqarish, etika, standartlashtirish va boshqalar);

– falsafa doktorlarini tayyorlash jarayoni sifatini kafolatlash (tadqiqot muhiti sifatini ta’minlash, qabul qilish, nazorat qilish, doktorlik darajasini olish va kasbiy o‘sishning shaffof tartibi).

Yuqori malakali intellektual mehnat mutaxassislariga bo‘lgan kuchli ijtimoiy talab va yevropa Ittifoqining oliy ta’limni uchinchi bosqichini rivojlantirish bo‘yicha tizimli siyosati dunyoda falsafa doktorlarini tayyorlashning ommaviylashuviga olib keldi.

Yevropada ilmiy kadrlar tayyorlashning “shogirdlik modeli” (“Apprenticeship Model”) keng tarqalgan bo‘lib, u ko‘proq professor tomonidan doktorantlarni tayyorlashda individual yondashadi. Doktorantdan rahbar tavsiyalariga ko‘ra, bir nechta uslubiy seminarlardan o‘tishi va tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ilmiy loyihalarda qatnashishi talab etiladi. Binobarin, ko‘pchilik doktorantlar dissertatsiya ishlarini o‘z-o‘zini tarbiyalash va zarur ko‘nikmalarni mustaqil rivojlantirish uchun tayyorlaydilar, chunki yevropa va Britaniya an’analari doktorantni “talaba”dan ko‘ra ko‘proq tadqiqotchi bo‘lishiga tayanadi.

So‘nggi o‘n yillikda yevropadagi ko‘plab oliy ta’lim tizimlari o‘zlarining doktorantura tizimini an’anaviy Gumboldt modelidan “professional model” deb ataladigan yangicha tizimga, ya’ni mehnat bozoriga yo‘naltirilgan gibrid yondashuvga ustuvorlik berdilar. Bugungi kunda bu an’ana tobora an’anaviylashib bormoqda. Demak, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashdagi navbatdagi tendensiya bu professionallashtirish va malakaga asoslangan yondashuvdir.

Xorijiy ilmiy jamoatchilik falsafa doktorlaridan tobora ko‘proq fanlararo (sinergetik) bilim va kompetensiyalarga talab qilmoqda, chunki tor bilimlarga asoslangan ilmiy bilimlar jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emas. Tadbirkorlik faoliyati, ijtimoiy o‘zaro ta’sir kabi umumiy kompetensiyalar yangi sohalarda juda muhimdir, shuning uchun ular tadqiqot va o‘qitishdan kam talabga ega emas.

Yevropa universitetlari assotsiatsiyasining hisobotida ta’kidlanganidek, PhD darajasiga ega bo‘lgan xodimlarni ishga qabul qilishda ish beruvchilar ularning yangi g‘oyalarni yaratish yoki mavjud yechimlarni takomillashtirish, ijodiy qobiliyatlar, shuningdek, muloqot, yetakchilik, o‘zgarishlarga moslashish kabi ko‘nikmalarga alohida e’tibor berishadi.

Har qanday faoliyat sohasida bunday kompetensiyalar ingliz tilidagi adabiyotlarda quyidagicha nomlanadi: “generic skills” (umumiy qobiliyat), “elite skills” (xos qobiliyat), “career skills” (karera qilish qobiliyati), “combined skills” (birlashgan qobiliyat), “high level skills” (yuqori darajadagi malakalar). Ushbu tushunchalarning o‘xshashi bizda “umumiy” va “tayanch” malakalar, deb nomlanadi.

Doktorantning yutuqlarini baholashda subyektivizmga yo‘l qo‘ymaslik uchun axborotlashgan asrimizda falsafa doktorining kompetentligini baholash imkonini beradigan ma’lum mezonlar tizimi mavjud bo‘lishi kerak. Amerikalik tadqiqotchilar bu muammoni kompetensiyaviy yondashuvdan foydalangan holda hal qilishni taklif qilmoqdalar. Zero hozirgi vaqtda doktorantlar faoliyatini baholash hali ham rasmiy bo‘lib, asosan dissertatsiyani himoya qilish va topshirishga asoslangan. Binobarin, ilmiy kadrlarni tayyorlash muammolari bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar da’vogarlarning mutaxassisligidan qat’i nazar barcha nomzodlari uchun umumiy bo‘lgan o‘nta toifadagi kompetensiyalarni keltiradilar:

– soha bo‘yicha keng konseptual bilim;
– tanlangan ilmiy mutaxassislik bo‘yicha chuqur bilim;
– tanqidiy fikrlash;
– eksperimental ko‘nikmalar;
– mas’uliyatli tadqiqot;
– axborot bilan ishlash qobiliyati;

– hamkorlik va ilmiy jamoada ishlash;
– muloqot qobiliyatlari;
– yetakchilik va boshqaruv;
– yashash qobiliyatlari.

Tabiiy, matematika va texnik mutaxassisliklar vakillari ushbu modelga eng yaxshi moslashdilar, chunki universitet kafedralarining an’anaviy ravishda korxonalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalari doktorantlar ishtirokida qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha katta hamkorlik tajribasini ta’minladi. Bu innovatsiyalar va tadbirkorlikka yo‘naltirilgan ko‘plab fanlararo dasturlarning paydo bo‘lishiga, shuningdek, STEAM sohasida doktorantlar sonining ko‘payishiga yordam berdi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma’lumotlarining shahodat berishicha, aksariyat mamlakatlarda ularning soni 60 foizdan ko‘proqqa oshgan. Bunday yondashuvning mohiyati shundaki, doktorantlar ko‘p vaqtlarini hamkor kompaniyaning ish joyida ishlash bilan birgalikda eng muhim yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borishdi. Shu bilan birga, universitetlar tadbirkorlik faoliyatini ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan birlashtirishni ta’minladi. Ish beruvchilar, o‘z navbatida, dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning qo‘shma jarayonlarida ishtirok etish orqali universitetlar va ularning doktorantlari bilan faol hamkorlik qiladilar va buning natijasida taklif etilgan loyihalar, ishlab chiqarish jarayonlari va kompaniyaning o‘z mahsulotlari sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, bunday o‘zaro aloqada bo‘lajak falsafa doktorining dissertatsiya ishi aniq maqsad va aniq natijalarga ega bo‘lgan haqiqiy loyiha sifatida belgilangan muddatda amalga oshiriladi. Bu doktorantura ta’limini loyihalashtirish va tegishli idoralar tomonidan tadqiqot dasturlarini moliyalashtirishning samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Kaliforniya universiteti bo‘lajak falsafa doktorlarini tayyorlash bo‘yicha amaliyot dasturini ishlab chiqdi, bu esa, tizimli o‘rganish va amaliy tajribani ta’minladi. Bunday dasturlarda ishtirok etish PhD da’vogarlarining tadqiqot o‘tkazish va qarorlar qabul qilish, shuningdek, ularni kasbiy o‘sish (karera) ko‘nikmalari bilan qurollantirishga bo‘lgan ishonchini oshirdi.

Yevropa Ittifoqi siyosati zamonaviy doktorlik ta’limining muhim tarkibiy qismi sifatida soha vakillarining faol hamkorligi, ya’ni tugal integratsiyalashuvida shu sohaning muammolari teran anglanadi. Innovatsion tafakkurning shakllantirilishi bilan innovatsion muhit paydo bo‘ladi, muammo – ilmiy g‘oya – intellektual mulk obyekti – yangi ishlanmaning joriy etilishi tizimi ishlaydi va soha rivojlanishi jadallashadi.

G‘arb ta’lim tizimida tarqalgan eng samarali o‘qitish usullaridan biri hamkorlik, faol ishtirok etish va o‘zaro ta’sir orqali bilim, ko‘nikma va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beruvchi loyihaviy yondashuv (Project–Based Learning) hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlarda bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda, xususan, doktoranturada loyihaga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llashning zamonaviy namunalari keng yoritilgan.

Janubiy Indiana universitetida (AQSh) ijtimoiy tadbirkorlik modeli asosida o‘quv faoliyati amalga oshiriladi. Xayme I universitetida (Ispaniya) faoliyat yurituvchi bakalavrlar, magistrlar va PhDlar uchun biznes imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha to‘rt bosqichli o‘quv dasturi asosida o‘qitish, Massachusetts texnologiya institutida (AQSh) esa, muhandislikka ixtisoslashgan oliy ta’limda loyihalarni boshqarish bo‘yicha professional ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha innovatsion ta’lim dasturi amaliyoti joriy etilgan.

Shimoliy yevropa mamlakatlari: Norvegiya, Daniya, Shvetsiyada “universitet – hu-

kumat – biznes” hamkorlik uchburchagida istiqbolli tadqiqot amaliyoti joriy etilgan.

Buyuk Britaniya, Germaniya va AQSh texnika universitetlarining polimer profili bo‘yicha mutaxassislarni loyihaviy o‘qitishni qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajriba ommalashgan. Ispaniyaning Madrid politexnika universitetida loyiha asosidagi ta’lim bilan birlashtirgan kooperativ ta’lim usuli tatbiq etilgan. O‘qitish jarayonida loyiha mijozlari bilan professional aloqalar o‘rnatiladi. Bo‘lajak falsafa doktorlari loyiha ustida birgalikda ishlash jarayonida real muammolarni hal qilish uchun imkoniyat qoldiradi. Bu jarayon davomida ular loyiha ishtirokchilari bilan bevosita muloqotda olingan amaliy bilimlar bilan boyitiladi, bu esa, ularga yangi bilimlarni egallash imkonini beradi.

Norvegiyada 2008-yildan buyon sanoat falsafa doktorini tayyorlash dasturi (Industry–Oriented PhD) joriy etilgan bo‘lib, uning doirasida kompaniyalar belgilangan malakani olishga intilayotgan da’vogarni uch yil muddatga qo‘llab-quvvatlaydi.

Ispaniyada da’vogar akademik PhD darajasiga qo‘shimcha ravishda sanoat doktori darajasini olishi mumkin. Buning uchun tijorat kompaniyasida, xususiy yoki davlat sektorida ishlashi, kompaniyadagi sanoat tadqiqotlari yoki eksperimental loyihalarda ishtirok etishi talab etiladi. Nomzod ishtirok etayotgan loyiha dissertatsiya mavzusi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Braziliya olimlarining fikricha, doktoranturaga qabul qilingan paytdan boshlab doktorantning mustaqillik darajasi va uning vazifalari murakkabligi bosqichma-bosqich oshirilishi kerak. Agar u dastlab ilmiy rahbariga shogird bo‘lsa ham, unga kelajakdagi hamkorlik sifatida qaraladi. Kasbiy takomillashuvdan tashqari loyihalarda ishtirok etish dissertatsiya ishini yakunlash uchun kuchli moliyaviy asosga aylanadi.

Xorijiy oliy ta’lim muassasalarida falsafa doktorlarini ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning malaka oshirish dasturiga kiritilgan karerani rejalashtirish faoliyati (Career Development Activity) alohida ahamiyatga ega.

Xulosa, bo‘lajak falsafa doktorlarining tadqiqotchilik va innovatsion kompetentligini rivojlantirishda loyiha ustida ishlash kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhim bo‘lgan malakalar: jamoaviy ish, muloqot, yetakchilik, maqsadlilik va motivatsiya, ochiqlik, ijodkorlik, natijaga yo‘naltirilganlik, moslashish va innovatsiya qilish qobiliyati, muammolarni hal qilish va boshqalarni rivojlantirishni ta’minlaydi. Bunday kompetensiyalar xaritasi mamlakatimizda falsafa doktorlarini tayyorlash, o‘qitishning maqsadi va kutilayotgan natijalarini shakllantirish borasida o‘quv dasturini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz/docs/310292
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 545-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son Farmoni

Nilufar OMONOVA,
Termiz davlat universitetini
Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorant

TA’LIMDA KOOPERATIV YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kooperativ yondashuv va uning o‘rni hamda ahamiyati, bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili bayon qilingan. Oliy ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari va samaradorlik natijalari izohlangan.

Kalit so‘zlar. Hamkorlik, rivojlantirish, talaba, pedagogika, yondashuv, tarbiya, ta’lim, pedagog, psixologik, munosabat, imkoniyat.

В данной статье описывается кооперативный подход, его роль и значение, а также проводится анализ научных исследований. Объяснены возможности применения и результаты эффективности в процессе высшего образования.

Ключевые слова. Сотрудничество, развитие, ученик, педагогика, подход, воспитание, образование, педагог, психологический, отношение, возможность

This article describes the cooperative approach and its role and importance, as well as the analysis of scientific research. Application possibilities and efficiency results in the process of higher education are explained.

Key words. Cooperation, development, student, pedagogy, approach, upbringing, education, pedagogue, psychological, attitude, opportunity

Har bir davlatning rivojlanishi uning o‘sib kelyotgan yoshlariga bog‘liq. Yoshlar shijoatli, ilmli bo‘lsa, davlatda buning uchun sharoit yaratilsa bu yurtning ertasi porloq, kelajagi buyukdir. Mamlakatlarning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir[1]”-deya aytgan e’tiroflari O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriligini yana bir karra isbotlaydi. Ta’lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo‘lib qo‘shilishiga yordam beradi. Shunday ekan, har bir ilm dargohi rivojlanish imkoniyatini yanada oshirish, ta’lim oluvchilarning bilim olib, kasb egallashi uchun o‘qib o‘rganishga moyil yoshlarning bir-birlari bilan hamkorlikda erkin munosabat o‘rnatishlari, doimiy hamkor, hamfikr bo‘lib harakat qilishlariga ko‘maklashish zarur.

Respublikamiz ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishning normativ-huquqiy bazasi yangilandi, moddiy-texnik infrastrukturasi yaratildi. Oliy ta’lim muassasalarini strategik rivojlantirishning “yo‘l xarita”lari ishlab chiqildi, xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda

[1] Lex.uz

qo‘shma fakultetlar, universitet filiallari tashkil etildi va etilmoqda. Ta’lim tizimida olib borilayotgan bunday islohotlar hamkorlikda o‘qitish vositasida talabalarning birgalikda o‘quv faoliyatini olib borishi, vazifalarini ham hamkorlikda bajarishni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kooperativ yondashuvning o‘rni va muommolarining nazariy-metodologik jihatlari D. Jonson, R. Jonson, Sh.A. Amonashvili, V.Ya. Lyaudis, L.N. Tolstoy, H.T. Omonov, N.X. Xo‘jaev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov, G.Q. Karimova, G.S. Alixodjaeva kabi olimlarning izlanishlarida yoritib berilgan.

D. Jonson[2] hamkorlikning asosiy g‘oyasi talabalarning turli xil o‘quv jarayonlarida birgalikda faol o‘quv faoliyati uchun sharoit yaratishdir deya e’tirof etadi.

Shalva Aleksandrovich Amonashvili[3] o‘zining ekspremental maktabida hamkorlik pedagogikasining samarali metodikasini ishlab chiqdi va hayotga tatbiq etdi. Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

• bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda olijanob inson shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug‘dirmoq;

• bolaning qalbi va yuragini ulug‘lamoq;

• boladagi bilishga bo‘lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;

• keng va chuqur bilim hamda malaka olish uchun sharoit tug‘dirmoq;

• ideal tarbiya orqali o‘z-o‘zini tarbiyalamoq;

Pedagog olimlar H.T. Omonov., N.X. Xo‘jaev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonovlar[4] talabalarning hamkorlikda ta’lim olishlari, ta’lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar ZPTning asosiy metodlari ekanligini izohlagan.

D. Johnson, R. Johnsonlar[5] hamkorlikdagi munosabatning asosiy omillarini quyidagi turlarga ajratgan:

- O‘zaro munosabat
- G‘oyalarni bo‘lishish
- Hamkorlik
- Munozara.

Professor V.Ya. Lyaudis[6] o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamda o‘quvchilarning birgalikdagi samarali faoliyati konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Tolstoyning[7] tarificha ideal maktab bu – erkin hamkorlikka asoslangan, ya’ni o‘qituvchi bilimlarni taqdim etadi, o‘quvchilar uni erkin tarzda idrok etishadi. Bunday maktabning asosiy funksiyasi erkin ta’lim berishdir, degan. Shuningdek u, pedagogik konsepsiyasidagi yetakchi tamoyil, bolalarning o‘ziga xosligini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

---

[2] Jonson D, Jonson R. (1994). Leading the cooperative school (2nd Ed.) Edina, MN: Interaction Book Company.

[3] Ш.А Амонашвили. Основы гуманной педагогики. Книга 3. Школа жизни. Москва Амрита-Рус 2017. 228 страниц

[4] Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat darslik. Mualliflar jamoasi. T.: 2007. 40 b

[5] Jonson, D., Jonson R. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. Educational Researcher, 38(365), 365-379.

[6] O‘g‘loy Abdullaeva Pedagogik texnologiya o‘quv qo’llanma. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashi yig‘ilishining 2014-yil 25-dekabrdagi № 4-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.T.; 2015. 39-43

[7] Xodjayev B.X. Umumiy Pedagogika. Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo’nalishlari uchun darslik «Sano-standart» nashriyoti – T.: 2017 79 b

Pedagog olimlar G.Q.Karimova, G.S.Alixodjaevalar[8] hamkorlik pedagogikasida talaba o‘z o‘quv faoliyatining asosiy figurasi hisoblanadi. Ular o‘zaro hamkor, hamfikr, hamdo‘st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard tarzida faoliyat yuritishini o‘z izlanishlarida tadqiq etgan.

Kooperativ yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlari, hamkorlikda ishlash, vazifalarni birgalikda bajarish, fikrlashish, kichik guruh tashkil eta olish, nazoratning yuqorililigini ta’minlay olish bilan obyektiv, subyektiv hamda pedagogik omillar ta’sir darajasining barqarorligini ta’minlash asosida aniqlashtirilgan.

Kooperativ yondashuvning asosi – hamkorlikdir. Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kunlik qizg‘in aqliy mehnatga o‘rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma`suliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Hamkorlikda o‘qitish usulini amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalar:

1. Evristik suhbatlar.
2. Umumiy suhbatlar.
3. Ekskursiyalar.
4. Darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o‘stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar.
5. Ta`limning ko‘rgazmali metodlari.
6. Mustaqil ishlar.
7. Dars jarayonida og`zaki rasm chizish.
8. Imo-ishorali ko‘rinishlar va boshqalar kiradi.[9]

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani qurish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ma’lum guruhdagi o‘quvchilarni 3-4 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘lish kerak. Kichik guruhda talabalar psixologik jihatdan bir-biriga mos kelishi shart. Aks holda, tuzilgan kichik guruh talabalari orasida hamkorlik bo‘lmaydi, har bir tuzilgan guruh uchun alohida vazifalar beriladi, ya’ni har bir talaba vazifani bajarish uchun mas’ul va asosiy vazifa: kerakli natijani olish ekanligi tushuntiriladi[10].

Hamkorlikda o‘qitish mashg`ulotlarini tashkil qilishda: o‘qituvchi – sinf, o‘qituvchi - kichik guruh, o‘qituvchi – katta guruh, o‘qituvchi – o‘quvchi, o‘quvchi – o‘quvchi (juftlikda ishlash), kichik guruh – kichik guruh, kichik guruh-sinf va boshqa tashkiliy shakllar qo‘llaniladi.

Hamkorlikda o‘qitish – bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar guruhi, yakka o‘quvchi hamda butun sinf bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o‘quvchilarning ham o‘zaro qo‘llab – quvvatlovchi hamkorligini ama-

[8] Karimova G.Q., Alixodjaeva G.S. O’quv uslubiy majmua. Ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo’yicha. T.: 2017. 7 b

[9] Saidahmedov N., Abdurahmonov O. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999. – 27 b.

[10] Jonson.D, Jonson.R. (1994). Leading the cooperative school (2nd Ed.) Edina, M.N.: Interaction Book Company.

ga oshirishdagi instruktiv va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O‘quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o‘zlariga hamda o‘z guruhlaridagilarga birgalikda yordam berishadi. Umuman, hamkorlikda o‘qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O‘quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki bajarilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o‘zlashtiriladi.

2. O‘quvchilar 2-5 a`zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O‘quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O‘quvchilar ijodiy va mustaqil bo‘lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyati bo‘yicha ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarning bir-birlariga ko‘maklashishlari talab etilganini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘ladi.

5. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o‘qishga, ta`lim olishga, shaxsan mas’uliyatli va javobgardirlar[11].

Hamkorlikda o‘qitish nima uchun kerak, degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin:

Hamkorlikda o‘qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

— o‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi;

— o‘quvchilarga beriladigan o‘quv vazifalari ular o‘rtasida taqsim qilinib, o‘zlashtirilgan kognitiv axborotlar to‘plamini beradi;

—o‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;

— o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

— axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;

— o‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;

— turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o‘rtasida ijobiy o‘zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o‘qitish usullariga asoslangan mashg‘ulotlarni o‘ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo‘llash tizimi mavjud bo‘lib, quyida shu mashg‘ulotlardan ayrim namunalarni ko‘rsatib o‘tamiz:

— uch pog‘onali intervyu;
— davra suhbati;
— ro‘yhat tuzish;
— muammolar yechishni tashkil qilish;
— bir daqiqalik ishlar;
— juftlik izohlari;
— muammoni jo‘natish;
— baholash chizig‘i;
— kam uchraydigan birlik;
— jamoa kutuvi;
— ikki qismli kundalik;
— o‘zaro savol yo‘llash[12].

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi o‘quvchining ta’lim olishidagi muvofaqiyati guruh muvofaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini to‘liq va sifatli bajarishga, o‘quv materialini to‘liq o‘zlash-

[11] Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Nasaf, 2000. – 19 b.

[12] A. Xoliqov “Pedagogik mahorat” – T.: “Iqtisod-moliya” 2010 y 312 b.

tirishga yordam beradi.

Pedagogik hamkorlikning to‘g`ri tashkil etilishi talabalarda o‘quv materialini samarali o‘zlashtirish bilan birgalikda ular o‘rtasida munosabat birligining yaratilishi uchun ham zamin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, kooperativ yondashuvni rivojlantirish, avvalo, ularning birgalikda o‘qish va hamkorlikda harakatga kirishishi natijasida namoyon bo‘lib, kooperativ yondashuvning tarkibida mavjud hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi, insonni psixologik jihatdan boyitadi[13]. Kooperatsiyaga bo‘lgan ehtiyojning holati va mazmuni ta’lim-tarbiya tizimi, kooperatsiyaga ehtiyoji yuqori bo‘lgan talabalar ma’lumotlarni oson o‘zlashtirib, odamlarga nisbatan muloqotga moyilligi yuqori bo‘ladi.Talabalarda kooperativ yondashuvga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganib, quyidagi amaliy takliflarni berishimiz mumkin:

- ✓ kooperativ yondashuvni rivojlantirish uchun dars davomida o‘qituvchi tomonidan talabalarni hamkor, hamfikr bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ talabalarni birgalikda birlashib, harakat qilishlari va yagona maqsadni amalga oshirishlari uchun ularni o‘quv faoliyati davomida kichik guruhlarda ishlashlarini tashkil etish;
- ✓ talabalarga hamkorlikda bajariladigan vazifalar berish orqali ularning kooperatsiyani rivojlantirish ehtiyojini oshirish ;
- ✓ guruhda hamma tengligini va vazifalar teng taqsimlanishini ta’minlash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘g‘loy Abdullaeva Pedagogik texnologiya o‘quv qo‘llanma. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Kengashi yig‘ilishining 2014-yil 25-dekabrdagi № 4-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan. – T.: 2015 39-43

2. Xodjayev B.X. Umumiy Pedagogika. Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik “Sano-standart” nashriyoti. – T., 2017 79 b.

3. Karimova G.Q., Alixodjaeva G.S. O‘quv uslubiy majmua. Ilg‘or ta’lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasi moduli bo‘yicha. –T., 2017. 7 b

4. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. –T.: O‘zMU. -2010. b. 76-77

5. Ricks F. Principles for Structuring Cooperative Education Programs. Journal of Cooperative Education 31, nos. 2-3 (Winter-Spring 1996): 8-22. (EJ 524 105)

6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –T.: Nasaf, 2000. – 19 b.

7. A. Xoliqov “Pedagogik mahorat”. – T.: “Iqtisod-moliya” 2010-y 312 b.

8. Saidahmedov N., Abdurahmonov O. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. – T.: RTM, 1999. – 27 b.

9. Johnson D., Johnson R. (1994). Leading the cooperative school (2nd Ed.) Edina, MN: Interaction Book Company.

10. Johnson D., Johnson R. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. Educational Researcher, 38(365), 365-379.

11. Амонашвили Ш.А. Основы гуманной педагогики. Книга 3. Школа жизни. Москва Амрита-Рус 2017. 228 страниц

12. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat darslik. Mualliflar jamoasi. – T.: 2007. 40 b

13. Lex.uz

[13] G‘oziev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – T.: O‘zMU. -2010. b. 76-77

Shaxzoda ASHUROVA,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, ‘‘Xorijiy tillar’’ kafedrasi assistenti

XORIJIY TIL O‘QITUVCHISINING KASBIY VA NUTQIY KOMPETENSIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqola xorijiy til o‘qituvchisining nutqiy kompetensiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tadqiqotlarning konseptual negizi sifatida asosiy kognitiv holatlarining taxlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Bag‘ishlangan, nutqiy, kompetensiya, tahlil, kognitiv, tadqiqot.

Данная статья посвящена речевой компетенции учителя иностранного языка, а в качестве концептуальной основы исследования представлен анализ основных когнитивных состояний.

Ключевые слова. Посвящена, речевой, компетенции, анализ, когнитивных, исследования.

This article is devoted to the speech competence of the foreign language teacher, and the analysis of the main cognitive states is presented as the conceptual basis of the research.

Key words. devote, speech, competence, analysis, cognitive, conceptual, research.

Xorijiy til o‘qituvchisining nutqiy faoliyati uning fan sohasidagi, ya’ni fanga oid asosiy kompetensiyalarining tashqi tasviri sifatida xarakterlanadi. “Tilning tasviri ta’lim oluvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning metodik tizimni tashkil etadi. Fan doirasidagi kommunikatsiyalar yoki fanga oid kommunikatsiyalarning tashqi fenomeni xorijiy til o‘qituvchisining bevosita nutqli-fikrlash faoliyati hisoblandi. Mazkur postulatning mazmuniga yoki kommunikativ sheriklar o‘rtasida o‘rnatilgan (rapport) o‘zaro munosabatlarga bog‘liq ravishda fanga oid kommunikatsiya o‘quv muammosining yechimini o‘zida mujassam etadi.

Xorijiy til o‘qituvchisining nutqiy kompetensiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarning konseptual negizi sifatida asosiy kognitiv paradigmani keltirish mumkin. Xorijiy til o‘qituvchisining og‘zaki-konseptual fikrlashini hisobga olish natijasida biz samarali nutqiy kommunikatsiya modelini qurish imkoniga ega bo‘lamiz. Bu esa har qanday mundarijaviy devalvatsiyadan voz kechib, konstruktiv jarayonlarda diskursning shakllanishiga diqqatni jalb etish uchun zamin yaratadi.

Xorijiy til o‘qituvchisining muayyan isbot talab qilmaydigan qoidalar joriy etishi yoki munosabat (rapport) o‘rnatishi o‘quv kommunikatsiyalaridagi ichki va tashqi motivatsiyalar paydo bo‘lishiga asoslanadi. J. O‘Konnor va Ya. Mak-Dermottlar ta’kidlaganlaridek, “o‘zaro munosabatlar o‘quv jarayonlarida ishonch va mas’uliyat muhitining barqarorligi asosiga quriladi. Mohiyatan, o‘zaro munosabat inson bilan uning olam haqidagi individual tasavvurlari asosida muloqotga kirishish demakdir. Boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatish uchun ularning olam va borliq haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashlari, voqelikni o‘z ongi doirasida idrok etish huquqlari bilan murosa qilish lozim. Siz uning qarashlarini qabul qilishga majbur emassiz: shunchaki, murosa qilish va boshqa fikrlarni ham hurmat qilish yetarli. O‘zaro muloqot turli darajalarda o‘rnatilishi, uzilishi yoki butunlay buzilishi mumkin”.

O‘qituvchining xorijiy til bo‘yicha ta’lim oluvchilarning nuqtai nazarini e’tirof etishi darsda ko‘zda tutilgan muammoni hal etish uchun sodir etiladigan nutqli-

fikrlash harakatlarining hisobini yuritish imkonini taqdim etadi. Bu o‘rinda qaror qabul qilish konseptual-tadqiqotli xususiyat kasb etadi va fikrlash subyektining nutqiy determinatsiyasi yuz beradi.

Xorijiy til o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasiga, hech ikkilanmasdan, fanga oid faoliyatning tashqi noverbal konstruktlarini ham kiritish mumkin. Xususan, mimika, ma’noli ishoralar, kommunikativ sheriklar bilan munosabatlarda namoyon bo‘ladigan kinestika va shu kabilar. Hissiy tajriba xorijiy til o‘qituvchisiga o‘z sezgi organlaridan ongli ravishda foydalanish ko‘lamini kengaytiradi: u dars jarayonida ko‘rishi, eshitishi va xuddi shu asnoda nima sodir bo‘layotganligini botinan sezishi mumkin. Pedagog faqat shundagina, aynan o‘z maqsadi sari harakalanayotganini idrok eta oladi.

Hissiy tajriba fikrlash subyektining o‘z xatti-harakatlarini baholashi uchun – o‘z-o‘zi bilan muloqotiga, nutqiy munosabatlar doirasini kengaytirish uchun boshqalar bilan muloqot o‘rnatishini ta’minlaydi.

Ayniqsa, xorijiy til bo‘yicha dars mashg‘ulotlaridagi ta’lim va tarbiya jarayonlarida joriy maqsad-vazifalarni belgilab olish hamda tezkor qabul qilishda o‘qituvchi kasbiy faoliyatining hissiy tajriba bilan uyg‘unlikda shakllangan noverbal konstrukti juda muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrlash subyektining kasbiy faoliyati yoki kompetensiyasi hissiy tajribasi deganda voqyelikning subyekt tomonidan konseptual-baholash tartibida qabul qilinishini tushunamiz. Shu kabi, neyro-lingvistik dasturlash nazariyasida ham mavjud borliq manzarasi (hudud) va xaritalar manzarasi, shuningdek, “xarita hududga barobar” tamoyili negizli kategoriyalar hisoblanadi. “Har birimizda botiniy “olam xarita”mizga asoslangan o‘z “olam manzara”miz bor va bu manzara kundalik tajribalarimizning natijasi o‘laroq, til, so‘z va hissiy tizimlar yordamida shakllanadi. Xuddi shu “neyrolingvistik xaritalar” tashqi olamga bo‘lgan munosabatlarimizni, uni qanday talqin etishimiz va qanday ko‘rishimizni, shuningdek, o‘z kundalik xatti-harakatlarimiz va tajribalarimizga qanchalik ahamiyat (nutqli-fikrlash definitsiyasi – muallif.) berishimizni mavjud borliqning o‘zidan ham ko‘proq darajada belgilab beradi. “Oramizdan kimdir o‘z muammolarini o‘zi osonlik bilan hal etayotgan bo‘lsa, demak u juda ko‘plab istiqbol va imkoniyatlar tanlovini ko‘rish imkoniyatlarini yaratuvchi “olam xaritasi”ga egalik qiladi”. “Ichki xarita” mavjud borliqning manzarasini bizning dunyoqarashimiz va olamni idrok etishimiz doirasida talqin etadi. Mavjud borliq, shu jumladan, pedagogik mavjudlik ham fikrlash subyekti tomonidan belgilangan tarzda qabul qilinadi. Ushbu mulohazalardan xulosa shuki, fikrlashning konseptual va verbal jihatlariga diqqatni yo‘naltirish xorijiy til o‘qituvchisiga mazkur “xarita”ni o‘zgartirish va yanada takomillashtirish, ya’ni xorijiy til bo‘yicha o‘quv-tarbiya jarayonlarini rejalashtirishda ko‘proq konstruktlardan foydalanish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Yutuqlarni dasturlash tili – aynan til, ya’ni xorijiy til bo‘yicha dars mashg‘ulotlarida namoyon bo‘luvchi va kommunikativ sheriklarning aksariyati tushunadigan muloqot shakli.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasida nutqiy kompetensiyaning o‘rni va ahamiyatini insonning reprezentativ (zohiriy axborot olish) tizimini tadqiq etish va o‘zaro taqqoslash orqali yorqin ko‘rsatib berish mumkin. Bunday tashqi axborot tizimlariga quyidagi kommunikatsiyalarni: individual-ma’naviy, mental-ma’noviy va hissiy-fiziologik kommunikativ tizimlar kabilarni kiritamiz.

Kasbiy faoliyat sohasida kommunikatsiyalarning zohiriy axborot olish (reprezentativ) tizimlari insonning konseptual, faoliyatli va hissiy tajribalarining uzatilishi va qabul qilinishini nazarda tutadi. Xorijiy tilni o‘rganish jarayonida konseptlar, fikrlar,

mahoratlar va axloqiy-etik xarakatlarning uzatilishi (va qabul qilinishi) aynan til, ya'ni o'qituvchi va til o'rganuvchi o'rtasidagi og'zaki muloqotlar vositasida amalga oshiriladi. Shu tariqa, xorijiy til o'qituvchisining og'zaki muloqot tajribasi:

– kommunikativ sheriklar bilan konstruktiv munosabatlar o'rnatish zaxirasi, metodi va vositasi;

– o'qituvchining konseptual, faoliyatli va hissiy tajribalari bilan o'rganuvchilar o'rtasidagi aloqalarning vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Shu bilan bir qatorda, insonning konseptual apparati aqliy harakatlarni idrok etishning tashqi nutq va ichki nutq bosqichlarida shakllana boradi. Aqliy harakatlar shakllanishining 6 ta bosqichi ko'rsatib o'tilgan, bu bosqichlar quyidagilardir:

1-bosqich – motivatsiyaviy bosqich bo'lib, u hech qachon qanoat hosil qilmaslik xususiyatiga ega bo'lgan bilishga qiziqish va bilish zarurati kabi ehtiyojlarning natijasi o'laroq namoyon bo'ladi. Bu bosqichda ta'lim oluvchi va o'rganuvchilarni o'qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatga jalb etish va biriktirish lozim bo'ladi.

2-bosqich – mo'ljalli bosqich. Kelgusida rejalashtirilgan harakatlarning sxemasi tuzib chiqiladi. Mazkur bosqichda ta'lim oluvchilarning xorijiy tilni o'rganishdan maqsad va rejalari belgilab olinishi zarur.

3-bosqich – harakatli bosqich. Ushbu o'rinda bosqichning nomlanishi unda amalga oshiriladigan harakat shakli bilan mos keladi: unda ta'lim oluvchilar aqliy harakatlarning mazmun va mantiqini o'zlashtiradilar.

4-bosqich – tashqi nutq bosqichi. Unda aqliy harakatning barcha elementlari yozma va og'zaki nutq shaklida taqdim etiladi. Aniq obyektlar ularning og'zaki tavsiflari bilan almashtirilishi natijasida ta'lim oluvchilarda aqliy harakatlarni umumlashtirish zarurati paydo bo'ladi, ya'ni obyekt tavsif orqali "topiladi".

5-bosqich – ovozsiz og'zaki nutq bosqichi (ichki nutq). Mazkur bosqich aqliy harakatlarning amalga oshirilish tezligi bilan boshqalaridan farq qiladi.

6-bosqich – aqliy yoki ichki nutq bilan bog'liq harakatlar. Harakat mumkin qadar qisqaradi va deyarli avtomatlashadi.

Xorijiy til o'qituvchisining konseptual va hissiy tajribalardan iborat reprezentativ tizimi kasbiy faoliyatdagi kommunikatsiya maqsadlariga erishish yo'lida ma'no shakllanish bosqichini bosib o'tadi. Buning natijasida esa nutqiy faoliyatli tajriba, ya'ni pedagog ijodiy zaxirasining avtonom yig'uvchisi takomillashadi. Inson kommunikatsiyasining barcha reprezentativ tizimlari – garchi yaxlit tarzda belgilar va timsollarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, – so'z vositasida ifoda etilishi mumkin. Aqliy harakatning so'zli-timsolli shakllari haqidagi mazkur qoida xorijiy til o'qituvchisining mahorat darajasini nutqiy fikrlash kompetensiyaning namoyon bo'lishi sifatida qarash imkonini beradi. Xorijiy til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi tuzilmaviy tarkibiga kiruvchi konseptual va hissiy tajriba ham so'zlar vositasida ifoda etilishi mumkin. Bu tajribalarning kommunikativ-belgili tarzda namoyon bo'lish shakllari – o'qituvchining qo'l bilan ishora qilishi, jilmayish yoki chehrasida ma'lum bir ma'noni zohir etishi ham ta'lim oluvchi (yoki o'rganuvchi) uchun muayyan ma'noni anglatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ular bu ishora va mimikalar orqali irod etilgan "nutq"ni qabul qiladilar va belgili-nutqiy vositalar yordamida o'z tasavvurlari doirasida talqin etgach, hosil bo'lgan xulosani ichki refleksiyaga havola etadilar. Shu tariqa, kommunikativ sherik o'z aqliy harakatlarini shakllantirishni davom ettiradi. Xorijiy tilni o'rganish asnosida o'sha tilga xos bo'lgan harakatlar o'zlashtirilishidan oldin motivatsiya bosqichi kechadi. Motivatsiya bosqichida o'rganuvchi o'rganilayotgan tilga xos bo'lgan harakatlarni,

ishoralarni o‘zlashtiradi va aqliy harakat shakllanishining navbatdagi (mo‘ljal olish, moddiylashtirish, belgilash va aqliy mahorat kabi) bosqichlariga o‘tadi.

Belgilash bosqichi ta’lim oluvchi (yoki o‘rganuvchi)ning o‘zi o‘zlashtirgan narsalarni asoslab berish (o‘zlashtirilgan narsa nima, qachon, qanday, qaerda, nima uchun va shu kabi) qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Belgilash qobiliyatining mustaqil o‘rganishda, o‘z-o‘zining nutqiy salohiyatini yuzaga chiqarishda, xorijiy tilning ahamiyatini idrok etishda dolzarb va muhimligi til o‘rganish amaliyotida o‘z isbotini topgan.

Xorijiy til o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyatining ahamiyatini ongli ravishda idrok etishi uning bir qator kasbiy funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarishini taqozo etadi. Bu funksiyalar qatoriga pedagogning o‘rgatuvchilik, tarbiyachilik, tashkilotchilik va tadqiqotchilik kabi funksiyalari kiradi. Mazkur funksiyalarni mufassallashtirish, umumlashtirish va yuksak darajada ijro etish kabi harakatlarning ahamiyati hamda kasbiy faoliyatdagi ustuvorlik darajalari turlicha belgilanadi. Har bir funksiyani o‘z vaqtida mukammal bajara olgan xorijiy til o‘qituvchisini nazariy jihatdan kompetentli deyish mumkin. Bil’aks, o‘z kasbiy harakatlarining aniqligi va to‘g‘riligini asoslab berishga qodir bo‘lmagan o‘qituvchi, bizning xulosaga ko‘ra, mehnatning diskriptiv kompetensiyasiga ega emas, kasbiy munozaralarda faol emas, o‘z-o‘zini rivojlantirish va mustaqil malaka oshirishga ehtiyoj sezmaydi, deya hisoblanadi.

Pedagogik vaziyatlarda kelib chiqqan masalalarni hal etishning maqbul usulini topa olishlik:

– muammoni tavsif eta olish;

– mavjud muammolarni bartaraf qilish usullarini nutqiy bayon eta olish;

– muammolarni bartaraf etishga oid harakatlarning tavsifini keltira bilish;

– mazkur muammo yoki ziddiyat kelib chiqishining oldini olish bo‘yicha profilaktik rejani nutqiy ifodalay olish kabi qator qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, xorijiy til o‘qituvchisining kompetensiyalariga nisbatan qo‘llaniladigan “muz tog‘i”, ya’ni aysberg o‘xshatmasida kasbiy kompetensiya nafaqat “suv usti” qismiga qiyoslanadi, balki “muz tog‘i”ning “suv osti” qismlariga o‘xshatiladigan kasbiy tafakkur va o‘quv-tarbiya ishlarini boshqara bilish qobiliyatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. Пособие для учителя. - М. АРКТИ, 2000. - 165 с.

2. Дилтс Р.Б. Фокусы языка. Изменение убеждений с помощью НЛП.- Спб.: Питер, 2000. - 320 с.

3. О.Коннор Дж., Мак-Дермотт Я. Принципы НЛП. Пер. с англ. Бродского А.Б. - К.: ‘‘София’’, 2000. - 224 с.

4. Столяренко Л.Д., Самыгин С. И. Педагогика. 100 экзаменационных ответов по педагогике. Экспресс-справочник для студентов вузов. - Ростов н/Д: издательский центр ‘‘МарТ’’, 2001. - 256 с.

Yulduz YARMANOVA,
Qarshi davlat universiteti,
‘‘Boshlang‘ich ta’lim’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

SHAXS IJTIMOIY-MADANIY ADAPTATSIYASI VA UNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada bolaning shaxsiy kechinmalari boshqa bir bolaga yo‘naltirilishi juda muhimdir, chunki bu boshqa bolaga hissiy yo‘naltirish jarayoni bo‘lib, u kichik maktab yoshidagi bolaning tengdoshlar guruhiga kirishini – adaptatsiyasini osonlashtiradi va unda bo‘lishini nisbatan qulayligini ta’minlanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Shaxs, jamoa, individ, individuallik, ijtimoiy, bola, adaptatsiya, kichik maktab yoshi.

В статье подчеркивается, что очень важно, чтобы личные переживания ребенка были перенаправлены на другого ребенка, поскольку это процесс эмоциональной ориентации на другого ребенка, который способствует вхождению ребенка младшего школьного возраста в группу сверстников – адаптации-и обеспечению относительного комфорта пребывания в ней.

Ключевые слова. Человек, коллектив, личность, индивидуальность, социальный, ребенок, адаптация, младший школьный возраст.

The article emphasizes that it is very important that the child's personal experiences be redirected to another child, since this is the process of emotional orientation to another child, which contributes to the entry of a child of primary school age into a peer group – adaptation - and ensuring the relative comfort of staying in it.

Key words. Person, team, individual, individuality, social, child, adaptation, junior school age.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e’tibor qaratilib, kichik maktab yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasi hamda ularni tayyorlovchi pedagoglar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilgan. Ya’ni yosh avlodning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil tafakkurni hamda ahloqiy fazilatlarni yuksak darajada shakllantirish vazifasini zimmasiga olgan pedagoglar tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarining shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”.[1] – deb aytgan fikrlari muammoning dolzarbligini asoslaydi.

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to‘qqiz yili o‘sish davrining muayyan davomiyligida o‘tadi, bu umumiy bo‘lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o‘zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bolalar o‘sishining o‘ziga xosligi to‘g‘risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta’lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlari-

[1] Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. – T., 2017, 45-bet.

ni rejalashtirishda tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Rivojlanish xususiyatlariga mos kelish usullarini muvaffaqqiyatli qo‘llash uchun tarbiyachilar meyordagi rivojlanishning borishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Bunda uni yodda tutishi lozimki, bolalar rivojlanishning bir xil bosqichini bosib o‘tishlariga qaramasdan, ularda bu jarayon bir vaqtning o‘zida kechmaydi. Bir xil yoshdagi bolalarda o‘ziga xos individual farqlar bo‘lishi muqarrar.

Jamoaviy munosabatlarda o‘quvchilar axloq meyorlarini anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda rivojlanishda davom etadi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtirish, bilish ehtiyojlarining mavjudligidir. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilar nutqi birmuncha rivojlangan bo‘lishiga qaramasdan, yangi muhitda bilim olish ehtiyoji tufayli nutqni o‘stirishga bo‘lgan ehtiyoj, kattalar bilan va jamoa a’zolari bilan muloqotga kirishish meyorlarini o‘zlashtirish ehtiyoji yuqoriligi ko‘zga tashlanadi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi jamoaviy munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi nafaqat oila jamoasi, qo‘ni-qo‘shnilarning bolalari bilan bir jamoa bo‘ladilar, balki endi sinf jamoasi, maktab jamoasi a’zosi ham hisoblanadilar.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “jamoa – (arabcha - birlashma; uyushma; guruh) muayyan, bir xil ish bajaruvchi kishilar guruhi” sifatida tavsiflangan[2].

Jamoaviy munosabatlar – odamlarning o‘zaro yaqinligi va hamkorligi asosida shakllangan, dunyo xalqlari madaniyatida tarixan shakllanib kelgan ijtimoiy birlikni anglatuvchi tushuncha bo‘lib, Pedagogika ensiklopediyasida “Jamoaviylik (arabcha birlashma; uyushma; guruh) – 1) yagona jamiyat va kishilar uchun foydali maqsad, faoliyatga ko‘ra birlashgan, jamiyat va kishilar manfaatini ko‘zlaydigan kishilarning tashkiliy guruhi; 2) kishilarning qadimiy uyushuv shakli” tarzida talqin qilingan[3].

Jamoaviy munosabatlar – odamlarning o‘zaro hamkorligi, yordamga asoslangan hayot kechirish va turmush tarzi bo‘lib, individualizm, shaxsiy xudbinlik, egotsentrizmning aksi hisoblanadi. Jamoaviy munosabatlarning mavjudligi ijtimoiy birlik, mahalla, elat va xalqlarning taraqqiyotini, turmush tarzining mazmun-mohiyatini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri bo‘lib, tarixiy shart-sharoitlar asosida shakllangan va yuksak ma’naviy qadriyat sifatida qaror topgan.

Jamiyatda shaxsni rivojlanish muammosini ko‘rib chiqish uchun “shaxs”, “individ”, “individuallik”, “jamoa” va “jamoatchilik” tushunchalarining mohiyatini aniqlashimiz zarur.

Gumanitar fanlarning turli sohalarida ushbu tushunchalarning talqinlari juda ko‘p, shuning uchun pedagogika va psixologiya fanlarida umumiy qabul qilingan nuqtayi nazarga rioya qilgan holda, shaxs – inson madaniy va tarixiy jarayonining subyekti sifatida, moddiy va ma’naviy madaniyatning rivojlanishida bosh omil hisoblanadi. Haqiqiy hayotda o‘zlashtiriladigan o‘ziga xoslik va insonning aniq bir faoliyati mazkur tushunchaning mazmuniga kirmaydi.

“Individ” tushunchasi pedagogik lug‘atda “lot. individuum – bo‘linmas ma’nosini anglatib, mustaqil, aql ato etilgan mavjudot sifatidagi inson” sifatida ta’riflanadi.[4] Shu-

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A-D / 5 jildli. Birinchi jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 679 b.

[3] Pedagogika ensiklopediya. III jild. Jamoa // –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b.

[4] Pedagogika: ensiklopediya. II jild. Jamoa // – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

ningdek, u o‘zini o‘zi idora etishi mumkinligi, lekin shu bilan birga o‘zining tashqi munosabatlarida umuminsoniy qadriyatlarni eltuvchi ham hisoblanishi qayd etiladi.

“Individuallik” – yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo‘lib, u aniq odamni boshqa bir aniq odamdan farqlovchi barcha o‘ziga xos xususiyatlar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu tushunchaning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “individga xoslik, individga oid xatti-harakat” ma’nolarini anglatishi ko‘rsatilgan[5].

Har bir bolaning o‘ziga xosligi o‘rtoqlar orasida bolalar jamosida namoyon bo‘ladi. Bola o‘zini qadrlagan, sevgan, tushungan, himoyalangan joyida qulay his qiladi. Bu jamoa axloqiy munosabatlar hukmron bo‘lgan jamoadir. Ko‘p narsani bajara olish qo‘lidan kelmaydigan bola ko‘pincha tengdoshlarining tanqidiga, hatto qattiq tanbehlariga duch keladi. Shu sababli, bolalarning munosabatlari hamdardlik, g‘amxo‘rlik kabi axloqiy asoslarga qurilsagina, bunday jamoa har bir bola uchun zarurdir.

Jamoaviy munosabatlarda kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu asosda jamoa a’zolarida tartib-qoidalar va huquqiy meyorlarga amal qilish, axloq-odob va madaniyat ko‘rinishlarini egallash ko‘nikmasi shakllantiriladi. Bu jarayonda jamoaning har bir a’zosi o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Real hayotda o‘quvchilar jamoasi faoliyatini, o‘quvchilarning barchasini qiziqishlari va ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etish deyarli mumkin emas. Odatda, ushbu faoliyat kattalarning individualligi, ularning qiziqishlari, o‘ziga xosliklari va tashkilotchilik qobiliyatlari bilan bog‘liq. Shu sababli, birgalikdagi qiziqarli faoliyat bolalarning erkin muloqot qilishlari, shaxsiy o‘ziga xosliklarini va erkin jamoaviy munosabatlar muloqotini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga egadir.

Maktabga tayyorlov davrida amalga oshiriladigan psixologik-pedagogik treninglar jarayonida bolalar tevarak-atrof haqidagi bilimlari, muhitda amal qiladigan meyorlar va tartib-intizom qoidalari haqidagi tasavvvurlari kengayadi, o‘z shaxsiy tajribalari va mashg‘ulotlardan olgan bilimlarini amalda qo‘llash malakasi hamda fikrlash va ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi. Bu esa bolalarning kelgusida maktab muhitiga ijtimoiy-madaniy moslashishini, boshlang‘ich ta’lim davri yengilroq, qiziqarliroq o‘tishini ta’minlaydi. Demak, bola dunyoqarashining shakllanishida tashqi muhit, psixologik holat, muloqotlar kabi omillar ta’sirida shakllanadi hamda ma’lumotlarni o‘zlashtirish, anglash, ijtimoiy meyorlariga amal qilish, munosabat bildirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. -104 b.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A-D / 5 jildli. Birinchi jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’’ Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 679 b.

3. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. Jamoa // –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.

4. Pedagogika ensiklopediya. III jild. Jamoa // –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b.

5. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. P.f.d. professor M.X. Toxtaxodjayevaning tahriri ostida. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008. – 480 b.

6. Ro‘ziyeva D. Ijtimoiy pedagogika. –T.: Fan va texnologiya, 2015. 127 b.

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A-D / 5 jildli. Birinchi jild. A. Madvaliyev tahriri ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ‘‘Davlat ilmiy nashriyoti’’, 2006. – 679 b.

Marjina ABDISODIQOVA,
Qarshi davlat universiteti doktaranti

O‘QUV-BILUV JARAYONIDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyatni axborotlashtirish sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari yetakchi tarkibiy qismlarga aylanmoqda, talabalarning mehnat va ijodiy salohiyatini yo‘naltirishga imkon beradigan barcha mutaxassislarni kasbiy tayyorlash, asosiy ilmiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilishdir. Shuningdek, talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini shakllantirish zarurligini asoslanishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari, o‘quv-tadqiqot faoliyati, ilmiy-tadqiqot faoliyati.

В данной статье в условиях информатизации общества ведущими компонентами становятся научно-исследовательская работа студентов, профессиональная подготовка всех специалистов, решение основных научных и производственных задач, позволяющих направить трудовой и творческий потенциал студентов. Освещается также обоснование необходимости формирования интереса учащихся к учебно-исследовательской деятельности.

Ключевые слова. Научно-исследовательская работа студентов, учебно-исследовательская деятельность, научно-исследовательская деятельность.

In this article, in the conditions of informatization of society, the leading components are the research work of students, the professional training of all specialists, the solution of the main scientific and production tasks that allow directing the labor and creative potential of students. The substantiation of the need for the formation of students' interest in educational and research activities is also highlighted.

Key words. Scientific and research activities of students, educational and research activities, scientific and research activities.

Zamonaviy oliy ta’lim tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamiyatni axborotlashtirish sharoitida talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari eng muvaffaqiyatli va iqtidorli talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasida oliy ta’limning barcha mutaxassislarini tayyorlash sifatini yanada oshirish kuchli vositaga aylantirildi. Talabalarning kasbiy mahoratini, kasbiy kompetensiyasi va ko‘nikmasini shakllantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, talabalarning mehnat va ijodiy salohiyatini asosiy ilmiy va amaliy masalalarni hal qilishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishining zamonaviy tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikkita elementni o‘z ichiga oladi: birinchidan, talabalarga ilmiy tadqiqot ishlarining elementlarini o‘rgatish, ularda shu ish ko‘nikmalarini singdirish; ikkinchidan, professor-o‘qituvchilar rahbarligida talabalar tomonidan olib boriladigan dolzarb ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilishdir. Talabalarni ilmiy ijodga jalb qilish shakllari va usullari shartli ravishda quyidagilarga bo‘linadi: o‘quv-tadqiqot ishlari oliy ta’limga muvofiq o‘quv rejalar, o‘quv dasturlari va talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari darsdan tashqari vaqtlarda, o‘quv soatlarida amalga oshiriladi. Ammo buning uchun ilmiy ishda rahbarning ijodiy shaxsiyati talab etiladi.

Talabalarni ilmiy ijod bilan tanishtirish, turli xil original yechimlarning tegishli modellarini joriy etish orqali algoritmlar, evristik suhbatlarni o‘tkazish, elementar harakat-

larni o‘zlashtirishni talab qiladi. Ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun quyidagilar zarur: qulay psixologik muhit, bilish uchun yuqori motivatsiya, faoliyatni muammoli vaziyatlar bilan maksimal darajada to‘ldirish, tadqiqot qobiliyatining mavjudligidir. O‘quv-tadqiqot ishlari ostida faoliyat bilan biz ilmiy qidiruv texnologiyasini, eksperiment metodologiyasini, ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik boshqariladigan jarayonni tushunamiz. Darsdan tashqari vaqtda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishlari deganda olim-pedagog rahbarligida o‘quv vositalardan foydalanish asosida olib boriladigan ishlar tushuniladi. Bilvosita va istiqbolli boshqaruv hamda mavzuni mustaqil ijodiy o‘rganishni ta’minlashdir. Ushbu faoliyat natijasida talabalar yangi, obyektiv ahamiyatga ega bo‘lganlarni kashf etadilar. Tadqiqot mavzusi, faoliyat usuli yoki vositasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ularning ijodiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantiradi.

Talabalarning o‘quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini shakllantirish ta’limning uslubiy tizimlari toifasiga kiradi hamda biz yaxlit didaktikani nazarda tutamiz. O‘zaro bog‘liq elementlarni shakllantirish: maqsadlar, fan mazmuni, o‘qitish usullari, o‘qitish vositalari va tashkiliy shakllari, o‘tilgan mavzuning o‘zlashtirilishini nazorat qilish usullaridan foydalanishadi. Shuning uchun, o‘quv va tadqiqot faoliyatini tashkil etishning uslubiy tizimining modellari zarur, uning barcha tarkibiy qismlari va ular orasidagi aloqalarni har tomonlama tahlil qilishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirish maqsadlarini, tamoyillari va usullarini tahlil qilamiz.

O‘quv-tadqiqot faoliyatining asosiy maqsadlari:

– bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish;

– talabalarning shaxsiyati va ijodkorligini rivojlantirish;

– mutaxassis-tadqiqotchini shakllantirishdan iborat.

Talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirish uslubiy tizimining quyidagi tarkibiy qismlarini-o‘rganish jarayonida uni tashkil etish usullari va shakllarini tahlil qilamiz. “Usul” atamasi yunoncha “methodos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tadqiqot nazariyasi ma’nosini anglatadi. Pedagogik adabiyotlarda keltiriladigan “O‘qitish usuli” tushunchalariga to‘xtalib o‘tamiz.

K. Babanskiyning fikricha, “O‘qitish usuli – bu ta’lim muammolarini hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi va talabalarning tartibli o‘zaro bog‘liq faoliyatli usulidir”.

T.A. Ilyina o‘quv usuli bilan o‘quvchilarning bilim faoliyatini tashkil etish usuli tushuniladi. Didaktika tarixida o‘qitish usullarining turli tasniflari ishlab chiqilgan.

Metodlarni talabalar faoliyatining tabiati (mustaqillik va ijodkorlik darajasi) bo‘yicha tasniflashga to‘xtalamiz. Ushbu samarali tasnif 1965-yilda I. Lerner va N. Skatkin tomonidan taklif qilingan. Ular haqli ravishda ta’kidladilarki, usullarga ko‘plab oldingi yondashuvlar, treninglar ularning tashqi tuzilmalari yoki manbalaridagi farqlarga asoslangan bo‘ladi. Ta’limning muvaffaqiyati hal qiluvchi darajada talabalarning yo‘nalishi va ichki faoliyatiga, ularning faoliyatining xususiyatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, bu usulni tanlashning muhim mezoni bo‘lib xizmat qilishi kerak. Faoliyatning tabiati, mustaqillik va ijodkorlik darajasi I. Lerner va N. Skatkin o‘qitishning beshta usulini ajratib ko‘rsatishni taklif qildilar, ularning har birida talabalar faoliyatida faollik va mustaqillik darajasini oshiradi.

Talabalar ma’ruzada, o‘quv yoki uslubiy adabiyotlardan, ekrandagi qo‘llanma orqali tayyor shaklda bilim olishadi. Idrok qilish va tushunish haqida dalillar, baholar, xulosalar talabalarning reproduktiv fikrlash doirasida qo‘llaniladi. O‘quv jarayonida ushbu usul katta hajmdagi ma’lumotlarni uzatish uchun eng keng qo‘llaniladi.

Reproduktiv usul. Bunga namuna yoki qoida asosida o‘rganilganlardan foydalanish keltiriladi. Talabalarning faoliyati tabiatda algoritmikdir ya’ni, ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshiriladi, ko‘rsatilgan namunaga o‘xshash vaziyatlarda ko‘rsatmalar, qoidalar berishadi.

Muammoli taqdimot usuli. Turli xil manbalar va vositalardan foydalangan holda o‘qituvchi, materialni taqdim etishdan oldin, u muammo tug‘diradi, kognitiv vazifani shakllantiradi va keyin, dalillar tizimini ochib, nuqtai nazarlarni, turli xil yondashuvlarni taqqoslab, quyidagilarni ko‘rsatadigan muammoni hal qilish usulidir. Talabalar ilmiy izlanishlarga guvoh va sherik bo‘lishadi.

Qisman-qidirish yoki evristik usul. Faol qidiruvni tashkil qilishdan iborat bo‘lgan o‘qitishda ilgari surilgan (yoki mustaqil ravishda shakllantirilgan) kognitiv vazifalarni o‘qituvchi rahbarligida yoki evristik dasturlar va ko‘rsatmalar asosida hal qilishdir. Fikrlash jarayoni samarali bo‘ladi, lekin shu bilan birga dasturlar ustida ishlash asosida o‘qituvchi yoki talabalarning o‘quv qo‘llanmalari o‘zlari tomonidan bosqichma-bosqich boshqariladi va nazorat qilinadi. Evristik suhbat – bu usul fikrlashni faollashtirish bo‘lgan, seminarlar esa bilimga qiziqishni uyg‘otishning tasdiqlangan usuli hisoblangan.

Tadqiqot usuli. Materialni tahlil qilgandan so‘ng, muammolar va vazifalarni belgilab, qisqa og‘zaki yoki yozma brifingdan so‘ng talabalar adabiyot va boshqa ma’lumot manbalarini mustaqil ravishda o‘rganadilar, kuzatuvlarni olib boradilar va qidiruv tizimining boshqa harakatlarini amalga oshiradilar. Tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodiy izlanish tadqiqot ishlarida namoyon bo‘ladigan eng yaxshi faoliyatlardan biri. O‘quv ish usullari – o‘quv-tadqiqot va keyingi ilmiy-tadqiqot faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri usullarga aylanadi.

Ma’ruza kurslarida materialning muammoli taqdimotidan, seminarlarda va amaliy mashg‘ulotlarda-evristik (qisman qidirish), modeldan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, muammoli va tadqiqot (eksperimental) usullar, o‘quv va tadqiqot seminarida-evristik, muammoli, model va tadqiqot usullari foydalaniladi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish resurslari amalga oshirilayotgan ish shakllariga kiritilgan.

Pedagogik shakl – bu pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlarining birligida barqaror, to‘liq tashkil etilishi quyidagilarga asoslanadi: mazmuni, maqsadi, tamoyillari, usullari, shakllari kabilar kiradi. Pedagogikadagi barcha shakllar murakkablik darajasiga qarab bo‘linadi. Oddiy va murakkab shakllarga ajralib turadi. Oddiylarga quyidagilar kiradi: ma’ruza, suhbat, maslahat, ekskursiya, laboratoriya ishi, amaliy ish, seminar, mustaqil ish, test, imtihon va boshqalar kiradi. Murakkab shakllar oddiy yoki ularning turli xil kombinatsiyalarini rivojlantirishga asoslangan: bu seminar, kurs ishi, tezis, ilmiy konferensiyasi, ilmiy munozara va davra suhbatini o‘tkazishdan iborat. Oddiy va murakkab shakllarning maqsadli tanlovi (kompleksi) sifatida yaratiladi: bular ishlab chiqarish amaliyoti, pedagogik amaliyot, fan kunlari, ochiq eshiklar kunlari, fan olimpiadalari, talabalar ilmiy ishlarining ko‘rgazmalari, eng yaxshi ijodiy ish uchun ko‘rik-tanlovlar tashkil etiladi. O‘quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishning eng samarali shakllari sifatida, biz talabalarni quyidagilar bilan ajratamiz:

1. Muammoli ma’ruzalar (keyinchalik individual, amaliy va seminar darslarida o‘quv materiallarini ishlab chiqish bilan). Ular nazariy qismlarni vazifalar orqali qurishni, o‘rganishdan oldin yetakchi xarakterdagi muammolar bloklaridan foydalanishni o‘z ichiga oladigan mavzular, misollar, berilgan obyektlar xususiyatlar, dalillardagi mantiqiy bo‘shliqlarni to‘ldirish va boshqa tabiatdagi bo‘shliqlar, ta’riflarni joylashtirish va

qisqartirish, ta’riflarning ekvivalentligini isbotlash, talabalarni ma’ruzalar o‘qishga jalb qilish uchun topshiriq kartalarini tuzish va nazariy testlar berilgan bo‘ladi.

2. Amaliy va seminar mashg‘ulotlari nazariy muammolarni hal qilishni o‘z ichiga oladi. Ular ma’ruzalarda keltirilgan muammolar, eng muvaffaqiyatli yechimlar bo‘yicha mustaqil tadqiqotlar natijalarini muhokama qilishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot vazifalari va nazariya qismlarini vazifa shaklida mustaqil ravishda taqdim etishga urinishlar, individual ijodiy vazifalarni bajarish asosida mini-nazariyalarni qurish muammoni hal qilishni rivojlantirish, talabalar tomonidan muammoli materiallarni tanlash, ular tomonidan amaliy dars ishlanmalar, vazifalarni mustaqil qurish, universitet darsliklarini tahlil qilishdan iborat.

3. O‘qituvchilar va talabalarning eng dolzarb muammolari va yangi istiqbolli fan usullari bo‘yicha ma’ruzalarni tashkil etishdan iborat.

4. Shaxsiy o‘quv-tadqiqot ishlarini, kurs va diplom topshiriqlarini bajarish, eksperimental, loyiha faoliyatida ishtirok etish ilmiy faoliyatning yetakchi shakli talabalar ijodi hisoblanadi. Kurs va tezislar mavzusi kafedraning ilmiy muammolari, ilmiy ixtisoslashuvi va maxsus kurslar dasturlari bilan chambarchas bog‘liq.

5. Talabalarning mustaqil ishi, shu jumladan, ijodiy topshiriqlar va mavhum ishlarni bajarishdan iborat.

6. Kollokviumlar (suhbatlar), unda o‘qituvchi tomonidan maxsus yaratilgan xato holatidan o‘rganish omili sifatida foydalanish qo‘llaniladi. Yozma attestatsiya ishlarini, testlarni, fan olimpiadalarini o‘tkazish amaliyotida talabalar ko‘pincha duch kelishadi, nazorat topshiriqlari matnlarida tasodifiy xatolar mavjudligi va shuning uchun vazifa shartidagi mumkin bo‘lgan xatolarni aniqlash kelajakdagi mutaxassisni tayyorlashning zarur elementidir. Biz talabalarning individual, guruh va jamoaviy (frontal) faoliyat shakllarini ajratamiz. Bunday sharoitda mutaxassislarni tayyorlash talabalarning professionallik yetakchi ijodiy tarkibiy qismga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Denisova G.V. Talabalarning o‘quv-tadqiqot faoliyati pedagogika universitetida bo‘lajak matematika o‘qituvchisini tayyorlashni professionallashtirish omili sifatida: Referat. diss. kand. ped. fanlar. Ryazan, 1999-yil. - 16 P.

2. Stolyarenko L.D., Samygin S.I. Savol-javoblarda psixologiya va pedagogika. – Rostov-nadonu: “ Feniks”, 2000 yil. - 576 P.

3. Aksenova Ye.A., Znaev S.Z., Skatkin M. N.: Ijodkorlikni qanday o‘rgatish kerak / / Pedagogika. - 2004. - №8. - S. 80-86.

Malika TURSUNOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti ‘‘Boshlang‘ich ta’lim’’ pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi

BO’LAJAK BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar. Kompetensiya, kasbiy kompetensiya, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi.

В данной статье освещаются теоретические вопросы развития профессиональных компетенций будущих учителей начального образования в высших учебных заведениях, а также развитие профессиональных компетенций будущих специалистов в высших учебных заведениях развитых стран.

Ключевые слова. Компетентность, профессиональная компетентность, будущий учитель начальных классов, компетентностный подход, инновация, инновационные технологии, воспитатель, получатель образования.

This article highlights the theoretical issues of the development of professional competencies of future primary education teachers in higher educational institutions, as well as the development of professional competencies of future specialists in higher educational institutions of developed countries.

Key words. Competence, professional competence, future primary school teacher, competence approach, innovation, innovative technologies, educator, education recipient.

XXI asrda ta’limning rivojlanishi mamlakat obro‘sini ko‘taradi. Davlatimiz rahbarining ‘‘Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi”, degan g‘oyalari hayotimizga tobora singib bormoqda. Bu ezgu tashabbus zamirida ilm-fan va ta’lim-tarbiyani taraqqiy toptirish, kelajak avlodlarni har tomonlama barkamol voyaga yetkazish, ona Vatanimizga muhabbat va istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash asosida yoshlarning iqtidorini ro‘yobga chiqarishda buyuk maqsadlar ilgari surilmoqda. Ta’lim va tarbiya jamiyatning ko‘zgusi hisoblanib, bu davlatning yuqori darajasini belgilab beradi.

Hozirda oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan xususiy masalalar ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolada oliy ta’lim bitiruvchilari atrofdagi o‘zgarishlarni yetarli darajada shakllantirish uchun innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida kasbiy kompetensiya tufayli ushbu o‘zgarishlarning tezligi ortib borishi mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan kompetensiyani shakllantirish hamda rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur yaratish – atrofdagi doimiy o‘zgarishlar sharoitidagi faoliyatdir. Ushbu rivojlanish tendensiyalari oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayonidagi ta’limning maqsadi, mazmuni, innovatsion texnologiyalar, baholash va natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan

chuqur tizimli o‘zgarishlarni nazarda tutadi.

Oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning aniq dolzarbligiga qaramay, ‘‘kompetensiya’’ va ‘‘kompetentlik’’, ‘‘o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi’’ tushunchalarining mohiyati, bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismi psixologik hamda pedagogik adabiyotlarda bir xil talqin qilinmaydi.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini talqin qilish asosida ikki turdagi variant mavjud bo‘lib, ular bir biridan farqlanadi. Bular, mehnat bozori atamalari lug‘atida eng aniq ifodalangan, ta’lim dasturlari va o‘quv rejalari standartlarini ishlab chiqish vakolati bo‘lib, quyidagicha belgilanadi:

1) bajariladigan ishni sifatli va samarali bajarish qobiliyati;

2) qo’yiladigan talablarga muvofiqligi;

3) maxsus mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati.

Shuningdek, ‘‘raqobat’’, ‘‘vakolat’’ atamasi bir xil ma’nolarda ishlatilishini, lekin odatda tavsiflovchi ma’noda ishlatilishini ta’kidlaydi. Ushbu tushunchalarni bunday identifikatsiyalash doirasida tadqiqotchilar V.A. Bolotov, V.V. Serikov, B.C. Lednev, N. D. Nikandrov, M.V. Rijakov kompetensiyalarning amaliy yo‘nalishini aniq ta’kidlaydilar: – ‘‘Kompetensiya – bu bilim va harakat o‘rtasidagi munosabatlar sohasi. Inson amaliyotida’’ va ‘‘kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’limning amaliy yo‘nalishini sezilarli darajada oshirishni nazarda tutadi’’.

I.A. Zimnaya ta’kidlashicha, kompetensiya tushunchasi o‘zaro bog‘liqligining ikkinchi varianti o‘rganilishida kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim (kompetensiyaga asoslangan ta’lim) Amerikada 1965-yilda N. Xomskiy tomonidan taklif qilingan til nazariyasiga nisbatan ‘‘kompetensiya’’ tushunchasining umumiy grammatik kontekstida shakllangan.

N. Xomskiy kompetensiya (ma’ruzachi - tinglovchi tomonidan o‘z tilini bilish) va foydalanish, muayyan vaziyatlarda tildan haqiqiy foydalanish tushunchalarini ilmiy nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatdi. Shu bilan birga, R. Uaytning tadqiqiy ishida kompetensiya toifasi shaxsiy tarkibiy qismlar, shu jumladan, motivatsiya bilan to‘ldiriladi.

O‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta’lim dasturlari va o‘quv-metodik materiallarni keng joriy etish eng muhim vazifalar etib belgilanadi. Bu oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan barcha fanlarning o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy talablariga mos innovatsion texnologiyaga alohida e’tibor qaratish lozimdir. Mazkur innovatsion texnologiyaning asosiy mohiyati talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda professor-o‘qituvchilarning hayotiy tajribasi, e’xtiyoji, qiziqishi hamda imkoniyatlariga tayaniladi. Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirishda mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir. Bu vazifalarni amalga oshirishda xorij tajribalaridan samarali foydalanish asosida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish lozim. Chunki, o‘quv mashg‘uloti innovatsion texnologiyaning asosiy maydoni hisoblanib, uni tashkil qilish va boshqarishga to‘g‘ri, yangicha munosabat bo‘lishi kerak, bu jarayonda professor-o‘qituvchilar oldida muhim bir masala bo‘lib, bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining bilim olishga hamda ularni professor-o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash, bu kasb bilimlari va ko‘nikmalarini hamda kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz chuqurlashtirish orqali o‘quv mashg‘ulotlari sifatiga e’tibor berishga jalb qiladi.

Ta’lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan boshqa hujjatlarning barchasida sohaga innovatsion ta’lim texnologiyalarini kiritish hamda xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab quvvatlash, ta’lim turlari integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlardan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida mavjud kamchiliklarni o‘rganish jarayonidagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, pedagogik ta’lim yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi aloqa va integratsiyaning sustligi, ta’lim subyektlari faoliyatidagi tarqoqlik ta’lim sifatining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu sababli ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida kasbiy kompetensiyani yaratish bilan bog‘liq yangi tizimni o‘zining ustuvor strategik yo‘nalishi sifatida belgilab olish va shu tizim asosida muayyan ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Innovatsion texnologiya asosida jamiyatning barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta’lim bo‘g‘inlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlash uzluksiz pedagogik ta’limning faoliyati sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyaning kasbiy layoqatlilik darajasi asosida raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyatini va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirish lozimdir.

Pedagogik ta’lim rivojlanishining klaster tizimi ta’lim berish, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo‘nalishlar ta’limni boshqarish va tashkillashtirish, ta’lim turlari va yo‘nalishlari o‘rtasida uzviylik va integratsiyani taminlash, o‘qitish shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalaridan foydalanish kabi yo‘nalishlarda xususiylashadi.

Xorijiy davlatlarning ta’lim tizimida eng oliy maqsad ta’lim oluvchilarga samarali ta’lim va tarbiya berish hisoblanadi. Ta’lim – yoshlarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayondir. Ta’limning asosini ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi tashkil etadi. Ta’lim oluvchi o‘quvchi, talaba va bir qator o‘z aql salohiyatiga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi, ta’lim beruvchi albatta pedagog, professor-o‘qituvchilar bo‘ladi. Barcha pedagog, professor-o‘qituvchilar ta’lim berishni to‘g‘ri tashkil etishda ijodiy yondashuv asosida pedagogik mahoratga ega bo‘lishi bilan birgalikda innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo’llay olish ko’nikmaga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Безукладников, К.Э. Развитие профессиональной компетентности учителя Международного бакалавриата в рамках реализации регионального сетевого проекта [Текст] / К.Э. Безукладников, Б.А. Крузе // Педагогическое образование и наука. - 2009а. - № 6. - С. 62-66.

2. Болотов В.А. Компетентность модель: от идеи к образовательной программе [Текст] / В.А. Болотов, В.В. Сериков // Педагогика. - 2003. - №10.

3. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании [Текст] / И.А. Зимняя, - М.: Исслед. центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. - 40 с.

Dilmurod XOLMURODOV,
Qarshi davlat universiteti
Sevara TURSUNOVA,
TATU Qarshi filali

TEXNIKA IXTISOSLIKLARI TA'LIMIDA FUNDAMENTAL QONUNLAR VA ILMIY-TEXNIK NAZARIYANI O'ZARO ALOQADORLIGINING TAVSIFI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, zamonaviy muhandislarni tayyorlash tabiiy-ilmiy va texnik yondashuvlarlarning o'zaro aloqadorlik va bir-birini to'ldirishga asoslangan holda olamni tabiiy-ilmiy manzarasi birligi sifatida bo'lajak muhandislarini materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi fani bo'yicha va texnik yondashuv fundamental tayyorlash tizimi sifatida qabul qilinishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Ta'limda fundamental qonunlar, o'zaro aloqadorligining tavsifi, idea, I model, fizikaning umumiy tushunchalari, tamoyillar, gipoteza, tushuncha, fizik qonunlar.

В данной статье рассматривается подготовка современных инженеров как единство естественно-научной картины мира на основе взаимосвязи и взаимодополняемости естественнонаучных и технических подходов в науке материаловедения и технологии конструкционных материалов, а технический подход как система фундаментальной подготовки будущих инженеров.

Ключевые слова. При изучении фундаментальных законов, описание их взаимосвязи, идея, I модель, общие понятия физики, принципы, гипотеза, понятие, законы физики.

This article examines the training of modern engineers as a unity of the natural-scientific picture of the world based on the interrelation and complementarity of natural-scientific and technical approaches in the science of materials science and technology of structural materials, and the technical approach as a system of fundamental training of future engineers.

Key words. When studying fundamental laws, description of their relationship, idea, I model, general concepts of physics, principles, hypothesis, concept, laws of physics.

Texnika ixtisosliklarida "Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi (Materialshunoslik va KMT)" fanini o'qitish jarayonini tahlili, ilmiy texnik ma'lumotlarni tobora ko'payib borayotganligi, auditoriya o'quv soatlari miqdorini kamayib borishi hamda mustaqil ishlash soatlari miqdorini ortib borishi hisobiga o'quv rejasida ajratilgan soatlarda o'quv materialini to'liq o'rganish hamda pedagog tomonidan mavzuni yoritish uchun ajratilgan vaqtda ulgura olmaslik kabi nostandart vaziyatga olib kelishini ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, o'qitishning qulay bir modelini tanlash talab qilinadiki, bunda pedagog o'quv fanining zamonaviy ilmiy mohiyati asosida ishlov berishda va ekspluatatsiya sharoitida materiallardagi struktura o'zgarishlari uning xossalarini o'zgartirishi, ya'ni "materiallarning mikrostrukturasidan makroxossalarigacha" bo'lgan materialshunoslikning zamonaviy yo'nalishi bo'yicha o'quv materialini to'liq bayon qila olishiga imkoniyat berishi lozim. Ana shunday yondashish talabalarda quyidagi muammolarni hal qilishlariga imkoniyat yaratadi:

– materiallarni tanlash;

– detallar tayyorlashda ishlov berishning optimal rejimlarini aniqlash yoki belgilash;

– mashinalarni yig‘ish jarayonini loyihalash;

– transportni ishonchliligini oshirish maqsadida ishlash sharoiti va optimal ishlash tartibini tanlash.

Pedagog oldida o‘qitishning shunday metod, shakl va vositalarini tanlash masalasi turadiki, bunda talaba o‘quv fanini ilmiy mohiyatini anglagan holda tobora o‘sib borayotgan ilmiy-texnik ma’lumotlarni mustaqil o‘zlashtirishi asosida transport bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni amalga oshirishi mumkin. O‘qitish metod, shakl va vositalarini tanlashda ilmiy bilish metodikasi asos bo‘lishi tabiiy hisoblanadi.

Ma’lumki, metod – umumiy ma’noda, ma’lum bir tartibli faoliyat bilan maqsadga erishishning usulidir. Bu esa, o‘z navbatida turli xil empirik va nazariy uslublarni tizimli ravishda qo‘llash orqali qo‘yilgan maqsadga erishishga olib keladi.

Pedagog o‘quv fani umumiy mazmunidan avvalambor materiallarni olish, ularga ishlov berish va ekspluatatsiya qilishda, ularning fizikaviy-mexanikaviy xossalarini o‘zgarishiga olib keladigan hodisalarni fizik mohiyatiga qarab ajratadi. Bunday holda, qo‘yilgan metodik masalalarni hal qilishda ilmiy bilishdagi substrat yondashuvning nazariy va metodologiyasiga e’tibor qaratish lozim.

Falsafa, tabiatshunoslik, texnik bilimlarda turli xil, jumladan fenomenologik, atributiv, funksional va tarkibiy-tuzilmaviy yondashuvlar qo‘llaniladi. Ularning har biri yordamida aniq fanlarda ilmiy bilish muammolarining ma’lum bir sinfi masalalari hal etiladi.

Fenomenologik yondashuv fenomenologik qonuniyatlarni ochib beradi; atributivda modda xususiyatlarini o‘rganish uni o‘zida amalga oshiriladi; funksional – tizimlar faqat tashqi jihati nuqtai nazaridan, yaxlitlikning funksional abstraksiyasi doirasida o‘rganiladi; tarkibiy-tuzilmaviy yondashuvda esa, tizimli ravishda funksiyalarning ierarxik ketma-ketligini loyihalash va boshqalar ko‘rib chiqiladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvlar doirasida faqat o‘ziga xos umumiy shakllariga asoslanib, tizimlar, bilish obyektlarining mos modellari yaratiladi.

Tadqiqot predmetlari metodik tizim va tarkibiy-tuzilmaviy bo‘lganligi sababli, ilmiy bilishdagi funksional va tarkibiy-tuzilmaviy yondashuvlar haqida aniqroq to‘xtalamiz. Birinchi yondashuvda tashqi funksional aloqalar, funksional bog‘liqliklar tahlil qilinadi. Ikkinchi yondashuvda, tarkibiy-tuzilmaning abstraksiyasiga asoslanib (to‘plamlar elementlari bilan munosabatlar o‘rnatiladi, masalan, fraktal materialshunoslik va boshqalar), ichki tarkibiy-tuzilmalarning o‘zaro munosabatlar momenti mutlaqlashtiriladi, zaruriy substrat quriladi.

Funksional yondashuvda ham, tarkibiy yondashuvda ham tadqiqotchi individual narsalar bilan emas, balki ularning tanlangan modellari bilan shug‘ullanadi. Ikkala holatda ham munosabatlar hamda substratning xususiyatlarini aniqlash amalga oshiriladi va “munosabatlar xususiyati substrati” turini aniqlash amalga oshirilmaydi.

Ammo aniq tadqiqotlarda, ayniqsa, qattiq jismlar fizikasi va materialshunosligi uchun xos bo‘lgan fazaviy o‘tishlar, bifurkatsiya va shunga o‘xshash boshqa jarayonlarda ilmiy bilishning qabul qilingan aksiomalar oqibati haqiqatdan chetga chiqishning ma’lum ehtimolligi mavjud, materialshunoslikda barcha tarkibiy-tuzilmaviy o‘zgarishlar chegarasida sodir bo‘ladi.

Bu esa, aynan (haqiqat harakati) “xossalar munosabatining substratini” aniqlashning substrat turi mazmunini tashkil etadi. Shunday qilib, materialshunoslikda – subst-

rat (materiallarning mikrostrukturasi) xususiyatlari (materialning fizikaviy va mexanik xossalari) - munosabatlar (turli xil ishlov berish yoki ekspluatatsiya (ish sharoitlari)da materiallar xossalarining o‘zgarishi) ko‘rinishida shakllanadi.

Materialshunoslik va KMT substrati asosiy fundamental fizik mohiyatga ega – konstruksion materiallar atom-kristall tarkibiy-tuzilmalari va shunga o‘xshash boshqalar bo‘lganligi sababli fundamental fan (fizika) ning rivojlanishi bilan bog‘lanadi.

O‘tgan asrning oxirlariga kelib an’anaviy fundamental fanlarda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi, fanlarni tahlil qilish va ularni ajratish o‘rniga, aniqlik, chiziqlilik va o‘zgaruvchanlikni o‘rniga fanlarning sintezi qarala boshlandi. Shu sababli, dunyoning xususiy ilmiy ko‘rinishi sifatida paydo bo‘layotgan dunyoqarash asta sekin dunyoning umumiy ilmiy ko‘rinishiga tizimlashtirilib, bu esa bilimlarni tizimlashtirish shakli sifatida xizmat qila boshladi.

Olamning fizikaviy manzarasi tasviri dunyoning tabiiy-ilmiy ko‘rinishining bir qismidir. “Olamning fizikaviy manzarasi – tabiatning ideal modeli sifatida, ya’ni fizikaning umumiy tushunchalari, tamoyillari, gipotezalarini o‘z ichiga olgan va uning rivojlanishining ma’lum bir bosqichini tavsiflovchi model sifatida tushunilishi kerak”. Ilmiy adabiyotlarda “olamning ilmiy manzarasi” va “olamning fizikaviy manzarasi” tushunchalari ko‘pincha teng qo‘yiladi. Bu esa ilmiy-texnik nazariyalar yaratilishi uchun asos bo‘ladigan fizik qonunlar va nazariyalarning fundamental tabiati bilan izohlanadi.

Nazariya ilmiy bilimlarning asosi va yetakchi shakli bo‘lganligi sababli, uning doirasida fundamental va amaliy aloqalar aniq ko‘rinadi, shu jumladan, to‘ldiruvchi farazlar, har xil modellar, metodologik ko‘rsatmalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan fizik nazariyalarning tuzilishini umumtexnik bilimlar asosida ko‘rib chiqish zarur.

Aynan fizika fanining ushbu tarkibiy qismlari asosida shakllangan barqaror ta’lim “nazariy sxemalar, deb nomlangan va ijtimoiy-tarixiy jarayonda bilimlarning mustaqil shakli va nazariyalarni qurish bosqichi sifatida rivojlanib boradigan ta’lim sifatida vujudga keladi. Umumiylik darajasi bo‘yicha nazariy sxemalar fundamental va xususiy sxemalarga bo‘linadi. Bunday bo‘linish mavhum obyektlarning tabiatiga bog‘liq bo‘ladi, agar ular umumtexnik obyektlar bo‘lsa, u holda ilmiy-texnik nazariyalar fizik nazariyalar asosida paydo bo‘lgan, deb hisoblashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ammo mavhum obyektlar asosida qurilgan xususiy fizik nazariyalar fundamental va xususiy fizik nazariyalarga bo‘linishi uchun asos bo‘lganligi sababli, umumtexnik obyektlar esa xususiy fizik nazariyani xususiy ilmiy-texnik nazariyaga aylantirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Shu sababli, Materialshunoslik va KMT fanini o‘qitishda xususiy ilmiy-texnik nazariyani (kimyoviy-issiqlik bilan ishlov berish nazariyasi – fizikaviy mohiyati – dissotsiatsiya, absorbsiya, diffuziya; sirt plastik deformatsiyalanish nazariyasi – dislokatsiya va shu kabilar) ajratish zarur.

Fundamental va xususiy nazariy sxemalardan nazariy umumlashtirishlarning umumiy bosqichlari ularning tuzilishi va o‘zaro aloqadorligiga ko‘ra quyidagilarga ajratiladi:

– hodisalar, tajribalar natijalari, nazariy sxemalar asoslari bo‘lmish dalillar, obyektiv haqiqat bo‘lagi (umumtexnik soha faktlari, ishlab chiqarish faoliyati obyektlari);

– olamning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirish vositasi (nazariy sxemalar yadrosi) sifatida tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, umumiy fizik tushunchalar, qonunlar va g‘oyalar asosidagi yaratilgan fizikaviy plastik modellari (texnikaviy obyektlari);

– nazariy sxemalar yadrosining xulosalari va amaliy dasturlari;

– nazariy materialni talqin qilish.

Har qanday fizikaviy nazariyada asos, yadro va natija ajratiladi. Nazariyalarning tuzilishini ifodalovchi va yuqorida ko‘rsatilgan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan nazariy umumlashtirish bosqichlariga egadir.

Shunday qilib, agar fizika nazariyasida eksperimental dalillar, ideal obyekt, hamda ushbu obyekt bilan ishlash qoidalarini tavsiflovchi fizik tushunchalar va miqdorlar asos bo‘lsa, u holda yadro nazariyasiga - qonunlar, postulatlar, tamoyillar, fundamental doimiylar kiradi. Eksperimental dalillarni asoslash, xulosaviy bilimlar olish va ularni aniq masalalarni hal qilish uchun qo‘llashgа esa nazariyaning natijasi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Усмов А.И. Система. Симметрия. Гармония. М.: Мысль, 1988;

2. Макареня А.А. Понятие “Педагогическая картина мира” и его использование в педагогической практике. //Образование в Сибири. №1, Томск, 1981.

3. Мостепаненко М.В. Философия и методы научного познания. Л. Лениздат. 1972 -263 с.

4. Князев В.Н. Концепция взаимодействия в современной физике М.: Прометей, 1991. - 126 с.

5. Степин В.С. Становление научной теории: Содержательные аспекты строения и генезиса теоретических знаний физики. Минск: Изд-во БГУ, 1976. 319 с.

M.L. ARIPOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

XORIJIY TILNI O‘RGATISHDA VATANPARVARLIK TARBIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada vatanparvarlik tarbiyasi, xorijiy tilni o‘rgatishda uning o‘ziga xosligi, til xususiyatlari hamda chet tilini o‘rgatish uslublarini qo‘llash haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Vatan, jamiyat, burch, vatanparvarlik, tarbiya, talaba, qadriyat, milliy o‘zlik, til, xususiyat, uslub, bilim, ko‘nikma, malaka, mas’uliyat.

В данной статье рассматриваются высказывания о патриотическом воспитании, его уникальности в обучении иностранному языку, языковых особенностях, использовании методик обучения иностранному языку.

Ключевые слова. Страна, общество, долг, патриотизм, воспитание, студент, ценность, национальное самосознание, язык, особенность, стиль, знание, умение, навык, ответственность.

This article discusses opinions expressing about patriotic education, its uniqueness in teaching a foreign language, language features, and the use of foreign language teaching methods.

Key words. Country, society, duty, patriotism, upbringing, student, value, national identity, language, feature, style, knowledge, skill, competence, responsibility.

Til o‘rgatish jarayonlari, u qaysi fan yoki til bo‘lmasin, uni puxta egallash va o‘qitish uchun bugungi kun pedagoglarga ta’lim-tarbiya tamoyillarining ma’no-mohiyatidan xabardor bo‘lish va ularni ta’lim jarayonlarida to‘g‘ri qo‘llay olish mahoratini egallash vazifasini yuklamoqda. Xorijiy tilni o‘qitish uchun bilim, ko‘nikma, malaka hosil qilish muhim hisoblanadi. Ma’lumki, talaba o‘z ona tilining o‘ziga xos qonun-qoidalarini dastlab ijtimoiy muhitda, so‘ng ta’lim asosida o‘zlashtirgan bo‘ladi. Shu tushunchalaridan kelib chiqib, boshqa chet (o‘rganayotgan) tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan ma’lum bir bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘ladi. Psixologlarning ta’kidlashicha, bularni talaba yangi o‘zlashtirayotgan chet tiliga ko‘chirishi mumkin. Bu ko‘chirish salbiy va ijobiy xususiyatlarga ega bo‘lishi ehtimoldan holi bo‘lmaydi. Ijobiy natijalarning yuqori bo‘lishi esa inson psixologiyasiga uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Til o‘rganish jarayoni bevosita mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy, etnik xususiyatlarini o‘zlashtirishga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, talaba qaysi mamlakat tilini o‘rgansa, shu mamlakatning madaniyati, milliy urf-odatlari kabilarni ham o‘rganib, o‘zlashtirib boradi. Shu bilan birgalikda til o‘rganuvchi o‘z ona yurtining milliy urf-odatlarini taqqoslaydi va ma’lum fikr, xulosaga keladi. Har bir mamlakatning o‘ziga xos madaniyati, etnik xususiyatlarini o‘rgatishda pedagogdan yuqori bilim va mas’uliyat talab etiladi. Chunki talaba boshqa xalqlarning madaniyatini o‘zlashtirish bilan birga o‘z Vataniga muhabbat ruhida ham tarbiyalanishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining asosiy negizi hisoblanadi. Chunki vatanparvarlik g‘oyasi jamiyat, mamlakat barqarorligi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Vatanparvarlik g‘oyasini shakllantirishning asosiy vazifalari – milliy o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklash,

ularni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, vatanimiz tarixi, madaniyatini teran bilib olish, muqaddas dinimizga sadoqatli bo‘lish kabilar bo‘lib, ularni amalga oshirish natijasida talabalar ongida yangicha fikrlash, milliy tafakkur, milliy mafkuraviy qarashlar, ma’naviy-axloqiy xislatlar kamol topadi. Shuning uchun ham talabalarga vatanparvarlik g‘oyasi haqida bilimlar berish, ularda ko‘nikma va malakalar hosil qilish muhimdir. Vatanparvarlik g‘oyasini shakllantirish shaxs, jamiyat ma’naviyatini yuksak darajaga ko‘tarish bilan bog‘liq bo‘lib, vatanparvarlik g‘oyasini o‘zida mujassam etgan shaxs jamiyat talablariga javob beradi, uni mustahkamlaydi. Bunga albatta, kompleks yondashish, ayniqsa, dars, sinfdan tashqari ishlar jarayonida talaba shaxsida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish o‘z samarasini beradi.

Vatanparvarlik – vatan oldidagi mas’uliyat va burchni anglash tushunchasi. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo‘lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko‘p anglashilsa, kishilarda vatan tuyg‘usi shuncha baland bo‘ladi. Bu jarayon cheksizdir. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy taraqqiyotning turli bosqichlari vatanning yangi-yangi qirralarini kashf etib boradi. Har bir barkamol inson vatan kamoloti va istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsani, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda Mavlono Fuzuliyning “Mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo‘lgan taqdirimda ham hammasini vatan uchun sarflagan bo‘lur edim”, deb aytgan so‘zlari har birimiz uchun bebaho o‘gitdir.

Ma’lumki, chet tillarini o‘rganishdagi asosiy qo‘llanadigan uslub: eshitish, so‘zlash, o‘qish, yozishdan iborat bo‘ladi. Pedagog bu uslublardan unumli foydalanishi lozim. O‘quvchi-talabalarni chet tilini o‘zlashtirish jarayonida vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashi tarbiya tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bunda pedagog maxsus mavzularni tanlashi, ularga matnlarni tayyorlab borishi lozim. Masalan, “O‘zbekiston – jannatmakon diyor”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, “Vatanga sodiqlik – muqaddas burch”, “Shu aziz Vatan – barchamizniki”, “Millat ruhidagi bunyodkorlik” va hok. Bu mavzularni dars jarayonida qo‘llashi uchun biror o‘quvchiga mavzuni berib, uni mustaqil izlanishga undashi, o‘quvchining to‘plagan ma’lumotlarini hamkorlikda ishlab, to‘ldirishi ta’lim-tarbiyani samarali tashkillashtirishga imkon beradi. Pedagog tomonidan tayyorlanadigan mavzular quyidagi mazmunda tuzilishi mumkin.

“Shu aziz Vatan – barchamizniki”.O‘qituvchi mavzuni yoritishda quyidagi masalalarga e’tiborni qaratadi:

– umumbashariy qadriyatlar asosida turli millat va elatlarning birgalikda istiqomat qilishi, mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotining rivojlanishi;

– bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlik;

– har bir millat vakilining iste’dodi va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi, vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etilishi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e’tiqodi, urf-odat va an’analari haqida fikr yuritiladi. Ko‘p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida ularning milliy va diniy mansubligidan qat’iy nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg‘ularini kuchaytirish, “Shu aziz Vatan - barchamizniki” g‘oyasini amalga oshirish borasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Yurtimizda qaror topgan millatlararo totuvlik va barqarorlikni saqlash, uni ko‘z qorachig‘iday asrash har birimizning muqaddas burchimiz ekanligi o‘quvchi-talabalarga

tushuntiriladi. Yurtimizda yashayotgan turli millat vakillarining urf-odatlari haqida hikoya qilinib, misollar keltiriladi.

“Vatanga sodiqlik – muqaddas burch”. Mavzu vatandoshlarimizning oila, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas’uliyati xususidagi fikrlar bilan boshlanadi. Yurtning tinchligi, davlatimizda harbiy, iqtisodiy, g‘oyaviy, ekologik, informasion tahdidlardan muhofaza etish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumot beriladi. Yosh avlodni ona vatan himoyasiga tayyorlash, ularda harbiy vatanparvarlik g‘oyalarini shakllantirish Vatanga cheksiz muhabbat uyg‘otishga, uni ardoqlashga, muhofaza etishga, har qanday bosqinchilardan himoya qilishga zamin tayyorlaydi. Shu o‘rinda, Surxondaryoning tog‘li hududlarida vatan mudofaasi uchun qurbon bo‘lgan o‘g‘lonlarimizning qahramonliklari haqida misollar keltiriladi. Ularning jasorati minglab o‘zbek o‘g‘lonlariga chinakam fidoiylik namunasi bo‘lib qolganligi izohlanadi. Shu bilan birga, talabalarga mamlakatimiz tinchligi, osoyishtaligini samarali va ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan, tezkor, jangovar qobiliyati yuksak, har jihatdan yaxshi ta’minlangan Qurolli kuchlarning shakllanganligi, ularning zarur texnika hamda qurol-yarog‘lar bilan yetarli miqdorda ta’minlanganligi haqida ma’lumotlar beriladi. Milliy Armiyamizning kuch-qudratini, mamlakatimizda ona-Vatan va xalqni himoya qilish, tinchlik, osoyishtalikni saqlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni misollar asosida izohlab o‘tish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Talabalarda vatanni himoya qilish muqaddas burch ekanligi haqidagi tushunchalari mustahkamlanadi.

Ta’lim jarayonida yuqorida keltirilgan matnlarga o‘xshash mazmundagi mavzulardan foydalanish o‘quvchi-talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Bunday materiallar xorijiy tillarni o‘zlashtirishda foydalaniladigan eshitish, so‘zlash, o‘qish, yozish faoliyatida qo‘l keladi. Matnni chet tilida o‘qib eshittirish, ingliz tili mutaxassisi, ya’ni filolog tomonidan ifodali o‘qilgan matn yozib olingan diktofonda eshittirish samarali usul hisoblanadi. Shuningdek, maxsus tayyorlab eshittirilgan matnning mazmunini so‘zlab berishga o‘rgatish o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kishi qanchalik ko‘p tilni bilsa, jahondagi millatlar, elatlar hayoti, madaniyati, turmush tarzi bilan yaqindan tanishadi, shuningdek, o‘zbek millatining qadriyatlari, boy ma’naviy merosini, madaniyati va bugungi yutuqlarini ham dunyoga tarannum eta oladi. Shuningdek, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o‘rganish, ulardagi ijobiy jihatlardan unumli foydalanish, ayniqsa, madaniyat, fan, ta’lim sohalaridagi yutuqlarini mamlakatimiz hayotiga tadbiq etish vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripova M. Talabalarda Vatan ravnaqi g‘oyasini shakllantirish. – T.: Fan., 2007.

2. Sunnatov B. Yoshlarda yurtga sadoqat va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish – davr talabi. O‘zbekison mustaqillikka erishish ostonasida: tarixiy xotiralar va yoshlar dunyoqarashi. O‘zDJTU, T.2012.

3. Axmedova M., Aripova M. Chet tilini o‘qitishning pedagogik-psixologik asoslari. –T.: “Impress Media”, 2017, 100 b.

4. Jalolov J. “Chet til o‘qitish metodikasi”. “O‘qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi. – T., 2012.

Zulayxo ISMATOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Xojiraxon JAMOLOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti talabasi

2-SINF TABIIY FANLAR DARSLARIDA “O‘SIMLIKLAR” MAVZULARINI O‘QITISHDA O‘QUV-TAJRIBA MAYDONCHASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada 2-sinf tabiiy fanlar darslarida “O‘simliklar” mavzularini o‘qitishda o‘quv-tajriba maydonchasidan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z borgan. Maktab o‘quv-tajriba maydonchasida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, oquvchilar o‘simliklarning rivojlanish bosqichlari, ularning poyasi, barg chiqarishi, gullashi va urug‘lashi haqida ular nafaqat tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladilar, balki amalda o‘zlari bajarib ko‘radilar.

Kalit so‘zlar. O‘quv-tajriba maydonchasi, o‘quv mashg‘ulotlar, oquvchilar, o‘simliklar, rivojlanish bosqichlari, poya, barg, gullashi, urug’lashi, tushuncha, tasavvur, daraxt, buta, o‘t o‘simlik, gul, urug’, meva, ildiz.

В данной статье рассматривается важность использования учебно-экспериментальной площадки при преподавании тем “Растения” на уроках естествознания 2 класса. Особенности учебных занятий, проводимых на школьной учебно-экспериментальной площадке, заключаются в том, что ученики получают представление о стадиях развития растений, об их стебле, листопадах, цветении и побегах, которые они не только узнают, но и пробуют на практике.

Ключевые слова. Учебно-экспериментальная площадка, учебные занятия, потоки, растения, этапы развития, стебель, лист, цветение, прорастание, концепция, воображение, дерево, кустарник, травянистое растение, цветок, семя, плод, корень.

This article discusses the importance of using the educational and experimental site when teaching the topics ‘‘Plants’’ in the natural science lessons of class 2. The peculiarities of the teaching sessions held on the school’s experimental site are that pupils get an idea of the stages of plant development, their stems, leaf-falls, flowering and shoots, which they not only learn, but also try in practic

Key words. Educational and experimental site, training lessons, flows, plants, stages of development, stem, leaf, flowering, germination, concept, imagination, tree, shrub, herbaceous plant, flower, seed, fruit, root.

Barcha zamonaviy maktablarda o‘quvchilarda qishloq xo‘jaligi mehnatiga qiziqish uyg‘otish va o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida doimiy foydalanish uchun maktab o‘quv-tajriba maydonchasi bo‘lishi kerak. Maktab hududida tajriba ishlar olib boriladi, buning asosida bolalarda tadqiqot ko‘nikmalari shakllanadi.

Boshlang‘ich maktab o‘quv-tajriba maydonchasi mustaqil qism sifatida ajralib turadi. Maktab o‘quv-tajriba maydonchalarining kattaligi birinchi navbatda o‘quvchilar soniga bog‘liq.

Boshlang‘ich maktab o‘quv-tajriba maydonchasida sabzavot, meva va rezavorlar yig‘ish bo‘limlari tashkil etilgan.Shahar maktabida eng katta maydonni gulzor va man-

zarali daraxt va butalar, qishloq maktabida esa sabzavot bo‘limi egallagan.

Bolalarning qishloq xo‘jaligidagi mehnati maktab o‘quv-tajriba maydonchalarida amaliy ishlarni olib borish bilan bir qatorda ishning maqsadlarini belgilash va ish rejasini belgilashdan boshlanadi. Rejalashtirilgan ish amalga oshirilgandan so‘ng natijalar umumlashtiriladi va ish natijalari qayd etiladi. Jismoniy mehnat va tabiiy fanlardagi tadqiqot ishlari fenologik kuzatishlar bilan birga olib borilishi kerak.

O‘quv-tajriba maydonchasining o‘ziga hos bajariladigan ishlariga qarab, asbob-uskuna va vositalaridan foydalaniladi. Bu yerda o‘quvchilar o‘simliklarni ekadilar, ularni parvarish qiladilar, rivojlanishini kuzatib, tahlil qilib boradilar. Bundan tashqari o‘simliklarning rivojlanish bosqichlarini aks etgan gerbariyli albomlar tayyorlash imkonini beradi. Maktab o‘quv-tajriba maydonchasidan olinadigan materiallardan o‘quv jarayonida foydalanish katta samara beradi. Chunki o‘quvchilar o‘zlari parvarish qilishgan narsalar haqida yanada ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladilar. Maktab o‘quv-tajriba maydonchasida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, oquvchilar o‘simliklarning rivojlanish bosqichlari, ularning poyasi, barg chiqarishi, gullashi va ururlashi haqida ular nafaqat tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladilar balki amalda o‘zlari bajarib ko‘radilar.

Maktab o‘quv-tajriba maydonchasi o‘simliklar ustida kuzatish va tajriba ishlarini olib borish uchun juda muhimdir. U ochiq havodagi laboratoriya hisoblanadi. U yerda o‘quvchilar o‘z nazariy bilimlarini chuqurlashtiradilar, o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish bo‘yicha o‘quv va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, o‘simliklar hayoti va rivojlanishini kuzatish bo‘yicha amaliy ishlar olib boradilar.

2-sinf Tabiiy fanlar darsligida berilgan “O‘simliklar” bobida “O‘simliklarning xilma-xilligi”, “O‘simlik organlari”, “O‘simliklarning hayot sikli” mavzulari hamda “Urug‘ning tuzilishini o‘rganish” va “Urug‘ning unib chiqish jarayonini o‘rganish” amaliy ishlari berilgan bo‘lib, bu mavzular haqida o‘quvchilarda tasavvur va tushunchalarni shakllantirishda o‘quv-tajriba maydonchasini o‘rni benihoya kattadir.

“O‘simliklarning xilma-xilligi” mavzusida o‘simliklarning hayotiy shakllari, ya’ni daraxt, buta, o‘t o‘simliklar haqida ma’lumot beriladi. Bunda o‘quvchilarda tasavvurlarni shakllantirishda maydonchadagi o‘simliklar asosida tahlil qilib, tushunchalar beriladi. Masalan: o‘t o‘simliklar haqida ma’lumotlar berilganida ularning yashil poyaga ega ekanligi, bir yillik, ikki yillik va ko‘p yillik guruhlarga bo‘linishi haqida aytiladi. Bunda bir yillik o‘t o‘simliklarga o‘quvchilar tomonidan parvarish qilinayotgan pomidor, baqlajon, bodring kabi o‘simliklar misol bo‘lishi, sababi bir yillik o‘simliklar yoki ko‘proq mavsumiy o‘simliklar, deb ataladigan o‘simliklar – bu yiliga atigi bir necha oy yashaydigan, ya’ni sovuq kelganda yoki gullash to‘xtaganda, ular qurib o‘ladigan yoki ular bahorda urug‘dan unib chiqib, gullab, meva berishi va kuz mavsumida nobud bo‘lishi, ularning tuzilishi haqida ma’lumotlar beriladi. O‘zbekistonda uchraydigan o‘simliklarning yarmidan ko‘prog‘ini bir yillik o‘simliklar tashkil qilishi, ularga oq sho‘ra, jag‘-jag‘, machin, qora ituzum, baliqko‘z kabilar kirishi aytiladi.

Qishloq xo‘jaligida o‘stirilayotgan madaniy o‘siliklarning juda ko‘pchiligi bir yillik o‘simliklar ekanligi, g‘oza, bug‘doy, arpa, zig‘ir, yeryong‘oq, mosh, no‘xat, sholi, pomidor, qalampir, qovun, tarvuz, rayhon va boshqalar kiradi. Bir yillik o‘tlar orasiga juda mayda, yer yuzidan 5-20 sm ko‘tarilib o‘sadigan momaqaldirmoq, qo‘ytikan kabilarni, bo‘yi 1 m ga yetadigan va hatto undan ham oshadigan kanakunjut, makkajo‘xori va kanopga o‘xshash o‘simliklarni ham ko‘plab uchratish mumkin.

Ikki yillik o‘simliklar – urug’idan ko‘karib chiqib, birinchi yili yer yuzida, asosan,

barg (to‘pbarg) hosil qiladigan, ildizi va barglarida oziq moddalar to‘playdigan o‘simliklar ekanligi, ular ikkinchi yili poya chiqarib va gullab, meva tugishi va bularga lavlagi, sabzi, sholg‘om, karam va boshqalar kirishi aytiladi.

O‘qituvchi maydoncha yonidagi ariq yoki g‘umay o‘simligini ko‘rsatib, ular ko‘p yilli o‘t o‘simliklarga kirishini aytib, quyidagi ma’lumotlarni beradi: ko‘p yillik o‘tlar – yer usti qismi qishda qurib, o‘sish kurtaklari tuproq ostida qishlaydigan o‘simliklar. Bularga beda, ajriq, g‘umay, sachratqi, piskom piyozi, kiyiko‘t, sallagul, qoqio‘t, shirinmiya, iloq, lola, qamish, andiz, yalpiz, kovrak, gulsafsar singari o‘simliklar kiradi. Ko‘p yillik o‘tlar, ayniqsa, tog‘larda keng tarqalgan.

Yarimbutalar – poyasining yuqori qismini qishda sovuq urib ketadigan ko‘p yillik o‘simliklardir. Cho‘llarda keng tarqalgan yem-xashak o‘simliklaridan izen, keyreuk, teresken, sarsazan va shuvoq kabilar shular jumlasidandir

Butalar – poyasi yog‘ochlashgan, bo‘yi 2-3 m dan oshmaydigan bitta yoki bir nechta poya hosil qiladigan sershox ko‘p yillik o‘simlik. Bularga, ayniqsa, tog‘lar yonbag‘rida keng tarqalgan irg‘ay, singirtak, na’matak, zirk, bodomcha, uchqat, madaniy o‘simliklardan anor, limon, qoraqat, ligustrum, nastarin kabi o‘simliklarni misol qilib keltirish mumkin. Butalar haqidagi ma’lumotlar berilganda ularning daraxtlardan farqlari nimada ekanligi tushuntirib beriladi.

Maydonchadagi daraxtlarni ko‘rsatib, daraxt - tana va shoxlari yog‘ochlangan ko‘p yillik o‘simlik ekanligi, ular bo‘yiga qarab 3 guruhga:

1) 35 m dan baland (chinor, terak, qora qayin, qarag‘ay);

2) 25–35 m (qayrag‘och, yong‘oq, oq qayin, tol, qatrang‘i);

3) 25 m gacha (zarang, chetan, shumurt) bo‘linishi aytiladi. Mevali daraxtlar ham shakliga qarab 3 guruhga:

1) shoxshabbasi ko‘p, baland bo‘lib o‘sadigan (nok, gilos, yong‘oq, olmaning ayrim navlari);

2) tanasi ko‘rimsiz, ildiz bachkilaridan ham ko‘payadigan bo‘yi past (shaftoli, olmaning pakana xillari, olcha va olxo‘rining ayrim turlari);


3) birinchi va ikkinchi guruh oralig‘idagi o‘rta bo‘yli daraxtlar (olma va o‘rikning ko‘pchilik xillari va navlari, nok, olchaning ayrim turlari)ga bo‘linadi, deb ma’lumot beriladi va bir-biridan farqi tushuntiriladi:

– daraxtlarning doim yashil va barglarini har yili kuzda to‘kadigan xillari (doim yashil daraxt barglari vaqt-vaqti bilan to‘kilib, o‘rniga yangisi chiqaveradi);

– daraxtlar yoshi ularning kesilgan to‘nkasidan yoki o‘sib turgan ildiz bo‘g‘zidan (parmalab olingan o‘zagigacha), yog‘ochligidagi yillik halqalar soniga, shuningdek, daraxtlarning tashqi belgilari (bargining rangi, tanasining shakli, po‘stlog‘ining tusi va tuzilishi)ga qarab aniqdanadi.

Daraxtlarni o‘g‘itlash yoki hosil berishini to‘xtatish bilan hayotini uzaytirish mumkin. Shaftoli daraxti 15-20, saksovul 50-60, terak 70-80, tok 100, tol 300, xandon pista 350, tut va yong‘oq 400, qarag‘ay, shumtol, zarang 700-1000, chinor 1000, eman 2000, shamshod 3000, mamont daraxti 6000-yil yashaydi. Daraxt insonlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, daraxtlar karbonat angidrid (CO_2) yutib, kislorod chiqaradi, insonlar esa kislorod yutib karbonat angidrid chiqaradi. Mana shu tariqa tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik shakllanadi.

“O‘simlik organlari” haqidagi tushunchalarni shakllantirishda o‘qituvchi maydonchadagi o‘quvchilar tomonidan ekib parvarishlanayotgan o‘simliklardan birini oldiga borib, uning organlari haqida ma’lumotlar beradi.




O‘simliklar gul, urug‘, meva, bargain, ildizi, barg, poyalardan tashkil topgab bo‘lib, ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

– gul - o‘simlikning ko‘payishi uchun xizmat qiladi;
– urug‘dan yangi o‘simlik rivojlanadi;
– meva - urug‘ni himoya qiladi va tarqalishiga yordam beradi;
– barg - yorug‘lik va havo yordamida oziq moddalar hosil qiladi;
– poya - suv va oziq moddalarni o‘tkazadi;
– ildiz - tuproqdan suv va mineral tuzlarni shimib oladi.

O‘simlikning organlari bilan tanishtirishda uning guliga e’tibor qaratishlarini so‘raydi. Gulning kosachabarg, tojibarg, changchi va urug’chilarini ko‘rsatib, ularning vazifalari nimalardan iboratligini aytib o‘tadi.

O‘quvchilarga o‘zlari ham istalgan o‘simliklarni tanlab olib, ularning organlarini nomini hamda ularning vazifalarini aytish vazifasi beriladi. Vazifani bajarish jarayonida o‘qituvchi ularni diqqat bilan kuzatadi va kamchiliklarini tuzatib boradi.



“O‘simliklarning hayot sikli” haqidagi tushunchalarni berishda o‘simlik gerbariysidan ham foydalanish mumkin. Buning uchun o‘sha o‘simlikning rivojlanish bosqichlari davomida ulardan gerbariylar tayyorlab boriladi. Bahor mavsumida qoqio‘tning barcha sikllarini topib kuzatish mumkin bo‘ladi.

“Urug‘ning unib chiqish jarayonini o‘rganish” mavzusida o‘quv-tajriba maydonchasida quyidagicha ishlar olib borish mumkin.

10 dona loviya, mosh, bug’doy urug‘ini suvli idishga solib, bir kun ivitish, ivitilgan urug‘larni yerga ekish, har kuni urug‘lardagi o‘zgarishlarni kuzatib, daftaringizga qayd etib, urug‘lar ildiz, poya va dastlabki barglarni hosil qilishini kuzatib borish, ozroq qismini ustini engil yopish ya’ni qorong‘u qilish lozim bo‘ladi. Har kuni suv purkab turiladi. O‘n kun davomida o‘simliklardagi o‘zgarishlarni kuzatib boriladi va yorug‘, qorong‘i joyda rivojlanayotgan o‘simliklar taqqoslanadi. O‘quvchilar xulosalari tinglanadi va o‘qituvchi tomonidan umumiy xulosa beriladi.

Demak, o‘quvchilarda qishloq xo‘jaligi mehnatiga qiziqish uyg‘otish va o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida doimiy foydalanish uchun maktab o‘quv-tajriba maydonchasi bo‘lishi kerak. Maktab hududida tajriba ishlar olib boriladi, buning asosida bolalarda tadqiqot ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘quv-tajriba maydonchasining o‘ziga xos bajariladigan ishlariga qarab, asbob-uskuna va vositalaridan foydalaniladi. Bu yerda o‘quvchilar o‘simliklarni ekadilar, ularni parvarish qiladilar, ularnining rivojlanishini kuzatib, tahlil qilib boradilar. Maktab o‘quv-tajriba maydonchasidan olinadigan materiallardan o‘quv jarayonida foydalanish katta samara beradi. Chunki o‘quvchilar o‘zlari parvarish qilishgan narsalar haqida yanada ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladilar. Maktab o‘quv-tajriba maydonchasida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, oquvchilar o‘simliklarning rivojlanish bosqichlari, ularning poyasi, barg chiqarishi, gullashi va urug‘lashi haqida nafaqat tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladilar balki amalda o‘zlari bajarib ko‘radilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Исматова З.А. Влияние экологических факторов на распространение и развитие водорослей р.Сангзар // ‘‘Исследование различных направлений современной науки’’ сборник материалов XXXVI международной научно-практической конференции. – М.: 2018. –С.25-29.

2. Ismatova Z.A. Development of the Algae Flora of the Middle Sangzor River under the Influence of Environmental Factors // Journal of Geography and natural Resources. 1 (01), 11-15. DOI: https://doi.org/10.37547/jgnr-01-03

3. Ismatova Z.A. TRAINING AND EXPERIMENTAL SITE AND ORGANIZATION OF TRAINING BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH. Евразийский журнал академических исследований 3 (1 Part 5), 73-79.

4. Пакулова В.М., Кузнецова В.И. Методика преподавания природоведения. − М.: Просвещение, 1990. − 192 с.

5. Suyarov K.T. va boshqalar. Tabiiy fanlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Suyarov [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

6. Xodiyeva D.P., Ismatova Z.A., T.M. Theoretical and practical foundations of the competence approach to the primary education system // Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2415-2422.

K. A. BOBOMURODOV,
Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari tomonidan o‘quv matnlarini tushunish darajasini oshirish texnologiyasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARI TOMONIDAN O‘QUV MATNLARINI TUSHUNISH DARAJASINI OSHIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Maqola o‘quvchilar tomonidan o‘quv matnlarini tushunishga qaratilgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari tomonidan o‘quv matnlarini tushunish darajasini oshirish metodikasiga katta e’tibor qaratiladi. Umuman olib qaraydigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda o‘quv matnlari bilan ishlash orqali eng yuqori natijaga erishamiz.

Kalit so‘zlar. Analitik, reproduktiv, tushunish, motivatsiya, integrativ, nutq kontekstidan gapning ma’nosini tushunish, kuzatish va oldingisiga bog‘lash.

Статья направлена на понимание читателями учебных текстов. Поэтому большое внимание уделяется методике повышения уровня понимания учебных текстов учащимися начального образования. Если рассматривать в целом, то наибольшего результата мы достигаем в начальных классах, работая с учебными текстами.

Ключевые слова. Аналитический, репродуктивный, понимающий, мотивационный, интегративный, понимающий, наблюдающий и связывающий значение предложения из речевого контекста с предыдущим.

The article is aimed at readers' understanding of educational texts. Therefore, much attention is paid to the methodology of increasing the level of understanding of educational texts by primary education students. If we look at it as a whole, then we achieve the greatest result in primary school, working with educational texts.


Key words. Analytical, reproductive, understanding, motivational, integrative, understanding, observing and linking the meaning of a sentence from a speech context with the previous one.

Hozirgi vaqtda o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasi g‘oyalari kontekstida tushunish muammosi yangi shakl va mazmun kasb etadi. Ma’lumki, o‘quvchining bahosi o‘quv faoliyatida o‘quv va ilmiy matnlarni tushina olishining ahamiyati bilan belgilanadi. O‘quv adabiyotidan kerakli ma’lumotlarni olish va uni tushunish qobiliyati butun o‘quv jarayonining muvaffaqiyatini oldindan belgilab beradi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, matn bilan muloqot qilish jarayonida o‘quvchining mustaqilligini rivojlantiradi va qiziqishni shakllantiradi. Bularning barchasi zamonaviy ta’lim ehtiyojlarini qondiradi.

O‘quvchilarda ilmiy bilimlarni anglab, tushunish – matnni qayta ishlash, uning ma’nosini tahlil qila olish va o‘quvchi mustaqil o‘zlashtirgan bilimlar bilan birlashtirish qobiliyati. Samarali o‘qishni tushunish uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalar so‘zlarning ma’nosini bilish, nutq kontekstidan gapning ma’nosini tushunish qobiliyati, keltirilgan parchaning tashkil etilishini kuzatish va oldingisiga bog‘lash, berilgan savollarga javob berish qobiliyatidir.

Tushunish – o‘quvchilarning ko‘nikmalariga va axborotni qayta ishlash qobiliyatiga bog‘liq. Agar so‘zni tanib olish qiyin bo‘lsa, o‘quvchilar alohida so‘zlarni o‘qish qobiliyatidan juda ko‘p foydalanadilar, bu esa o‘qiganlarini tushunishni qiyinlashtiradi.

Tushunish va tushunish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun ko‘plab o‘qish strategiyalari mavjud, jumladan lug‘at boyligini oshirish, matnni tanqidiy tahlil qilish, mustaqil o‘qish, muammoli topshiriqlar, o‘quvchilarning shaxsiy kuzatishlari va boshqalar. (1-rasm)



1-rasm. O‘quvchilarda anglab-tushinish ko‘nikmasini rivojlantirish usullarini takomillashtirish texnologiyasi

Boshlang‘ich maktabda shunday vaziyat yuzaga keldiki, darsliklarda taqdim etilgan deyarli barcha o‘quv ma’lumotlari o‘qituvchi tomonidan oldindan batafsil tushuntiriladi. Shundan keyingina maktab o‘quvchilariga mustahkamlash uchun topshiriq beriladi. Bu esa bolalarning faqat o‘qituvchi yordamida bilim olishga odatlanishiga, darslik bilan ishlash natijasida uni o‘z-o‘zidan chiqarib olmasliklariga olib keladi.

3-4 sinfga o‘tishi bilan o‘quvchilar tomonidan qabul qilinadigan o‘quv ma’lumotlari

hajmi oshadi, o‘qish uchun matnlar murakkablashadi. Bolalar o‘rganishda qiyinchiliklarni boshdan kechira boshlaydilar. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning mazkur jarayonda ko‘rsatkichlari pasayadi. O‘quv materialining mazmunini tushunmaslik o‘rganilayotgan fanga, kelajakda esa butun o‘quv jarayoniga qiziqishning pasayishiga olib keladi. Kerakli bilimlarni mustaqil ravishda egallash, o‘quv materialini tanqidiy sharhlay olmaslik tufayli ko‘plab bolalar o‘quv va ilmiy adabiyotlarni o‘qishni yoqtirmaydilar. Shuning uchun boshlang‘ich maktab oldida eng muhim vazifa - o‘quvchilarni o‘quv va ilmiy mazmundagi matnlarni o‘qish va tushunishga o‘rgatish.

O‘quvchilarda anglab - tushunish darajasi ta’lim orqali hamda bevosita tajriba orqali rivojlanib boradi. Tushunish ‘‘fikr jarayonlarini qurish’’ bo‘lgan shaxsning kognitiv rivojlanishi bilan belgilanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining matnni qanchalik muvaffaqiyatli tushunishini aniqlaydigan o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Jumladan, mavzu bo‘yicha oldingi bilimlari, yaxshi rivojlangan muloqot va savol berish va tushunishni nazorat qilish qobiliyati.‘‘Bu nima uchun muhim?’’ va ‘‘Men butun matnni o‘qishim kerakmi?’’ kabi savollarni o‘z oldiga qo‘yishi tushunishga qo‘yilgan qadam hisoblanadi.

Tushunish strategiyasi ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy va simulyatsiya o‘rganish bo‘yicha dastlabki o‘qitishni o‘z ichiga oladi, bu yerda o‘qituvchilar janr uslublarini tushuntiradi va yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga strategiyalarni modellashtiradi, matnni tushunishning zarur kompilyatsiyasi bilan tanishtiradi. Davomiylik interfeysidan so‘ng, ikkinchi bosqich mas’uliyatni o‘z ichiga oladi, bunda vaqt o‘tishi bilan o‘qituvchilar o‘quvchilarga mustaqil ravishda o‘rganilgan strategiyalarni oraliq strategiyalar bilan mos ravishda qo‘llash uchun individual mas’uliyat yuklaydi va bu xatolarni boshqarishda yordam beradi. Oxirgi qadam – o‘quvchilarni ko‘proq mustaqil o‘qish imkonini yaratishga olib keladi.

Boshlang‘ich sinflarda matnni anglab tushunishda ba’zi omillar mavjudki, ular bir-biridan farqlansa, o‘quvchi matnni tushunishini osonlashtiradi.

№	Matnni tushunish omillari	Tavsifi
	Ertaklar	Tarixiy fantastika
	Hikoya	Grafika, nuqtayi nazar va mavzudan iborat
	Axborot kitoblari	Dunyo bilimlarini beradi va nomlar, xaritalar, lug‘at va indeks
	She’r	Qofiyali misra

Bolalar o‘qiyotgan kitoblardagi matnning janrlari va xususiyatlari bilan tanish bo‘lsa, ular ushbu matn omillarini yaxshiroq yarata oladilar. Shuningdek, o‘quvchilarda idrok etish va tushunishda matnni o‘quvchining yosh darajasiga moslashtirishdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy tushunchalarni anglab tushunish darajasini rivojlantirishda bir qator asosiy jarayon ko‘nikmalarini e’tibordan chetda qoldirmaslik zarur deb hisobladik:

O‘quvchilarning kuzatish ko‘nikmasini tarkib toptirish asosida muloqatchanlik qobiliyatini rivojlantirish, tasniflash hamda xulosa chiqara olish ko‘nikmasini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Ushbu asosiy ko‘nikmalarning barchasi alohida ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy tushunchalarni anglab-tushinish jarayonida o‘zaro birlashtiriladi. Mazkur ko‘nikmalarni murakkablikni oshirishning mantiqiy tartibi-

da qo‘yish mumkin, garchi hatto birinchi sinf o‘quvchilari ham barcha ko‘nikmalarni turli vaqtlarda bir-biri bilan birga ishlatishadi.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar kuzatish va muloqot kabi ko‘nikmalardan foydalanish uchun ko‘proq vaqt sarflashadi. Asta-sekin 3-4-sinflarda ularda taxmin qilish va bashorat qilish qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyati kengayib boradi. Tasniflash va o‘lchash odatda sinflar bo‘ylab tizimli qo‘llaniladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida anglab-tushinish ko‘nikmalarini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, ilmiy tushunchalarning asosiy mazmunini birlashtirish va o‘quvchilarni faollashtirishni bosqichma-bosqich rivojlantirishga tobora ko‘proq e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida anglab-tushinish ko‘nikmalarini tarkib toptirishda dastlab motivatsiya usullariga diqqatni qaratish muhim. Chunki, o‘quvchilar diqqatini jalb qilish uchun ular faollikni his qilishlari va mavzu ularga nima bera olishini hayotiy misollar orqali bilishlari lozim. Shuningdek, motivatsiya usullari shunday harakatlarki, unga ko‘ra amaliyot yoki nazariya o‘qituvchisi tomonidan o‘rgatish jarayoniga optimal darajada e’tibor qozonish mumkinligi tekshirib ko‘riladi. O‘quvchilarda tushunish darajasini rivojlantirishda mavzuni o‘rganishga qiziqishni uyg‘otishning faol usullari va o‘rganishga qiziqishni saqlab qolish usullarini farqlash mumkin.

O‘quvchilarda tushunish muammosini hal qilishda o‘rganishga qiziqishni uyg‘otish usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **O‘rganiladigan materialga motivatsiya beradigan umumiy shart-sharoitlarni yaratish.**

Bizningcha, o‘quvchilarning tengligi, ijtimoiy tan olinish darajasidagi atmosferada yaxshiroq va yengilroq tushunish ko‘nikmasi rivojlanishi mumkin. Shuningdek, ijobiy emotsional va ijtimoiy muhit, balki do‘stlar davrasi, tozalik, maqsadga muvofiq tarzda jihozlanganligi, faollik imkoniyatlarining borligi shular jumlasiga kiradi.

2**. Mavjud motivatsiyalarga asoslanish.**

Tushunish jarayonini iloji boricha o‘quvchilarga qaratish uchun o‘rganiladigan predmetni o‘quvchilarning ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lishiga ahamiyat qaratish kerak. Bunga adresatlar analizi mos keladi. Bu yangi guruhning o‘ziga xos tomonlarini yozib berish, til ko‘nikmalarini egallaganligi, xulq namunasini, kasbiy tajribalarini, oilaviy va madaniy holati va o‘quvchi o‘rganishni xohlagan sohasi yuzasidan qaydlar qilishi lozim.

3. **Maqsad va mazmunlarni o‘quvchini intilishiga undovchi qilib ifodalash.**

O‘quvchini anglab-tushinish bo‘yicha natijalari to‘g‘risida xabardor qilib borilsa va maqsadlar shaxsiy maqsadlar bilan moslashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar mavjud vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchini maqsadlarini topishda qatnashishini ta’minlasa, o‘quvchi o‘rganish vositalari va o‘rganish maqsadlarini o‘zi tuza olsa, bu foydali va samarali bo‘ladi.

4**. O‘quv predmetini qiziqarli taqdim etish.** O‘quv predmetini taqdim etilish tarzida o‘quvchi birlamchi motivlarni anglash-anglamasligini belgilab beradi. Unda bolaning sezgi a’zolari ishtirok etishi ta’minlanadi. Natijada orginal mehnat vaziyatiga mos keluvchi holatlar yaratiladi. Bunda o‘quvchining o‘quv predmeti bilan faol tarzda shug‘ullanib, birlamchi va ikkilamchi motivlar harakatga keladi. Italiyalik o‘qituvchi Mariya Montessori ham bolalarga o‘rganayotgan narsalarini ko‘rish, teginish, eshitish, hidlash yoki ta’tib ko‘rish imkoniyatini berish qanchalik kuchli ekanligini namoyish etdi. U sezgi idrokini kuchaytirish va bolaga hurmat bilan qarash orqali bola diqqatini uzoq

vaqt ushlab turishga erishgan.

Ishonchli usuli- faol ta'limiy usullardir. Mazkur usullar o'quvchilarda tushunish darajasini aniqlab berishga, kamchilik va yutuqlarni tahlil qilishga imkon beradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, nostandart narsalar yorqin esda qoladi. Faol ta'limiy usullar zerikarli hamda odatiy darslarni qiziqarli va tushunarli qilishi mumkin. Finlyandiya hukumati barcha sinf o'quvchilari darsning har bir soati davomida 15 daqiqa o'yin o'ynash vaqti bo'lishi to'g'risida qaror qabul qildi. Ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu usulni qo'llab-quvvatlovchi bir qator tajribalar kuzatilgan. Faol usullar va yangi zamonaviy texnologiyalar, o'quvchilarga mustaqil hayotda o'ziga ishonchni shakllantiradi, yangi sharoitlarga tez moslashish va maqbul yechimlarni topa oladigan zamonaviy bilim, ko'nikma va fazilatlarga ega bo'lgan o'quvchini tayyorlashga imkon beradi, murakkab masalalarga oson yechim topishga ko'maklashadi.

"Sizning yangi kompyuteringiz" usuli

Har bir o'quvchiga har xil rangdagi to'rtta stiker beriladi. Ular yangi o'rganganlarini, nimani tushunganlarini va qanday his -tuyg'ularni boshdan kechirganlarini yozadilar. Keyin bu gaplarning barchasi doskadagi ramziy kompyuterga yopishtiriladi.

Monitorda – men nimani ko'rdim,

Klaviaturada – nimani o'rgandim,

Tizim birligida – nimani tushundim,

Sichqonchada – nimani his qildim.

"Svetofor" usuli

Bu usulda ona tili darslarida mavzuni tushunish darajasini aniqlash uchun qo'llaniladi. O'qituvchi proyektorda gaplar yozilgan slaydni namoyish etadi. O'quv topshirig'i sifatida gaplarning grammatik tuzilishini aniqlash beriladi. O'quvchilar to'g'ri grammatik qo'shimchalarni tanlashda qizil va yashil kartochkalarni ushlab turadilar va javoblarni to'g'ri yoki noto'g'ri deb bilganlarida ularni yuqoriga ko'taradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – B.294-295

2. Nurullayeva Sh.O'. Pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish mexanizmlari. Monografiya. – Qarshi: intellekt, 2022. - 80 b.

3. Nurullayeva Sh.O'. "Pedagogik mahorat" kursidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi. Qarshi: Nasaf, 2011.- 64 b.

4. Nurullayeva Sh.O'. Boshlang'ich ta'lim uchun didaktik materillar. Uslubiy qo'llanma. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022.- 80 b.

5. Aslanova O. P. Quick Thinking and Resourcefulness and Its' Forming in Learning Process//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJRRES). –Vol. 4 No. 6, 2017. – P.66-69.

Jaxongir BEGIJONOV,
Andijon davlat universiteti,
“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BADIIY KULOLCHILIK MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA TALABALARNI KREATIV KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kulolchilik mashg‘ulotlari jarayonida kreativlik, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, talabalarning innovatsion faoliyati, interfaol ta’lim, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Kulolchilik, kreativlik, naqqoshlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta’lim.

В данной статье описаны факторы, развивающие креативность, творческую компетентность педагогов, инновационную деятельность учащихся, интерактивное обучение, инновационные образовательные и информационно-коммуникационные технологии, творческие способности учащихся на занятиях по гончарному делу.

Ключевые слова. Гончарство, творчество, живопись, умение, интерактивные методы, инновации, образование.

This article describes factors that develop creativity, creative competence of pedagogues, innovative activities of students, interactive education, innovative education and information and communication technologies, and creative abilities of students during pottery classes.

Key words. Pottery, creativity, painting, ability, interactive methods, innovation, education.

O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta’lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarni o‘rnatishi, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobilyatlarini rivojlantirishda interfaol usullardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir .

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sez-

girlik, intuitsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg’ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Pedagog olimlardan O. Jamoliddinova, O. Musurmonova, M. Urazova, N. Egamberdieva, E. Yuzlikaeva, Sh. Sharipov, A. Umronxo‘jayev, A. Valiyev, Ruziev E.I, Ashirboev A.O, Sh. Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta’lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta’minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. O‘zbek kulolchiligidagi badiiy uslub uzoq davr davomida shakllanib, ayrim tumanlarda idish-tovoqlar turlari va naqshlarining o‘ziga xosligi saqlanib kelmoqda. Idishlarga beriladigan naqshlar asosan qalami, chizma yoki xarroji uslubida amalga oshirilgan, ba’zan ular birgalikda ishlatilgan. Kulolchilik O‘zbekistonning hamma joyida uchraydi. Ammo badiiy buyumlar yaratishda eng yirik markazlardan Rishton, G‘ijduvon, Shahrisabz, Xiva, Xonqa, Samarqand, Toshkent qadimdan mashhur bo‘lgan. Masalan, Rishton kulollari yaratgan sirli idish va sopol buyumlar o‘zining nozik va murakkab naqshlari, bo‘yoqlar koloriti, ayniqsa, och ko‘k kobalti va feruza rangli bir necha ohangliligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi Rishton buyumlaridagi qalami uslubida yaratilgani naqshlar yirik va dekorativ xildagi ornamentli. G‘ijduvon sopol idishlari o‘zining rang boyligi va qatlamliligi bilan ko‘zga tashlanadi. Ularda ham xatlami uslubida to‘q jigarrang fonida yashil, to‘q sariq, to‘q ko‘k va qizil g‘isht rangli naqshlar bir necha qatlamda berilgan bo‘lib, bo‘rttirilgandek seziladi. Hozirgi Shahrisabz ustalari yirik ornamentli qizil-jigarrang fonda yashil, sariq, qizg‘ish va ba’zan ko‘k ranglar bilan idish-tovoqlarni bezaydilar. Samarqandlik kulollar katta dekorativ shakldagi oltin yoki sakkiz qirrali yulduz, doirasimon, o‘simlik ornamentli naqshlari bilan o‘z mahsulotlarini bezaganlar. Toshkentliklarda ikki xil sopol idishlar farqlanadi: eski xilda yasalgan suyuqlik oqimiga o‘xshash yashil, sariq va jigarrang bo‘yoqli va hozirgi davrga oid ochiq fonga bitilgan chekkasi gravirovkali, mayda o‘simlik ornamentli, polixrom bezakli namunalar. Farg‘ona kulollari sopol idishlarga oq, ko‘k, qizil, yashil, sariq, va hokazo tusda sir beradilar.

Ma’lumki, mavjud barcha san’at turlari o‘z o‘quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabiniga o‘tkazadigan badiiy, xissiy, ruhiy ta’siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o‘rinda amaliy bezak san’ati turlarining fazilatlari juda ham o‘ziga xos bo‘lib, ularni boshqa xech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Ya’ni bunday san’at asarlari ayni chog‘da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng

tarqalishiga sabab bo‘lgan. Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och, tosh va suyak o‘ymakorligi kandakorchilik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘stlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo‘yrachilik kabi turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan edi. Bunday holat hozirgi kunda san’atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san’at havaskorlari oldiga amaliy bezak san’atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o‘rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san’at sir-asrorlarini o‘rgatish orqali o‘rinbosarlar tayyorlash, san’at asarlarini keng targ’ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga erishish vazifalarini qo‘yadi. O‘tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

So‘nggi yillarda badiiy kulolchilikka qiziqish kuchaydi va u tez tarqala boshladi. Yosh ustalarning ishlari shuhrat qozondi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg’ona, Qoqon, Andijon, Namangan, Shahrisabz va boshqa shahar hamda tumanlardagi turli kasblarda ishlaydigan kishilar bo‘sh vaqtlarida naqsh bilan shug’ullanmoqdalar. Usta kulollarni go‘zallik ustalari deb atalgan va haqiqatdan ham shunday. Badiiy kulolchilik-ranglarning uyg‘unligida va original kompozitsiyalarda go‘zallik yaratish san’atidir. Kulol o‘z ishida rangning tabiiy jilosidan, bejirim shakldan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalilikka erishadi. O‘zbekistonning an’anaviy me’morchiligida kulolchilik va naqqoshlik asosan shiftlarni: jimjimador araqilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning, uylari, yog’ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo‘llangan. Nozik o‘simliksimon-geometrik naqshdagi o‘zaro singishib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o‘zbek ustalarining ishlaridagi islimiy va girih nashqlarining klassik motivlari shiftlarning shakliga moslangan.

Kulolchilik xalq amaliy san’ati turlaridan bo‘lib, hunarmandchilikning loydan, gildan turli buyumlar, idishlar, qurilish materiallari tayyorlaydigan sohasiga kiradi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tabiiy tuproq bo‘lib, loy qancha ko‘p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo‘ladi. Kulolchilikning bezak san’ati bo’lgan koshinkorlik san’ati Markaziy Osiyoning me’morchiligida keng rivojlandi. Kulolchilikda asosiy xomashyo – tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo‘lgan tuproqlardan turli xil kulolchilik mahsulotlari tayyorlanadi. Loy qancha ko‘p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo‘ladi. Kulolchilikda asosiy qurol kulolning charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi.

Kulollik charxi – kulollikda ishlatiladigan dastgoh; kulolning asosiy ish quroli, maxsus loydan ishlanadigan idishni shaklga solishda foydalaniladi. Kulollik charxi ikki yog‘och g‘ildirak – katta parrak (diametri 1 metrgacha) va kichik sartaxta (diametri 20-30 sm) hamda g‘ildiraklarning markazidan o‘tgan dumaloq xarsang toshga o‘rnatilgan o‘qdan iborat. Kulol pasdagi katta g‘ildakni oyog‘i bilan aylantiradi, yuqoridagi g‘ildirak ustiga loyni quyib idish yasaydi. Kulolchilik charxi ilk bor Qadimgi Sharqda milloddan avvalgi 4-3 ming yillikda paydo bo‘lgan, u dastlab qo‘lda aylantirilgan. Keyinchalik o‘rta asrlarda oyoq bilan aylantiradigan xili-hozir qo‘llanilayotgan Kulolchilik charxi yuzaga kelgan.

Hozirgi kunda kulolchilik faniga yanada e’tibor kuchaymoqda. Rishton O‘zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan

biri. XIX asr oxiri, XX asrboshlarida aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Farg‘ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta’siri ostida bo‘lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo‘lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo‘la oladi. Qizg‘ish-sarg‘ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun xududida 1-1,5 m chuqurlikda qatlam bo‘lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatliligi mahalliy ustalarning uni O‘zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan xolda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog‘lardan har xil bo‘yoqlar, kvartsli qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan. 1960-yillarda yuqorida eslatib o‘tilgan moviy sopol buyumlari ishlab chiqariladigan an’anaviy markazlar barham topa boshladi. Anashunday sharoitda san’atshunoslarning Butunittifoq konferentsiyasi (Farg’ona 1974 yil) qabul qilingan moviy ishqorli sopol idishlari ishlab chiqarish an’analarini saqlab qolish haqidagi qarori amaliy ahamiyat kasb etdi. Ushbu qaror ustalarga ma’qul tushdi. Ular oldingi ishlab chiqarishga qaytib buyumlarni bezashning an’anaviy shakllari va usullarini qayta tiklay boshladilar.

An’anaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to‘laqonli qilib qayta tiklash an’analarga so‘zsiz rioya qilish o`rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqda. Har bir ijodkorning ruhiy holati, o‘zi bajarayotgan buyumida o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruhiyatini ko‘tarishda esa xonaning ozodaligi, jihozlarning qulayligi muhim rol o‘ynaydi. Kulolchilik xonasini jihozlashda haykaltaroshlik xonalarini jihozlashning umumiy qoidalaridan kelib chiqqan xolda jihozlash qisman bo‘lsada foydalanish maqsadga muvofiqdir. Har bir asbob-uskunalar, xom-ashyolar, ko‘rgazmali qurollar, talabalarning tayyor ishlari, dastgohlar, elektropechlar tartibi bilan o‘z joyiga qo‘yilmog‘i lozim. Kulolchilik ustaxonasida bevosita talabaning foydalanadigan maydoni 50-55 m2 bo‘lsa, har bir talabaning ish o‘rni bir-biridan 60 sm, qatorlar orasi 1 m dan uzoqlikda bo‘lsa, harakatlanish qulay bo‘ladi. Ustaxonaga tabiiy yorug‘lik tushishini ta’minlash, buning iloji bo‘lmasa, kunduzgi yorug‘lik lampalari bilan ta’minlash kerak. Kulolchilik asarini yasash uchun talabadan mohir musavvirlikni, naqqoshlikni, haykaltaroshlikni talab etadi. Har bir asbob-uskunani yoki dastgohni, elektropechni, xumdonlarni ishlatishning qonun-qoidalari mavjud. Talabaning bu texnologiya bilan tanishmagani turli baxtsiz hodisalarni keltirib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ishlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Xumdonda sopol buyumlar pishirishdan oldin xumdon atrofidagi buyumlar ko‘zdan kechiriladi. Yong‘indan saqlash choralari ko‘rib chiqiladi. Elektro isitgichlarda ishlaganda uni isitishdan oldin barcha simlar, uzellarning butunligi ko‘zdan kechiriladi. Agar ba’zi simlar izolyatsiyasi ochilib qolgan bo‘lsa, elektropechlarni ishlatishga ruxsat etilmaydi. Topilgan kamchiliklar tuzatilgandan so‘ng ishlashga ruxsat beriladi.

San’atshunoslar ijodkorlarga yo‘l ko‘rsatib berishi emas, ularning qilgan ishlarini ilmiy o‘rganishi kerak. Lekin yuqoridagiday holatlarda eski Chust pichog‘i namunalaridan, eski Namangan kulollari ishlari namunalaridan muzeylar yordamida topib ustalarni to‘g‘ri yo‘lga, yani bobolari san’atini davom ettirishga va takomillashtirish yo‘liga solib qo`yishi muhimdir. Bugun Farg‘ona vodiysida bir necha yetuk amaliy san’at vakillari yashab ijod qilishmoqda. Biroq ularga shogirdlar biriktirish masalasi hal qilinmagan. Agar qaysi bir yetuk san’atkorni olib ko‘rsak, xoh tasviriy san’at, yoki amaliy san’at sohasida bo‘lmasin, albatda mukammal bir ijodkorga shogird bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Farg’ona naqqoshlik maktabining uslubi tojik namunalariga o‘xshab ketadi. Naqsh

kompozitsaiyalarida ortiqcha shakl yasovchilarisiz zamin bo‘shliqlari islimiy gul, vaq, novda shakllari bilan mohirona to‘ldiriladi. Farg‘ona naqshlariga to‘qroq, qarama-qarshi ranglar jilvasi ulug‘vorlik bag‘ishlaydi. Farg‘ona naqqoshlik maktabi haqida gap ketganda, Qo‘qonlik naqqosh ustazodalar nomlarini faxr bilan tilga olish mumkin. Ular Norqo‘zi Nurmatov, Saidmahmud Norqo‘ziyev, Saidahmad Mahmudovlardir. Mustaqilligimizning ilk yillarida o‘zining 80 yoshlik to‘ylarini nishonlab, ‘‘O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi’’ unvonini olgan Saidahmad Mahmudovning ko‘plab shogirdlari bor. Shuningdek Farg‘ona naqqoshlik maktabi nomi bilan tilga olinadigan Xo‘jand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq, va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublarda ijod qilgan ustazoda Saidahmad Norqo‘ziyevni ham alohida ta’kidlash lozimdir. Bugungi kun yoshlari ularning ishlarini sadoqat, ixlos, mehr-muhabbat bilan organmoqdalar. Bu yo‘lda ularga bajonidil ustozlik qilib kelayotgan Namangan naqqoshlik maktabi asoschilaridan biri, xalq ustasi, yetuk mutaxassis rassom va naqqosh Asqarbek Akparov shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artikov G‘.A. “Materialshunoslik, rangtasvir texnika va texnologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. – T.: “INFO CFPITAL GROUP” 2018-yil.

2. Artiqov G.A. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi”, O‘quv qo‘llanma. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2007.

3. Artiqov G‘.A. “Rangtasvir texnikasi va ashyolar texnologiyasi”, O‘quv qo‘llanma. –T.: Sharq, 2007 y. 72 b. 4 nusxa.

4. O‘zbekiston san’ati. –T.: Sharq, 2001.

5. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T., 1991

6. Mirzahamdamovna, K. B., Erkinovna, A. N., & Jumadillaevich, S. R. (2021). Use of innovative educational technologies in fine arts classes of higher education institutions.

7. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). Fundamentals of professionalism development on the example of practical exercises on forming the skills and skills of future teachers. PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(6), 8894-8903.

8. Barchinoy, K., Sevarakhon, S., & Mukhammadkodir, Y. (2021). Effective methods of teaching fine arts and drawing at school.

10. Barchinoy, K. (2019). Problems of Improving Artistic Perception of Future Art Teachers. Cross-Cultural Communication, 15(4), 79-82.

11. Qurbonova, B. (2021). The history of visual art and it’s importance in people life. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(2), 1558-1561.

O‘ral XUSHVAQTOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, “Fizika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

“QATTIQ JISMLAR FIZIKASI”NI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi Fizika kursining “Qattiq jismlar fizikasi”ga oid mavzularni o‘qitish usullari o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muayyan maqsadlarga erishish yo‘lidagi faoliyatidan tarkib topgan pedagogik jarayonni muvofiqlashtiruvchi subyekt bo‘lib, “nimani?”, “kimga?”, “qanday?” va “qancha?” o‘rgatish zarurligi haqidagi masalalarni yechib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Maktab, qattaq jismlar fizikasi, ijodiy faoliyat, ruhiyat, kreativ, iste’dod. kreativ kompetentlik.

Методика преподавания тем, связанных с ‘‘Физикой твердого тела’’ общеобразовательного курса физики средней школы, является предметом координации педагогического процесса, состоящего из деятельности учителя с учащимися по достижению определенных целей ‘‘что?’’, ‘‘кому?’’, ‘‘как?’’ и ‘‘сколько?’’ служит для решения вопросов о необходимости обучения.

Ключевые слова. Школа, физика твердого тела, творческая деятельность, психика, творчество, талант. творческая компетентность.

The methodology for teaching topics related to “Physics of the Solid State” of the general education course in physics of a secondary school is the subject of coordination of the pedagogical process, which consists of the activities of the teacher with students to achieve certain goals “what?”, “to whom?”, “how?” and how many?” serves to address questions about the need for training.

Key words. School, solid state physics, creative activity, psyche, creativity, talent, creative competence.

Yosh avlodni yetuk, barkamol va intellektual darajasini yuqori qilib, ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi, strategik vazifalar belgilab berildi, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish hamma zamonlarda ham e’tiborli va dolzarb vazifa bo‘lib kelgan. Shu bilan birga mazkur vazifa keng ko‘lamliligi murakkab hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish pedagogikaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Har tomonlama barkamol rivojlangan, faol, o‘z oldida turgan vazifalarni ijodiy hal qilishga qodir va butun kuchini ishlashga sarflaydigan insonlarni tarbiyalash bizning asosiy vazifalarimizga kiradi. Bu vazifani hal qilishda ijodiy faoliyat poydevoriga asos solishda dars mashg‘ulotlarining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning davrimizda kreativ kompetentlikni rivojlantirish muammosi, aniqroq qilib aytganda, uni erta uyg‘otish va rivojlantirish dolzarb bo‘lib, bu boradagi ishlar esa amaliy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish kerak. Bunda o‘quvchilarga qattiq jismlarning dastlabki tushunchalarini boshlang‘ich sinflarda miyasiga singdirish mumkin. Misol uchun, sinfxonada parta, stul, doska, pol va hokazolarni tushuntirish mumkin. Tajribada esa materiallarni cho‘zilishini tekshirish metodi keng tarqalgan. Bu tajribani har qanday holatda tekshirib ko‘rish va xulosa chiqirish imkoni bo‘ladi. Masalan, pulning rezinasi,

qizlarimizning sochini yig‘ib qo‘yadigan rezina, prujina va hokazolarning cho‘zilishi va aksincha sim, novda va boshqa qattiq jismlarning cho‘zilmasligini tekshirish mumkin.

Kreativ kompetentlik tushunchasi va tuzilishi haqida quyidagi pedagoglar ishlarida ko‘rib chiqiladi. Bular: I.S. Bekesheva, I.E. Buryakova, Y.F. Varlamova, R.U. Davletova, M.M. Kashapov, S.M. Ovcharov, O.F. Chuprova, A.G. Shumovskaya va hokazo.

I.YE. Bryakovaning tadqiqotida kreativ kompetentlik – bu shaxsiy xususiyat yoki muammolarni hal qilish natijalariga ta’sir qiluvchi ko‘p qirrali mahorat. Shu bilan birga, muallif “kreativ kompetentlik” va “kreativ kompetensiya” tushunchalarini farqlaydi. Kreativ kompetentlikdan farqli o‘laroq, kreativ kompetensiya insonning ijodiy vazifalarni hal qilish uchun o‘z qobiliyatlarini safarbar qilish qobiliyatini anglatadi va ijodiy kompetentlikning tarkibiy qismidir.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning rivojlanishida bozor mexanizmlarining shakllanishi va nisbatan barqarorlashuvi ta’limning barcha darajalarida, shu jumladan, fizika fanini va shu bilan birgalikda turmushda, texnikada hamda mikroelektronikada ko‘p ishlatiladigan “Qattiq jismlar fizikasi”ga oid mavzularni chuqurroq o‘rganishning ahamiyati va zarurligiga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa bozor talablari asosida (texnikada ayniqsa bugungi kunda elektromobil, elektrobus, elektr texnikalarni ishlashida muhim sohalardan biri sanaladi) shu bois, fizika ta’limini rivojlantirishi hamda ta’lim sifatining oshishida o‘z samarasini beradi. Masalan, Superkondensatorlar va qayta zaryadlanuvchi batareyalar elektr transport vositalarining (ETV) harakatga kelishida ikkita eng muhim elementidir. Bir tomondan, qayta zaryadlanuvchi batareya ETV bir zaryad bilan bosib o‘tadigan masofa uchun javobgardir. Bu masofa hozirda 350 km dan 1000 km gacha o‘zgarib turadi. Superkondensator esa (1) to‘xtash joyidan boshlanganda va (2) harakatlanayotgan avtomobil tezligini keskin oshirganda ETV tez tezlashishi uchun zarur dinamikani ta’minlaydi. Ikkala holatda ham elektr motori nominalga qaraganda ancha ko‘p oqim oladi, bu faqat superkondensator tomonidan bir necha soniya davomida maksimal 15 soniyagacha ta’minlanishi mumkin. Ushbu ikkita funksiyadan birini bajargandan so‘ng, superkondensator elektron tizimlarni kuzatish orqali avtomatik ravishda nominal batareya zaryadiga qadar qayta zaryadlanadi. Kuchli superkondensatorlarning parametrlari ETV ishlab chiqaruvchilarining talablariga qarab keng diapazonda o‘zgaradi. “Har bir o‘qituvchi o‘z amaliyotida ertami-kechmi ba’zi talabalarlar uchun mavzu bo‘yicha ta’lim motivatsiyasi yo‘qligi muammosiga duch keladi. Bu tabiiydir-inson bir vaqtning o‘zida hamma narsaga ulgurmaydi”. Motivatsiya, o‘quvchining hatti-harakati yo‘nalishini, o‘z maqsadiga erishish uchun amalga oshirilgan harakatlarni tushuntiradi. Shu bilan birga kreativ kompetentlikning shakllanishi va rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda fizika kursining “Qattiq jismlar fizikasi”ga oid mazularni o‘qitish jarayonida ta’lim sifatini oshirish o‘quvchilar qo‘yayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kelajakda Oliy talim muassasalarida o‘qishi va fan-texnika sohasida qo‘llab asosiy vazifasi o‘z sohasida hamda mehnat bozorida o‘z yo‘lini oson topib olishi uchun krayetiv kompetentlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim sohasini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy investitsiyalar keng jalb qilingan holda xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqalar ta’lim tizimini yanada rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Qittiq jismlar fizikasiga oid granlar, Ta’lim muassasalarining maqsad va vazifalari zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda qayta ko‘rib chiqilmoqda. Ayniqsa, zamon talablaridan kelib chaqqan halda Fizika fani bo‘yicha qabul qilingan qator hujjatlar ijrosini ta’minlash ishlari amalga oshirilmoqda. Qattiq jismlarsiz turmush, texnika va mikroelektronika va

boshqa sohalarni tusavvur qilib bo‘lmaydi.

Hozirga kunda o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi murakkab tadrijiy rivojlanish yo‘liga ega bo‘lib, har bir o‘quvchi ruhiyati o‘ziga xos bo‘lgan murakkab konfiguratsiyasi bo‘ladi, shu bilan birga unga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’siri ham juda xilma-xil bo‘ladi. Bu murakkab jarayonni to‘liq o‘rganib chiqish uchun ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi.

Xususan, bolaning 2-6 yoshlar orasidagi davrida 80 foizgacha o‘quvchi xususiyatlari shakllanishi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Bu davrda qattiq jismga oid tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, yosh bolaga qattiq narsalarni va yumshoq narsalar haqidagi dastlabki tushunchalarni oilada oladi. biror qattiq narsani qo‘li bilan urganda og‘riydi keyingi marta u narsani qo‘li bilan qattiq urmaydi, ya’ni qattiq ekanligi haqida tushuncha paydo bo‘ladi. O‘quvchining xususiyatlari shakllanishida ilk tajriba muhim hisoblanadi. Qattiq jismlar fizikasi tushunchalarini shakllantirishda qattiq jism turlari, deformatsiya va uning turlari, mustahkamlik va hakazolar haqida o‘rgatilishi kerak. Demak, bu davrning muhimligini hisobga olib, o‘quvchida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish yo‘llarini qidirishimiz kerak bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishni quyidagi tartibda ko‘rishimiz mumkin:

1. Fizika fanida fizik hodisalar, fizik jismlar, harakatlar va qonunlarni o‘rganish. O‘rganish jarayonida o‘quvchilardagi fizik tushunchalar, fizik qonunlar, fizik hodisalar va ularning vujudga kelishi shakllana boshlaydi va kreativ kompetentligining dastlabki kurtaklarini amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

2. Qattiq jismlar fizikasiga oid mavzularni o‘qitishda qattiq jismlarning tuzilishi, qattiq jism turlari, qattiq jismlarning mexanik xossalari, Guk qonuni va deformatsiya va uning turlari hamda deformatsiyalanish sabablarini o‘rgatish. Deformatsiya va Elastiklik kuchining paydo bo‘lish sabablari haqida ham tushunchalar berilishi o‘quvchilar qattiq jismlarning xususiyatlarni ham o‘rganadi. Shu bilan birga o‘qitish jarayonida o‘quvchilardagi qattiq jismlar fizikasi tushunchalar shakllanishiga va kreativ kompetentligining dastlabki kurtaklarini amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

“Qattiq jismlar fizikasi”ga oid mavzularni o‘qitish va o‘rganish hamda ijod qilish jarayonida o‘quvchilarni muvaffaqiyatli shug‘ullanishlarini ta’minlash va ular orqali samarali natijalarni qo‘lga kiritish uchun televizor tomosha qilish va kompyuter o‘yinlari o‘ynashni aniq reja asosida shug‘illanishini ta’minlash kerak bo‘ladi. Qattiq jismlar fizikasiga oid murakkab bo‘lmagan, masalan, pol qoqilgandan so‘ng ma’lum vaqtdan keyin uning shakli o‘zgarishi, prujina yoki rezina nima uchun cho‘zilishini o‘rganib kelishni topshiriq berilsa, bu o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirmaydi hamda nostandart test topshiriqlarini berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, bunday vositalar vaqtini behuda o‘tkazish va ishyoqmaslikka ma’lum darajada moyil bo‘lgan o‘quvchi ruhiyatini, aqliy faollik (aqliy mehnat) va irodaviy zo‘r berish bilan kechadigan yuqoridagi faoliyatlardan chetlanishining oldini olib o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishi ortishi hamda ixtirochilik qobiliyatining shakllarini yuzaga chiqaradi.

Ko‘p hollarda o‘quvchilarning noan’anaviy, yangicha (nostandart) yondoshilgan ishini ko‘rgan o‘quvchi buni faqat o‘ta qobiliyatli yoki iste’dodli shaxsgina bajara olishi mumkinligi haqida o‘ylaydi. (Misol) Qattiq jismlar fizikasi bo‘yicha Nobel mokofoti louriyatlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Holbuki, insoniyatni hayratga soluvchi bunday ishlarni hamma ham bajara olishi mumkin. O‘quvchilarda layoqat, iste’dod, kreativlik har qancha hayratomuz bo‘lmasin, ta’lim-tarbiyadan tashqaridagi faoliyatda kamol topa olmaydi. Kreativlikni rivojlantirishning eng unumli yo‘llaridan biri barcha o‘quvchilarni

boshlang‘ich sinfdanoq ijod haqida tushuncha berib, ijodga va fanlarni demostratsiya va vertual hamda kasbga o‘rgatish bilan mashg‘ul bo‘lishga jalb etish, darslarni ijodiy va ixtirochilikka yo‘naltirilgan tarzda tashkil qilish, turli xil noan’anaviy dars usullaridan keng foydalanishdir.

Kreativlik-ijodiy tafakkur va tasavvurni rivojlantirish, vazifalarni ijodiy bajarishga yo‘naltirilgan aqliy qobiliyatdir. Qobiliyatni rivojlantirish ma’lum bir o‘quvchida insoniyatning moddiy va ma’naviy boyliklari, bilimlarining tarixiy rivojlanishi natijasida to‘plangan tajribasini egallashi hamda bugungi kun rivojlanishi bilan ham nafas bo‘lmog‘i kerak. Shu sababli o‘quvchilarga qattiq jismlar fizikasiga oid mavzusini o‘qitishda qattiq jismlarning turlari o‘tilgandan keyin keramik qattiq jismlarga misol sifatida Superkondensatorlar, uning tuzulishi va ishlash prinsipi haqida ma’lumotlar yoritib beriladi. Uning xarakteristikalari kichik va o‘rta quvvatga ega (30 dan 80 kw gacha) ETV uchun superkondansatorlar mos ravishda sig‘imi 25 dan 70-80 *F* gacha bo‘lishi samaradorligi yuqoriligidan dalolat beradi. “Kuchliroq ETVlar uchun quvvati 80 kW dan yuqori va sig‘imi 150-200 *F* gacha yetadi. Turli xil avtomobil markalari turli ish kuchlanishlaridan foydalanadi: 48 *V*, 96 *V* va 120 *V* eng ko‘p ishlatiladi. Shuningdek, o‘ziga xos parametrlar, masalan: o‘ziga xos quvvat [W/kg], o‘ziga xos energiya [W/kg], energiya zichligi [W/m^3] va ekvivalent seriyali qarshilik [mW]”.

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

O‘quvchilardagi kreativ kompetentlik ko‘p qirrali bo‘lib, boshqalarni jalb qiladigan, o‘zini barkamol inson, deb his qiladigan bo‘lmog‘i kerak. Ijodiy faoliyatni o‘rgatish jarayoni shunday bo‘lishi kerakki, har bir o‘quvchi qobiliyatini namoyon qilishi va uning majmualarini rivojlantirishi, o‘z-o‘zini bilishga o‘rganish, ma’lum darajada tafakkuri, fantaziyasi hamda tasavvur qilishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lmog‘i lozim.

O‘quvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish haqida gapirilganda, ijodda ‘‘tasavvur qilish’’, ‘‘fantaziya’’ va ‘‘orzu’’ muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda uning asosiy qismlaridan biri hisoblanishini unutmaslik kerak. Ijod tasavvur qilish faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Tasavvursiz inson deyarli ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana olmaydi, u faqat borliqning zaif nusxasini yarata olishi mumkin. Tasavvur qilish bu o‘zi ega bo‘lgan tajriba asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat murakkab ruhiy jarayondir. Tegishli suyuqlik porsiyalarini taqqoslash uchun kerak bo‘ladigan ikkita stakan taroziga qo‘yib muvozanatlashtiriladi. Shtativga mahkamlangan prujinaga pallacha osiladi, bu pallachaning tagiga ixtiyoriy shakldagi jism (yuk) ip bilan bog‘lanadi.

— Prujina nima ta’siridan chuziladi? Prujina jism bilan pallachaning og‘irligi ta’siridan cho‘ziladi. — Prujina qanday vaziyatgacha cho‘zilganini belgilab qo‘yamiz. Jismning tagiga jumrakli stakan qo‘yib, unga to‘lguncha suv quyamiz. Boshqa suyuqlik bilan ham tajriba o‘tkazib ko‘rish mumkin, ammo bu bilan xulosalarning ma’nosi o‘zgarmaydi. Jumrakli stakanning jumragi tagiga tarozidan olingan stakanlardan birini qo‘yamiz. Jismni suvga butunlay botiramiz. Prujina nima qildi? Nima uchun? (Prujina siqildi, chunki prujina elastik bo‘lganligi hamda jism suvga botirilganda unga suyuklik tomonidan yuqoriga tik yo‘nalgan itarib chiqaruvchi kuch ta’sir qila boshladi.)

— Prujinani oldingi pastki vaziyatiga kelguncha qo‘l bilan cho‘zamiz. Bunda ta’sir qiluvchi kuchlar to‘g‘risida nima deyish mumkin? Ularning bir-biriga munosabati qanday? (Prujinaga ta’sir qilayotgan qo‘l kuchi, elastiklik kuchi va itarib chiqaruvchi kuchga teng.)

— Qo‘limizni olamiz. Pallachaga prujina oldingi vaziyatiga kelguncha suv quyamiz.

quyilgan suvning og‘irligi bilan itarib chiqaruvchi kuch to‘g‘risida nima deyish mumkin?

(Itarib, chiqaruvchi kuch pallachaga qo‘yilgan suv og‘irligiga teng.)

O‘quvchilarda kreativ kompetentliginiing muvaffaqiyatli rivojlantirishni faqat ma’lum sharoitni yaratish hamda uni qulay shakllantirish bilan amalga oshirish mumkin. Ijodni rivojlantirishning biri o‘quvchining o‘z-o‘zini yuqori baholash, ya’ni unda o‘z kuchi va aqliy imkoniyatlariga yetarli darajada ishonch uyg‘otishdir. O‘quvchi “omad lazzati” ni bilishi kerak. O‘quvchining omadi uning ishining yakuni bo‘lishi kerak emas, balki boshlanishi bo‘lmog‘i darkor. O‘quvchining qobiliyatini rivojlantirishning ikkinchi sharti munosib psixologik iqlimni yaratish hisoblanadi. Aynan o‘qituvchi o‘quvchini birinchi kunlardan boshlab maktabda uning kreativ kompetentligini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun mukofotlashi va rag‘batlantirishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy taffakkur – maktab o‘quvchilarini psixik faollik, mustaqillik yangi, original yaratishdir. Ijod fan va texnikada kashfiyotni, insoniyat sivilizatsiyasining barcha ixtirolarini, insonlarning hayot shaklini hamda inson ijodiy faoliyatining natijasini belgilab berdi. Hozirgi zamonaviy maktablarning talabi nafaqat bilim berish, balki amaliy ishlarda o‘quvchini muammoni qo‘yish qobiliyati va uni hal qilish yo‘llari hamda yangi ijodiy faoliyatni mustaqil izlashga o‘rgatishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari fizika kursining “Qattiq jismlar fizika”ga oid mavzularni o‘qitishda aralash dars, amaliy mashg‘ulaot, laboratoriya (vertual) hamda ijod qilish (kashfiyot va ixtiro)ga o‘rgatish o‘quvchilarda kreativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillardan biri sanaladi. Kuzatish olib borish, muammoli vaziyatlarni yaratish va ta’lim oluvchilarning mustaqilligini ta’minlash, ularni o‘z fikrlarini erkin bayon etish, rag‘batlantirish ularda nafaqat kreativ kompetentlikni shakllantiradi, balki fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, uni mustahkamlaydi hamda rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kretivlik asoslari/O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan, 2021. – 135-b.

2. Xushvaqtov O‘ral Norqobilovich, “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi ko‘p tarmoqli, xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. T.,-2022. 863-866 bet.

3. Qalandarov E.Q., Xushvaqtov O‘.N. – “Qattiq jismlar fizikasini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish” Mug‘allim həm uzluksiz bilimlendirio Ilmiy-metodologыq jurnal № 3 2018 jыl. ISSN 2181-7138 – 123-128 b.

4. Prof. Luben Lakov, Assoc. Prof. Petyo Ivanov, Assist. Prof. Mihaela Alexandrova, Assist. Prof. Veselin Petkov. International journal for science, technics and innovations for the industry “MACHINES TECHNOLOGIES MATERIALS” ISSN PRINT 1313-0226 ISSN WEB 1314-507X. Issue 12/2019. Pags. 564-566.

5. Muravev A.V., Fizika o‘qitish va o‘quvchilarni aktivlashtirish/O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. “O‘qituvchi nashriyoti” – T., 1967. 45-58 b.

Oygul Berdiyeva,
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, “Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O‘QUVCHILARGA GEOMETRIYA FANIDAGI TUSHUNCHALARNI KENGAYTIRISH HAMDA MAVZULAR UZVIYLIGI VA UZLUKSIZLIGINI SINFLAR KESIMIDA TA’MINLASH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarga geometriya fanidagi tushunchalarni kengaytirish hamda mavzular uzviyligi va uzluksizligini sinflar kesimida ta’minlash masalalari bayon etilgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, turmushda qo‘llanadigan va matematika fanining keyingi rivojini aks ettiradigan ayrim mavzularni o‘qitish orqali o‘qituvchining o‘qitish metodologiyasini yangilash va o‘qitish sifatini oshirishga oid nazariy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Geometriya, uzviylik, uzuluksizlik, nuqta, kesma, masofa, qisqa yo‘l, ikki nuqta orasidagi masofa, noyevklid geometriya.

В статье рассмотрены вопросы расширения представлений учащихся по геометрии и обеспечения согласованности и преемственности тем в разрезе занятий. Кроме того, представлены теоретические идеи, связанные с формированием у учащихся практических навыков, обновлением педагогической методики преподавания и повышением качества образования путем преподавания некоторых тем, которые используются в жизни и отражают дальнейшее развитие математической науки.

Ключевые слова. Геометрия, непрерывность, пересечение, сечение, расстояние, короткий путь, расстояние между двумя пересечениями, неевклидова геометрия.

The article describes the issues of expanding students’ concepts in geometry and ensuring the coherence and continuity of topics in the cross-section of classes. In addition, theoretical ideas related to the formation of practical skills in students, updating the teacher’s teaching methodology and improving the quality of teaching by teaching some topics that are used in life and reflect the further development of mathematics science are presented.


Key words. Geometry, continuity, intersection, section, distance, short path, distance between two intersections, non-Euclidean geometry.

Maktab o‘quv dasturlariga yangi innovatsion g‘oyalarning kirib kelishi o‘quvchilarga bilim berishda zamonaviy usullar xilma-xilligi bilan birga yangi fikr va yangicha qarashlarni ham kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ba’zi bir texnologiyalar (o‘qitish usullari) o‘quvchida o‘tilayotgan mavzuni oddiy o‘yinlar orqali berilishiga asoslangan.

Masalan: “Ishbilarmonlar”, “Kim ko‘p biladi?”, “Tovush chiqarmasdan topish”, “Besh daqiqa”, “Aylana”, “Har kim har kimga o‘rgatadi”, “Sherigingni top” o‘yinlari orqali o‘tilgan darslar mustahkamlanadi.

Bu mavzuda biz boshlang‘ich sinflardan o‘quvchiga ba’zi matematik tushunchalarni o‘yin tarzida kiritish usuli haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Matematikada ikki nuqta orasidagi masofa tushunchasi mavjud. Bu tushuncha quyidagicha ta’riflanadi.



Ta’rif: Ikki nuqta orasidagi masofa, deb shu nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlar uzunligining eng kichigiga aytiladi.

Bu ta’rifni quyidagi rasm orqali tushuntirsa bo‘ladi. Albatta ko‘rsatilgan turli xil yo‘llar ichida eng qisqasi shu ikki nuqtaga tarang tortilgan ipning uzunligi bo‘ladi. Shuning uchun ham geometriya fanida ikki nuqta orasidagi masofa, uchlari shu nuqtalarda bo‘lgan kesma uzunligi sifatida olinadi.

Xo‘sh, bu masofa tushunchasini maktabgacha bo‘lgan ta’lim jarayonida bolalarga tushuntirish mumkinmi? Agar tushuntirish mumkin bo‘lsa, uni qanday usulda olib borish kerak?

Maqsadimiz ushbu maqola davomida mana shu savollarga ijobiy baho berishdir.




Murg‘ak tasavvurga ega bo‘lgan yosh bolalar hali sonlar va kattaliklar haqida hech qanday tushunchaga ega bo‘lmasa ham “uzun”, “qisqa” – kabi tushunchalarni qabul qilishi va undan amalda foydalanishi mumkin.

Eng sodda misol. A – bolaning bo‘yi uzunmi? B – bolaning bo‘yimi?

Bu savolga javob topishning eng qulay usuli ularni bir-biriga orqama-orqa qo‘yib bo‘ylari solishtiriladi.

Shu yo‘l bilan “uzun”, “qisqa” – tushunchalarini bolalarga singdirish mumkin. Shu kabi “yo‘g‘on”, “ingichka” – so‘zlarni tushuntirishda ham “uzun”, “qisqa” tushunchalaridan foydalanish mumkin. Masalan, ikkita bir-biriga o‘xshash daraxtlarni tanlab, ulardan qaysi biri “yo‘g‘onroq”, – degan masalani qo‘yamiz.



Bunda daraxtlarga ip bir aylana tashkil qiladigan qilib o‘raladi. So‘ngra bu aylanalar uzunliklari solishtiriladi. Bu masalani hal qilishda daraxtga o‘ralgan aylanalarning yerdan qancha balandlikda ekani ham katta ahamiyatga ega. Demak, balandliklar


ikkala aylana uchun bir xil kattalikdan tanlanishi va uni xulosa qilishdagi o‘rnini ham aniq misollar bilan tushuntirish zarur bo‘ladi. Bunga bolalarning e’tiborini qaratish esa, inson xulosa qilishi uchun barcha hollarni hisobga olish zarur ekanligi haqidagi ko‘nikmani shakllantiradi.

‘‘Uzun’’, ‘‘qisqa’’ tushunchalarni bolalarga singdirishda quyidagi o‘yinning ahamiyati katta bo‘ladi. Bu o‘yinni xonada tashkil qilish uchun taxminan xona perimetri uzunligiga teng uzunlikdagi ikkita har xil rangli ip (arqon) bo‘laklari zarur bo‘ladi. Xonani shunday tanlash zarurki, unda mebellar yoki yurish uchun to‘sqinlik qiladigan jihozlar mavjud bo‘lsin. Agar xonada hech qanday erkin yurishga to‘sqinlik qiladigan jihozlar bo‘lmasa, bunday to‘siqlarni guruh qatnashchilari yordamida hosil qilish mumkin. So‘ngra xonada uchta obyekt – A, B, C lar tanlanadi va A dan B gacha hamda A dan C gacha masofalar solishtiriladi.

Bu masofani o‘lchayotgan bolalar arqonlarning bir uchini A – nuqtaga qo‘yib, ularni tortish yo‘li bilan birini B – nuqtaga, ikkinchisini C – nuqtagacha cho‘zib borishi zarur. Aytilgan nuqtalarga yetgandan keyin, hosil bo‘lgan uzunliklar solishtiriladi va xulosa qilinadi. Bu holda A, B, C – obyektlar sifatida bolalar ham olinishi mumkin. Shuningdek, to‘siqlar shunday qo‘yilishi zarurki, o‘lchayotgan bola bu to‘siqlarni aylanib o‘tishga majbur bo‘lsin. Bunda to‘siqni qaysi tomonidan aylanib o‘tish ham o‘lchovga o‘z ta’sirini ko‘rsatishiga ahamiyat berish zarur.



Ushbu topshiriqni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda yukoridagi rasmda berilgan ko‘rinishda turli qiziqarli ertak yoki hikoya orqali ham tushuntirish mumkin. Bu mashg‘ulotni bolalar bilan ochiq havoda, bog‘cha hovlisida ham tashkil etilsa, yanada qiziqarliroq va bolalar uchun dastlabki geometrik tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Yosh bolalar geometriyani o‘z o‘yinlari orqali bajarish jarayonida tasavvurlari rivojlanadi. Biz barchamiz bu usullar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning geometrik elementlari, ya’ni dizayn elementlari, dizaynni chizish va yaratishni, ko‘rgan shakllarini tanib olish, taqqoslash va nomlashdan xursand bo‘lishlarini ko‘rishimiz mumkin. Geometriya – bu bolalar tasavvurining rivojlanishi uchun matematikaning eng tabiiy va qiziqarli sohalaridan biri!




Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinflarda “uzun”, “qisqa” tushunchasini

rivojlantirishda shaxmat doskasi va shaxmat figuralaridan ham foydalanish mumkin. Albatta, bu usulni faqat maktabgacha ta'lim muassasasining katta guruhlarida qo'llash mumkin. Bu usul nafaqat yuqorida aytilgan tushunchalarni, shuningdek, shaxmat haqidagi boshlang'ich tushunchalarni rivojlantirish imkonini ham beradi. Albatta bu usulni qo'llash uchun shaxmat o'yini doskasi va figuralari kerak bo'ladi.

Ma'lumki shaxmat doskasi 64 ta katakdan iborat va bu kataklar 8 ta harf va sakkizgacha bo'lgan raqamlar bilan boshlangan. Agar bolalar bundan bexabar bo'lsa, shaxmat doskasi bilan tanishtirish va undagi har bir figuraning qanday harakat qilishini o'rgatish ham bolalar uchun qiziqarli mashg'ulot bo'ladi deb hisoblaymiz.

Demak, mashg'ulot o'tayotgan guruh bolalari shaxmat doskasi va shaxmat figuralarining harakat qonuniyatlaridan xabardor bo'lishi kerak. Shaxmat doskasida A – katakdan B – katakgacha qisqa yo'l deganda, berilgan figura bilan bu figura yurish qoidasiga ko'ra A – katakdan B – katakgacha nechta yurish bilan yetib borishni tushunamiz. Bunda qaysi figurani tanlash katta ahamiyatga ega.

Masalan, bu imkoniyat farzin uchun yoki rux uchun bir-biridan juda katta farq qiladi.



Agar A va B – kataklar har xil bo'lsa, sipoh bilan bu kataklarning biridan ikkinchisiga borib bo'lmaydi. Bu esa bu kataklar orasida yo'l yo'qligini ko'rsatadi. Piyoda uchun esa faqat u sakkizinchi qatorga yetib ferzga aylangandan so'ng imkoniyat kattaligini hisobga olish zarur.


Bu o'yinni qanchalik qiziqarli bo'lishi tashkil qiluvchi tarbiyachi va o'qituvchining iqtidoriga bog'liq.

Maktab yoshidagi o'quvchilarga masofa tushunchasi 6-sinf matematika darsida Dekart koordinatalar sistemasi bilan tanishtirilib takomillashtiriladi[3]. Shuningdek, 8-sinf geometriya fanida "Tekislikda nuqtaning koordinatalari", "Ikki nuqta orasidagi masofa" mavzulari kengroq tushuntiriladi, ya'ni $A(x_1;y_1)$ va $B(x_2;y_2)$ nuqtalar orasidagi masofa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$AB=\sqrt{((x_2-x_1)^2+(y_2-y_1)^2} \quad (1)$$

Nuqtalar orasidagi masofa formulasi $x_1 \neq x_2$ va $y_1 \neq y_2$ hol uchun ham o'z kuchini saqlaydi. Haqiqatan ham, $x_1=x_2$ va $y_1 \neq y_2$ bo'lsa, $AB= \square y_2-y_1 \square$ (1) formula ham shu natijani beradi. $x_1 \neq x_2$ va $y_1 = y_2$ hol ham shunga o'xshash qaraladi. $x_1 =x_2$ va $y_1 =y_2$ holda A va B nuqtalar ustma-ust tushadi va (1) formula $AB=0$ nuqtani beradi.

Umuman aytganda, ikki nuqta orasidagi masofa shu ikki nuqtaga bog'liq bo'lgan kattalik. Zamonaviy geometriyalarda, ya'ni ''Evklid geometriyasi'' yoki maktab darsligida o'rganiladigan geometriya fanidan boshqacha, ''noevklid geometriyalar'' mavjud. Bu noyevklid geometriyalardan biri bo'lgan ''Galiley geometriyasi'' deb atalgan geometriya ham bor. Bu geometriyada ikki nuqta orasidagi masofa $d_1=AB=|x_2-x_1|$ formula bilan hisoblanadi.



Agar $x_1 = x_2$ bo‘lsa, $d_1 = 0$ bo‘ladi, masofa $d_2 = |y_2-y_1|$ tenglik bilan hisoblanadi.


Bu kiritilgan “masofa”ning asl ma’nosini tushuntirish uncha qiyin emas. Bu d_1 masofa, A B kesma haqiqiy uzunligining OX o‘qidagi proeksiyasi kattaligiga teng bo‘ladi. Agar $d_1 = 0$ bo‘lsa, nuqtalarning OX o‘qidagi proeksiyalari ustma-ust tushib qoladi. Nuqtalar OY o‘qga parallel to‘g‘ri chiziqda yotib, OY o‘qdagi proeksiyalari ustma-ust tushmasligi mumkin. Bunda aytilayotgan d_2- ikkinchi “masofa” nuqtalar orasidagi masofani beradi. Faqat keyingi kiritilgan “masofa” ham nolga teng bo‘lsa, bu ikki nuqta ustma-ust tushadi.

Masofaning bunday aniqlanishi yuqorida keltirilgan ta’rifga mos kelmaydi va geometriya fanidagi ikki nuqta orasidagi masofa tushunchasini umumlashtiradi, ya’ni haqiqiy hayotiy masofa tushunchasidan boshqa abstrakt ilmiy masofa tushunchasi mavjud ekanligi haqida tasavvur qilish imkonini beradi. Keltirilgan “masofa” tushunchasining hayotda tatbiqi sifatida akademik Shavkat Orifjonovich Alimovning bir misolini keltiramiz. Masalan, biz bir turar joylar joylashgan mavzening birinchi kvartali, birinchi uyi oldida turibmiz. Maqsadimiz uchinchi kvartaldagi beshinchi uyga borish. Avvalo manzilgacha ikki kvartal masofa bor, deb hisoblaymiz. Uchinchi kvartalga yetgan bo‘lsak, endi “masofa” beshinchi uygacha bo‘lgan masofaga teng bo‘ladi.

Masofaning bu usulda kiritilishining amaliy tatbiqi sifatida quyidagi to‘g‘ri chiziqli tekis harakat bilan bog‘liq mexanik masalani keltirish mumkin.

Buning uchun biz to‘g‘ri chiziqli trassada harakatlanayotgan transport vositalarining harakat qonuniyatini ko‘raylik.

To‘g‘ri chiziqli trassada harakat jarayonini kuzatuvchi turgan joyni O – koordinatalar boshi deb, harakatlanayotgan vosita joylashgan nuqtani y – bilan belgilaylik.



Agar A va B – harakat vositalari, ya’ni avtomobillar harakat boshida l_1, l_2 – nuqtalarda turgan bo‘lib, o‘zgarmas k_1 va k_2 – tezlik bilan harakatlangan bo‘lsin.


Agar tekislik Oxy – dekart koordinatalar sistemasini kiritib Ox – o‘qiga harakat vaqtini qo‘yamiz.

Bunda A – avtomobil harakati $y= k_1 x + l_1$ qonuniyat bilan ikkinchi B – nuqta $y= k_2$

x+ l_2 qonuniyat bilan harakatlanadi.

Harakatlanadigan moddiy nuqtalar A va V har xil vaqtda harakatlansa, ularning orasidagi masofa deganda, ular harakat vaqtining farqi $d_1 = |x_2-x_1|$ga teng bo‘ladi. Agar ular bir vaqtda harakatlanayotgan bo‘lsa, $d_2 = |y_2-y_1|$ - ular orasidagi trassasidagi masofani beradi.

Kiritilgan bu “masofa” – tushunchasidan foydalanib, tekislikdagi geometrik shakllarni xossalarini ham o‘rganish mumkin.



Masala: Uchburchak uchun uning bir tomoni uzunligi, boshqa ikki tomoni uzuligiga teng ekanini ko‘rsatang, ya’ni AC=AB+BC

Ushbu maqola orqali o‘quvchilarga geometriya fanidagi tushunchalarni kengaytirish hamda mavzular uzviyligi va uzluksizligini sinflar (o‘quvchilar yoshiga mos holda) kesimida ta’minlash nazarda tutilgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, turmushda qo‘llanadigan va matematika fanining keyingi rivojini aks ettiradigan ayrim mavzularni o‘qitish orqali o‘qituvchining o‘qitish metodologiyasini yangilash va o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Chunki hozirgi paytda ta’lim muassasalarimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning bosh maqsadi o‘quvchi maktabda egallagan bilimlarini shaxsiy faoliyatida qo‘llay olish kompetentligini shakllantirishdir. O‘quv dasturlarimiz asosida olib borilayotgan mashg‘ulotlarimizni yuqorida taklif etilgan metodika orqali tushuntirish o‘qituvchini yangiliklarni izlashga undasa, o‘quvchilarni mantiqiy hamda kreativ fikrlashlariga yordam beradi. Bu esa avvalo o‘quvchini shu fanga qiziqishining ortib borishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Artikbayev A. “Geometriya – qadimiy fanga zamonaviy nazar”. Fizika, matematika, informatika jurnali, 2004-yil 3-son.3-17-betlar.

2. Artikbayev A., Xatamov I. Tekislikda to‘qqiz geometriya. T.:-2021

3. Berdiyeva O.B. “Matematika darslarida matematik tushuncha va ta’riflarni o‘rgatish usullari”, “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnal, 2017-yil 6-son, 40–45-betlar.

4. Raximqoriyev A.A. va boshqalar. Geometriya 8-sinf uchun darslik. T.: - 2019-yil.

5. Яглом И.М. Принцип относительности Галилея и неевклидова геометрия М., Наука – 1969, - 304 стр.

Ilhom MADATOV,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali v.b dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MASOFALI O'QITISHNING NAZARIY VA DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish hamda o'quv kontentlari bilan ishlashda masofali o'qitishning muammo, kamchiliklari va yutuqlari haqida so'z yuritiladi. Shuhnigdek, masofali o'qitishning nazariy va didaktik asoslari bayon qilingan.

Kalit so'zlar. An'anaviy ta'lim, model, blended learning, aralash ta'lim, elektron ta'lim, online muloqot, virtual sinf, faol talaba, texnologiya, kompyuter.

В данной статье говорится о проблемах, недостатках и достижениях дистанционного обучения в организации самостоятельного обучения студентов и работы с содержанием обучения в кредитно-модульной системе обучения в высших учебных заведениях. Описаны теоретико-дидактические основы дистанционного образования.

Ключевые слова. Традиционное образование, модель, смешанное обучение, смешанное образование, электронное обучение, онлайн-общение, виртуальный класс, активный ученик, технология, компьютер.

This article deals with the problems, shortcomings and achievements of distance learning in the organization of self-study of students and work with the content of education in the credit-modular system of education in higher educational institutions. Theoretical and didactic foundations of distance education are described.

Key words. Traditional education, model, blended learning, mixed education, e-learning, online communication, virtual classroom, active student, technology, computer.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning 3-tashabbusi doirasi Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan, shuningdek, ularni axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish maqsadida respublika bo'yicha 102 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etildi.

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o'zgarmay kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi.

Endilikda esa ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim elementlari kirib keldi.

Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli – masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini

qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integrasiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o‘qitish barcha ta’lim olish istagi bo‘lganlarga o‘z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o‘qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o‘quv-uslubiy materiallarni o‘zlashtiradi, nazoratdan o‘tadi, o‘qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa ‘‘vertikal o‘quv guruhi’’ talabalari bilan muloqotda bo‘ladi.

Masofaviy o‘qitishda turli xil axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog‘liq. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o‘qitish vositalari (o‘quv qo‘llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma’lum vaqt orasida o‘zaro muloqotda bo‘lishga, elektron pochta to‘g‘ri va teskari aloqa o‘rnatishga, ya’ni xabarlarni jo‘natish va qabul qilishga mo‘ljallangan. Oldindan tasmaga muhrlangan videoma’ruzalar talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko‘rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o‘zaro teskari aloqa orqali o‘qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirib o‘tamiz.

Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovasion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikasiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikasiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuasidir.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy o‘qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar. Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

1. Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

2. Yetakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potensiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish.

3. Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo‘shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.

4. Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish.

5. Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish.

6. Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi prinsipal ta’lim darajasini ta’minlash.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Axborot kommunikasiya texnologiyalari ta’lim jarayonida (xususan, masofaviy ta’lim jarayonini) qo‘llash asosan ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi. Birinchi sharti, bu texnik jihozlar bo‘lsa, ikkinchisi, maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanganligidir.

1. Texnik jihozlar bilan ta’minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qo‘rilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari,video konferensiya jihozlari va hokazo.

2. Dasturiy ta’minotga: mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta’minotlardan tortib, shu soha uchun mo‘ljallangan dasturlar to‘plami kiradi.

So‘nggi yillarda G‘arbda ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llanilib kelinayotgan internet yoki Interanet tarmog‘i orqali elektron shakldagi ta’lim turi Elearning (elektron ta’lim) atamasi bilan kirib keldi.

Elektron ta’limi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta’limning turli ko‘rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. Elearning o‘z ichiga elektron o‘quv kontenetlarni bilim oluvchiga yetkazish usulidan kelib chiqqan holda guruhlarga ajratish mumkin. YUNESKO institutining 2000-yildagi tahliliy tadqiqot materiallarida (“Distance Education for the Information Society: Policies, Pedagogy and Professional Development”) keltirilgan masofali o‘qitish modellarini keltiramiz:

Birlamchi (Yagonalik) modeli. Ushbu model tashkiliy tuzilishiga ko‘ra, faqat masofali o‘qitishda va ‘‘masofali’’ talabalar bilan ishlash maqsadida tashkil etiladi. O‘kitish shunday amalga oshiriladiki, bunda ta’limning kunduzgi shakli zarur bo‘lmaydi. Barcha o‘qitish masofadan amalga oshiriladi. Ushbu modelda o‘qitishda xududiy markazlar bo‘lib, ularda talabalar o‘qituvchilardan maslahatlar olishi yoki yakuniy imtihon topshirishlari mumkin. Bunday oliygohlarda o‘qituvchilarga ham talabalarga ham o‘quv faoliyatining shakl va uslublarini tanlashda katta erkinlik beriladi. Vaqt va o‘quv jadvallariga qat’iy chegaralar qo‘yilmaydi. Bunday tamoyilda o‘qitish ochiq universitetlarda, masalan, Buyuk Britaniyaning ochiq universiteti (United Kingdom Open University – http:// www. open.ac.uk) da tashkil etilgan.

Ikkilamchi (Ikkilangan) modeli. Bunday tizimda oliygoh kunduzgi talabalarni ham, qisman kunduzgi va qisman masofali dastur asosida o‘qitadi. Har ikkalasida ham dars jadvallari, o‘qitish dasturlari, imtihonlari va baholash mezonlari bir xil bo‘ladi. Odatda ikkilangan modelni rivojlantirayotgan oliygoh kunduzgi talabalar soni masofali o‘qiyotgan talabalar sonidan katta bo‘lgan ana’naviy oliygohlardir. Shuning uchun bir universitetning o‘zida ikki shaklning birgaligida ko‘proq o‘zlarida katta o‘quv materiallaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan kunduzgi ta’lim olayotgan talabalar yutadilar. Bunday oliygohlarda masofali kurslar har doim ham foyda keltirmaydi, ba’zan u qisman kunduzgi talabalarni o‘qitish hisobidan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda asosiy urg‘u tajribaga, pedagogika va uslubiy innovasiyalar tadqiqotiga va boshqalarga beriladi. Masofali o‘qitishning bunday modeli Avstraliyaning Yangi Angliya universiteti (University of New England, Australia – http://www.une.edu.au) da tashkil etilgan.

Aralash model. Ushbu model universitet talabalarini masofali o‘qitishning turli shakllarini, aniqrog‘i shakllarning integrasiyasini nazarda tutadi. Masalan, kunduzgi shaklda o‘qiyotgan talabalar masofali o‘qitish kurslarining dasturlaridagilarni yoki ush-

bu universitetining o‘qituvchisi o‘qiyotgan kunduzgi kurslari bilan parallel ravishda qisman o‘qiydilar. Shuningdek, bu modelda an’anaviy kurslar doirasida virtual seminarlar, taqdimotlar, ma’ruzalar ko‘rinishidagi mashg‘ulotlar alohida shakllarining birlashmasi bo‘lishi mumkin. Universitet axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalari bilan qanchalik yuqori jihozlangan bo‘lsa, shunchalik o‘qitish shakllari turli-tuman bo‘ladi. Integrallashgan bunday kurslar Yangi Zelandiyadagi Massey universitetida (Massey University, New Zealand – http://www.massey.ac.nz) tashkil etilgan.

Konsorsium. Ushbu model ikki universitetni birlashmasidan iborat. Bunda ular o‘quv materiallari bilan almashadilar yoki ba’zi vazifalarni bo‘lishib oladilar. Masalan, bir universitet masofali o‘qitish uchun o‘quv materiallar ishlab chiqaradi, boshqasi virtual o‘quv guruhlarini o‘qituvchilar bilan ta’minlaydi yoki masofali o‘qitish dasturlarini rasmiy akkreditatsiyasini o‘tkazadi. Bunday hollarda universitet butunlay yoki uning alohida markazlari, fakultetlari, xatto ta’lim xizmati bozorida ishlayotgan tijorat yoki davlat tashkilotlari hamkor bo‘lishlari mumkin. Konsorsiumlar faqat markazlashgan boshqarish va yaratilayotgan ashyolarning mualliflik hamda material xuquqlarini rioya etish shartlaridagina samarali bo‘ladi. Kanadadagi ochiq o‘quv Agentligi (Open Learning Agency, Canada – http://www.ola.bc.ca) konsorsiumga misol bo‘lishi mumkin.

Franchayzing. Franchayzing tamoyilida tashkil etilgan masofali o‘qitish modelida hamkor universitetlar bir – birlariga o‘zlarining masofali kurslarini beradilar. Bunda ta’lim xizmati bozorida o‘zini ko‘rsatgan qandaydir universitet o‘zida ishlab chiqqan kurslarini masofali o‘qitishni endigina tashkil qilayotgan va masofali o‘qitish uchun o‘quv ashyolarini mustaqil ishlab chiqish tajribasiga ega bo‘lmagan boshqa oliygoh – hamkorlariga o‘qitish huquqini berishi mumkin. Bunday modelning qiziq tomoni shundaki, talabalar o‘zlarining universitetida o‘qishga yozilib, konsorsiumga kirgan ilg‘or oliygoh talabasi kabi o‘sha hajmda va o‘sha sifatda ta’lim xizmatlariga, o‘qishni bitirganlaridan keyin xatto diplomlariga ega bo‘ladilar. Bunda ilg‘or universitetning barcha atributlari o‘z kuchini saqlab qoladi. Franchayzing modeliga misol sifatida Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti qoshidagi Biznes Maktabi (Open University Business School, Great Britain) va uning Sharqiy Yevropadagi universitetlari bilan aloqasini olish mumkin.

Validasiya. Masofali o‘qitishning juda keng tarqalgan modeli bo‘lib, bunda ta’lim muassasalari masofali o‘qitish bo‘yicha xizmatlarni barcha hamkorlari teng darajada bajarishlari haqida kelishuv imzolab oladilar. Ularning biri diplom validasiyasi, kurs va dasturlarni akreditasiyasini qiladi, rasman tan olinadigan diplom va sertifikatlarni berishga mas’ul bo‘ladi, ilmiy darajalar beradi va xokazo. Bosh oliygoh (davlat akkreditasiyasiga ega bo‘lgan taniqli oliygoh) va uning hududlardagi ko‘p sonli filiallari orasidagi munosabatlar ham shu model asosida tashkil etiladi.

Uzoqlashtirilgan auditoriyalar. Bu modelda zamonaviy axborot texnologiyasi vositalari faol foydalaniladi. Qandaydir oliygohda o‘tkazilayotgan o‘quv kurslar, ma’ruzalar yoki seminarlar talabalar yig‘iladigan, uzoqlashtirilgan o‘quv auditoriyalarga sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman, radioeshittirish ko‘rinishida telekommunikasiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o‘qituvchi bir vaqtni o‘zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi. Ushbu model bo‘yicha AQSH ning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA) da, shuningdek, Xitoyning markaziy radio va televedeniye universiteti (China Central Radio and TV University) da masofali o‘qitish tashkil etilgan.

Loyihalar. Davlat ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida keng qamrovlik loyihani amalga oshirish uchun mo‘ljallangan masofali o‘qitish modelidan iborat. Ushbu modelda asosiy ahamiyat o‘quv materiallarini ishlab chiquvchi asosiy mutaxassis xo-

dimlar, masofali kurslarni olib boruvchi o‘qituvchilar va olimlar yig‘iladigan ilmiy-uslubiy markazga qaratiladi. Markazda ishlab chiqiladigan masofali kurslar u yoki bu davlat (xudud) ning katta auditoriyasiga uzatiladi. Bunday o‘qitish vaqtinchali hisoblanib, loyihada mo‘ljallangan ishlar bajarilgandan yoki tugagandan so‘ng tugatiladi. Bu modelga misol sifatida Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlarida turli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan qishloq xo‘jaligi, agrotexnikaning yangi uslublari, ekologiya bo‘yicha masofali o‘qitish kurslari olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Masofaviy ta’lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari elektron ta’limni tashkillashtirishning ko‘pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

• mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

• virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

• ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Hammamizga ma’lumki, har bir universitet yoki ta’lim muassasi o‘z ta’lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o‘zining virtual axborot ta’lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta’lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta’lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari, shuningdek, ta’limga yo‘naltirilgan fondlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotlar yaratilgan. Bu o‘quv modulimizda masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasining tahlili keltiriladi. O‘quv modulida keltirilgan dasturiy majumalar tahlili ko‘p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov M.X., Peregudov L.V., Tohirov 3.T. Oliy ta’lim (lug’at-ma’lumotnoma). —T.: “Moliya” nashriyoti, 2003, 456 b.

2. Madatov I.Y Talabalar mustaqil ta’limini samarali tashkil etishni blended learning texnologiyasi asosida takomillashtirish (pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi misolida). Dissertasiya avtoreferati. Samarqand – 2023 y.

3. Madatov I.Y. Mustaqil ta’limni blended learning texnologiyasi asosida tashkil etish. Integratıon of scıence, educatıon and practıce. scıentıfıc-methodıcal journal, -2022/6/23, b 126-131

link:https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=sZUQpYUAAAAJ&citation_for_view=sZUQpYUAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

4. Madatov I.Y. Elektron ta’lım texnologıyaları (blended learnıng), pedagogık mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, № 5, 58-61 b,

5. Madatov I.Y. Talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishda Blended learning texnologiyasidan foydalanish sinov-tajriba ishalari, FAN va JAMIYAT, Ilmiy-uslubiy jurnal Seriya: Pedagogika fanlari, № 3, 2021-yil,

Shoira KARIMOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

TALABALARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISHNING LOKAL-MODULLI TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Oliy ta’lim muassalarda mustaqil ishlarning asosiy maqsadi fasilitator-o‘qituvchi rahbarligida va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv materiallarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Maqolada bu mavzudagi ayrim qarashlar va yechimlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar. Fasilitator-o‘qituvchi, mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fanning ishchi dasturi, ixtiyoriy mustaqil ish.

Основной целью самостоятельной работы в высших учебных заведениях, является формирование и развитие знаний, навыков и умений, необходимых студенту для самостоятельного освоения определенных учебных материалов под руководством и наблюдением фасилитатора-преподавателя. В статье высказаны некоторые взгляды и решения по данной теме.

Ключевые слова. Фасилитатор-педагог, формирование навыков, самостоятельное мышление, рабочая программа науки, добровольная самостоятельная работа.

The main purpose of independent work in higher educational institutions is the formation and development of knowledge, skills and abilities necessary for a student to independently master certain educational materials under the guidance and supervision of a facilitator-teacher. The article expresses some views and solutions on this topic.

Key words. Facilitator-teacher, independent thinking, creative research, working program of science, voluntary independent work.

Uzluksiz ta’lim tizimida xususan, OTMlarda mustaqil ishlarning asosiy maqsadi fasilitator-o‘qituvchi rahbarligida va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv materiallarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Talabalarning bilim egallashini faollashtiradigan, barcha uchun qo‘lay bo‘lgan usul va vositalardan foydalanilgan holda pedagogik jarayonni tashkil qilish ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, ijodiy izlanishga yo‘naltiradi.

Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki, bilim oluvchilarni bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish oldida turgan muammo va masalalarning yechimini topish jarayonida shakllanadi. Ba’zi olimlar mustaqil ishlar deganda o‘qituvchining bevosita yordamisiz, ammo uning nazorati osida bajariladigan vazifalarni tushunishsa, boshqalari bilimlarni amaliyotda qo‘llashni talab qiladigan ishlar, deb bilishadi. Ta’kidlash joizki, mustaqil ishlar bilim oluvchilarning aqliy imkoniyatlarni namoyon qilishga imkon beradigan, ularning bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajaradigan vazifalari hisoblanib, bilim oluvchilarning nafaqat bilim darajalari, balki o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda

qo‘llay bilishlari hamda mustaqil mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli faoliyatdir. Zamonaviy ta’lim jarayonida mustaqil ishlar tasnifiga oid bir qancha qarashlar mavjud. Metodist olimlar guruhlarga ajratishda mustaqil ishlarning u yoki bu jihatlariga e’tibor qaratishadi.

Uzluksiz ta’lim tizimi jarayonida bilim oluvchilarni mustaqil fikrlashga, ongli faoliyat yuritishga o‘rgatish kelajakda ularning jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyoti uchun zarur, barkamol shaxs sifatida shakllanishida bosh omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimida mustaqil ishlarni tashkil etishning mazmunini ishlab chiqdik:

Oliy ta’lim	Talabalarga mustaqil ishlarga oid kasbiy sifatlarni takomillashtirish bo‘yicha yondashuvlar tavsiya etiladi, ularning mustaqil ishlari o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinib, baholanadi, tegishli tavsiya va xulosalar beraladi. O‘quvchilarning o‘ziga xos kasbiy sifatlari shakllantirishga alohida e’tibor beriladi. Bunda mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy layoqatning shakllantirilishiga alohida e’tibor beriladi.	Mutaxassislikka oid bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy layoqat shakllantiriladi.

Ma’lumki, ta’limni tashkil etish jarayoni juda murakkab bo‘lib, unga asosan ta’limning asosiy dars shaklidan tashqari o‘quvchining mustaqil ravishda bilimlarini o‘zlashtirishi katta ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, o‘qituvchi to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib, bilim olish jarayonini tezlashtirishga yordam bersa, bilim oluvchining mustaqil intilishi evazigagina bilimni mukammal o‘rganishi mumkin bo‘ladi.

O‘quv jarayonida bajariladigan mustaqil ishlarga asosan qo‘yidagilar kiradi:

– yozma va og‘zaki shaklda mashqlarni, uy vazifalarini bajarish;

– mustaqil mavzular bo‘yicha matnlar tuzish, o‘qib va so‘zlab berish, tahlil qilish;

– noma’lum matnlarni izohlash;

– dars vaqtida og‘zaki va yozma mashq bajarish;

– lingafon tizimi, video va kompyuter texnologiyalari yordamida ishlash;

– amaliy darslarda o‘quvchilarning bilim saviyasini aniqlash maqsadida o‘zaro suhbatlarni uyushtirish;

– yozma ishlar (OO‘Yu talabalari uchun referat, kurs va malakaviy-bitiruv ishlari) ni bajarish, nazorat savollari va testlarning javoblarini tayyorlash;

– maxsus adabiyotlar bilan ishlash (uzluksiz ravishda), takrorlash va boshqalar.

Oliy ta’lim amaliyotida fasilitatsiya ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabalar bilan o‘zaro munosabatda ularning o‘z fikrlari, munosabatlarini o‘qituvchining fikri, munosabatidan qat’iy nazar bildira olishlaridadir. Buni K. Rodjersning mulohazalari bilan ifodalaydigan bo‘lsak, “o‘rganishga o‘rgatish” demakdir. Oliy ta’lim tizimida talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda qo‘yidagi jihatlar e’tiborga olinishi lozim:

– muayyan fanning o‘ziga xos xususiyati va o‘zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;

– talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);

– fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;

– talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi;

– mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik dara-

jasi va b.

Talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga ongli, tizimli va ijodiy yondashishga shart-sharoitni ta'minlash kerak bo'ladi. Talabalarda mstaqil ishlarini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda ayrim shakllardan foydalanish mumkin. Yangicha yondashuv jarayonida bilim talabalarning o'z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo'ladi va xulq-atvor shaklining ham o'zgarishiga ta'sir qiladi. Mustaqil fikrlarni bildirar ekan, talaba ta'lim jarayonining faqat subyekti sifatida ham namoyon bo'ladi, ya'ni teng huquqli ta'lim dialogini vujudga keltiradi.

O'zlashtirishning keyingi darajalarida o'quvchilardan olgan bilimlarini amalga tatbiq etish, ma'lum natijalarini qo'lga kiritish, to'ldirish, boyitish, o'zgartirish, o'zining mustaqil nuqtayi nazariga ega bo'lish talab etiladi. Mazkur o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

Mashg'ulotni muammoli tarzda tashkil etish uchun birinchi galda talaba bahs-munozara yuritishga fikrlarini erkin bayon etishga, tanqidiy munosabat bildirishga tayyor bo'lishi lozim. Buning uchun quyiladigan muammolarga bog'liq bo'lgan tushunchalar yuzaga chiqariladi. So'ngra muammoga aniqlik kiritilib, ma'lum xulosalar chiqariladi. Bu jarayon fikr-mulohazalarda ifodalanadi. Ta'lim jarayoniga o'ziga xos psixologik jihatdan yondashuv talabalarni mustaqil fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga undaydi. Shu bilan birga, qo'yiladigan muammoni mustaqil ijodiy hal etish uchun sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika OTM talabalarida pedagogik komponentlardan biri, bu tadbirkorlik fazilatining ma'lum darajada yuqori bo'lishi taqozo qilinadi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarga ko'ra, bir nechta fanlarga oid bilimlarning integratsiyasi, o'zaro aloqadorligi va undan foydalanish metodikasini o'z ichiga oladi. Har bir talaba o'z imkoniyati, asosan bilimga bo'lgan intilishiga qarab o'zining bilimlar manbasiga ega bo'ladi. Bu bilimlar strukturasiga ko'ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik va pedagogik, falsafiy, fizik-matematik, iqtisodiy, amaliy va boshqa imkoniyati, asosan bilimga bo'lgan intilishiga qarab o'zining bilimlar manbaiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O'RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)
2. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway
3. Azizova Z.F. Qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish Avtoref. p.f.n – T.:2020-52b
4. Азаров Ю.П. Мастерство воспитателя. М.: "Просвешение",1971.-126 б
5. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003. -175-b.
6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. T.: "Fan va texnologiya". 2008. -132.b.
7. Saidqulov Sh. Uzluksiz pedagogik ta'lim va malaka oshirish muammolari. – Samarqand: SamDU, 1996.-76b

Shahzod MAVLONOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNI TABIIY-IQTISODIY MANBALARDAN OQILONA FOYDALANISHGA O‘RGATISHDA PEDAGOGIK TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy-iqtisodiy manbalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishning pedagogik ta’lim texnologiyalari haqida fikrlar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar. Tabiiy-iqtisodiy manbalar, texnologiya, ta’lim, zamonaviy, pedagogika.

В данной статье изложены идеи педагогических образовательных технологий обучения младших школьников рациональному использованию природно-экономических ресурсов.
Ключевые слова. Природно-экономические ресурсы, технологии, образование, современность, педагогика.

This article presents the ideas of pedagogical educational technologies for teaching younger schoolchildren the rational use of natural and economic resources.
Key words. Natural and economic resources, technologies, education, modernity, pedagogy.

Bugungi kunda ta’limga berilgan imkon, kelajakka berilgan imkoniyat tamoyillari asosida izchillik bilan davom etmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida ta’lim berish jarayonlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, raqobatbardosh kadrlar zaxirasini yaratish bugungi kunning bosh masalasi hisoblanadi. Eng birinchi navbatda, pedagogik ta’lim texnologiyalari nima ekanligi va uning mazmun mohiyati haqida tushunchalarga ega bo‘lishimiz kerak bo‘ladi. “Pedagogik texnologiya – bu ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi”[1]. Bir qancha olimlar qatorida Golbrayt ham ta’lim texnologiyalari haqida o‘zining qarashlarini bayon etgan. Ta’lim texnologiyasi bu ilmiy va boshqa bilimlarning amaliy masalalarni hal etishda tizimli ravishda qo‘llashdan iborat, degan iborasini zamonaviy texnologiyalar orqali chambarchas bog’liq ekanligini anglab yetishimiz mumkin bo‘ladi.

Boshlang’ich sinfda ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalar orqali o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish va o‘rgatishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ta’lim berish jarayonlarida pedagogik texnologiya tushunchasidan pedagogik amaliyotda faol foydalanilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, o‘rganilgan bilimlarni amalyotda qo‘llash orqali mustahkamlashdan iboratdir.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar, ta’limning innovatsion shakllari va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash kundan-kunga ortib bormoqda. Pedagogik ta’lim texnologiyalardan foydalanish esa, ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari mustahkamlash, qidirib topish, mustaqil o‘rganish, fikrlash, tahlil qilish, amalyotga

[1] https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Pedagogik_texnologiya&variant=uz-latn

qo‘llash orqali yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi.

Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik texnologiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan ‘‘Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va texnik resurslarni hamda ularning o‘zaro ta’sirini e’tiborga olgan holda, o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimiy uslubidir’’. Bundan ko‘rinib turibdiki, eng birinchi navbatda inson omili yordamida texnik resurslardan samarali foydalangan holda o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Boshlahg‘ich ta’limda o‘qitishning pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodlarini qo‘llashdan asosiy maqsad, o‘qituvchilar va o‘quvchilar faoliyati izchilligini ta`minlash, ta’lim samaradorligini oshirish hamda mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dars jarayonlarini tashkil qilishda ‘‘Pedagogik ta’lim texnologiyalari’’ ni dars mashg’ulotlarini o‘rganish bo‘yicha o‘qituvchilarning oldiga qo‘yilgan muammoni mustaqil yecha oladigan va amalyotga xizmat qiladigan interfaol metodlar ko‘zda tutiladi. O‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ta’limda zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. Zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakasini oshirishga imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi, uchinchidan, o‘rganilgan bilimlar mustahkamlanadi, amalyotga joriy qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Sifatli ta’limning kafolatlanganlik natijasi o‘quv jarayonidagi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim jarayonlarida natijadorlikka erishish uchun sifatli talimda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni qo‘llash yuqori samaradorlikka olib keladi. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini shakillantirish jarayonlarida tarbiya bilan birga hayotiy muhitga moslashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Tabiiy muhit bilan bilim ko‘nikmalar hosil qilayotgan o‘quvchi, albatda ijtimoiy muhitga ham moslashadi. Biz ilmiy bilmlar bilan bir qatorda hayot bilan bog’langan ilm fanni ham o‘quvchilarga boshlang’ich sinifligidanoq o‘rgatib borsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogik ta’lim texnologiyalarini dars jarayonlarida qo‘llash tahlil qilishga, individuallashtirishga, o‘quv jarayonining masofali va o‘zgaruvchanligiga, o‘quvchilarlarning harakatchanligiga qaratilgan. Ta’lim texnologiyasi – bu o‘quv jarayonini tashkil qilish, amalga oshirish, baholash, kuzatish va keyinchalik takrorlashning qo‘llanilishi maktab o‘quvchilarida tabiiy-iqtisodiy manbalardan oqilona foydalanishning mukammal tushunchalarini shakillantirish, nazariy bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlarida qaratilgan. Pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayonlarida qo‘llashning asossiy vazifalaridan biri bu hissiy qulay muhitda o‘quvchilarning faol ko‘p bosqichli faoliyati jarayonida fan va o‘quv bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, o‘rganish uchun ijobiy motivatsiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashning bir qancha asosiy vazifalarini quyidagilar orqali ko‘rib chiqamiz:

- ❖ o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini bilish;
- ❖ texnik vositalar va ta’lim vositalaridan foydalanish usullarini dars jarayonlarida

qo‘llay olish;

❖ o`quvchilarning fikrlashlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari uchun zamonaviy ta’lim texnologiyalari haqida tushunchaga ega bo‘lishi;

❖ darsning samaradorligini oshirish uchun pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish va mashg’ulotlardan foydalanishni o‘zlashtirish;

❖ pedagogik mehnat samaradorligini tahlil qilish usullarini bilish va o‘zini o‘zi baholay bilish;

❖ bolalarni o‘zlarining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbusi va aniq harakatlari orqali o‘qitish;

❖ o‘quv jarayonlarida foydalanish uchun innovatsion multimediya materiallarini yaratish.

Ilmiy izlanishlar natijasida boshlang’ich sinf o‘quvchilarining bilim ko‘nikmalarini oshirishda zamonaviy pedagogik ta’lim texnologiyalari orqali tabiiy-iqtisodiy manbalardan oqilona foydalanishning eng muhim vazifalarini, jumladan, tabiiy manbalar, iqtisodiy manbalar haqida dastlabki bilim va ko‘nikmalarni turli xildagi videodarslar, orqali tushuntirishimiz kerak bo‘ladi. Kelajakdagi oldini olish mumkin bo‘lgan iqtisodiy inqirozlar, ekologik muammolar haqida bolaga tassavvur paydo bo‘ladi. Maktab o‘quvchilarida zamonaviy ta’lim texnologiyalar orqali tabiiy-iqtisodiy manbalar tushunchasini boshlang’ich sinfligidanoq o‘quv jarayonlarda interfaol usullar orqali o‘rgatilganda, o‘quvchilar asosiy tushunchlar orqali tasavvurga ega bo‘ladilar. Tabiiy-iqtisodiy manbalarimizni asrab avaylashimiz haqida tasavvurga ega bo‘lgan o‘quvchi yoshligidanoq tarbiya asosida ulg’ayadi. Bu esa, kelajakda ilm fanni, iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi. Tabiiy-iqtisodiy manbalarning mohiyatini bilishimizda ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarishga ishlatiladigan tabiiy va inson imkoniyatlarining barcha turlari hisoblanadi. Tabiiy iqtisodiy manbalar turli yo‘llar bilan shug‘ullanadilar. Manbalarni tabiiy holatda o‘rganish va manbalarni iqtisodiy jihatdan o‘rganishimiz kerak bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalangan holda tabiiy iqtisodiy manbalardan oqilona foydalanishga o‘rgatishda o‘quvchilar uchun darsning muhim jihatlaridan biri – bu bilim olishda shaxsiy qiziqish zarurligini tushunishidir. Shunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nafaqat natijada, balki butun o‘quv jarayoni davomida o‘z kompetentsiyalarini his qilishlari mumkin. Shuning uchun zamonaviy dars maxsus tashkil etilgan mashg‘ulotlar va bilim va ko‘nikmalar orqali oddiy shaxslararo, tabiiy muhitlararo aloqalar uyg‘unligida o‘tilishi kerak, deb hisoblaymiz.

Xulosa o‘rnida shu e’tirof etish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-iqtisodiy manbaalardan oqilona foydalanish ko‘nikmasini shakillantirishimiz orqali, o‘rgatishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ijodiy faolayatni rivojlantirishda o‘quvchilarning yosh xususuyatlarini e’tiborga olish, ta’limni samarali tashkil etishda darslarni rivojlangan mamlakatlar ta’limi tajribasi asosida noananaviy tarzda o‘tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish, har tomonlama bilimli yoshlarni tayyorlashimiz imkoniyatlarini yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurullayeva Sh. Boshlang‘ich sinfda pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda didaktik o‘yinlarning o‘rni. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Q.: Nasaf, 2001.224-225-bet.

2. Nurullayeva Sh. Zamonaviy o‘qituvchi mahorati va ijodkorligi muammolari. Xalq ta’limi. 2021. №3. 6-9-b.

Iroda SAMATOVA,
Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktaranti

VITAGEN TA'LIM TEXNOLOGIYASINING MAZMUN VA MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy didaktikaning innovatsion yo'nalishi – maktab o'quvchilarining vitagen ta'limiga bag'ishlangan bo'lib, u o'rta maktabning o'quv jarayonida o'quvchilarning hayotiy tajribasining intellektual va psixologik salohiyatidan foydalanish g'oyasiga asoslangan.

Kalit so'zlar. Vitagen ta'limning texnologiyasi, ta'limning tarkibi, vitagen tajriba, hayotiy tajriba.

Статья посвящена инновационному направлению современной дидактики – витагенному обучению школьников, в основе которого лежит идея использования интеллектуального и психологического потенциала жизненного опыта учащихся в процессе обучения в средней школе.

Ключевые слова. Витаген технология обучения, содержание обучения, витаген опыт, жизненный опыт.

The article is devoted to innovating direction in modern didactics – vital pupils' teaching in the base of which is the idea of actualization using in secondary school educational process of pupils' psychological potential of their vital experience.

Key words. Technology of vital teaching, educational content, vital experience, life experience.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig'i yoshlar ekanligidan kelib chiqib, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va yoshlarning manfaatlarini har tomonlama huquqiy hamda ijtimoiy himoya qilishga alohida e'tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda. Davlatimiz rahbari: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", deb alohida qayd etdi. Shu bois, mamlakatimizda ''mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash'' ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni qabul qilinishi yoshlarning barcha jabhada o'z imkoniyatlaridan foydalanishi va sifatli ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Jahonda fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik jixatlari, ijtimoiy muhitni tahlil etish, shuningdek, o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy xabardorligini oshirishning ta'sirchan mexanizmlari innovatsion tarbiya texnologiyalarini tadqiq etish muhim ahamiyatga molikdir. Tadqiqot predmeti bilan bog'liqlikda pedagogik texnologiya deganda umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining ijtimoiy intellektini rivojlantirish, ijtimoiylashuvi va ijtimoiy tarbiyasi bilan aloqador maqsad va vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan, uzviy birlikni aks ettiruvchi,

alohida komponentlardan tashkil topuvchi pedagogik tizim ko’zda tutildi. Texnologiyani loyihalash uchun asos sifatida vitagen ta’lim tanlandi.

Pedagogika fanlari doktori, professor, akademik A. Belkin tomonidan XX asrning so‘nggi choragida vitagen ta’limning nazariy jihatlari ishlab chiqildi. Vitagen ta’limning mohiyati — ta’lim jarayonida o‘quvchilarning olgan bilim va ko‘nikmalari bilan hayotiy tajribalarining bog‘liqligi unda asosiy g‘oya hisoblangan, ya’ni, vitagen ta’lim nazariyasining tayanch so’zlari sifatida hayotiy tajriba, vitagen tajriba talqin etilgan.

Professor R. Safarova ilmiy rahbarligida yaratilgan pedagogik ensiklopediyada vitagen ta’lim texnologiyasi tushunchasiga quyidagi tarzda aniqlik kiritilgan: “Vitagen ta’lim – didaktikaning yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ta’lim oluvchilarda mavjud bo’lgan ijtimoiy tajribalarni dolzarblashtirish asosida tashkil etiladi. Bunda shaxsning vitagen tajribasidan ta’limiy maqsadlarda bosqichma-bosqich foydalanish ko‘zda tutiladi”. Vitagen ta’lim – shaxsning hayotiy tajribasini dolzarblashtirishga qaratilgan o’qitish tizimi bo’lib, uning intellektual-ruhiy quvvatlaridan ta’limiy maqsadlarda foydalanishni nazarda tutadi.

Rossiya pedagogi V.A. Krivenko o‘zining tadqiqot ishida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: ‘‘Rossiya ta’limini modernizatsiya qilish kontseptsiyasi zamonaviy bosqichda umumiy ta’limning maqsadlarini belgilaydi. U “ta’limni nafaqat o‘quvchilar tomonidan ma’lum hajmdagi bilimlarni o‘zlashtirishga, balki ularning shaxsiyatini, kognitiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydi. Umumta’lim maktabi umuminsoniy bilim, ko‘nikma va malakalarning, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil faoliyati va shaxsiy mas’uliyatining yaxlit tizimini, ya’ni ta’limning zamonaviy sifatini belgilovchi asosiy kompetensiyalarni shakllantirishi kerak”.

Mamlakatimizda ta’limning zamonaviy mazmunini tushunishga qaratilgan yondashuvlar birining zamirida “tajriba” tushunchasi yotadi, shunga muvofiq, ta’lim mazmunining asosiy elementlari: tabiat, jamiyat, inson haqidagi bilimlar; ma’lum usullar bo‘yicha faoliyat tajribasi; ijodiy faoliyat tajribasi; hissiy-qadriyatli munosabatlar tajribasi hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonining asosiy qarama-qarshiliklaridan biri, bolalarning hayotiy tajribasi va ta’limga oid (ilmiy) bilimlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikdadir. O‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish, shaxsni shakllantirishga oid pozitsiyalar orasida bolaning shaxsiy tajribasini o‘rganish, uni o‘quv jarayonida qo‘llash bo‘yicha ma’lumotlar to‘plangan. Ta’lim jarayonida individual kognitiv faollik amalga oshiriladi, u bola faolligining tabiatiga ko‘ra juda erta, stixiyali tarzda, tizimli maktabgacha ta’limidan oldin ham shakllanadi. Maktabga ta’lim olish uchun kelgan bola o‘z hayotiy tajribasining tashuvchisi, ya’ni o‘z-o‘zini rivojlantiradigan va o‘z imkoniyatlarini amalga oshiradigan ta’lim jarayonining bir subyekti hisoblanadi. Maktabning asosiy vazifasi bola tajribasini qadrsizlatirish, ahamiyatsiz, deb rad etish emas, aksincha, ijtimoiy-tarixiy tajriba natijalarini boyitish orqali uni maksimal darajada aniqlash, foydalanish, “o‘stirish” dir.

Zamonaviy amerikalik pedagog-tadqiqotchi U. Glasser fikriga ko‘ra: “Agar maktab dasturlari bolaning hayotiy tajribasiga hech qanday tarzda mos kelmasa, unda o‘quv motivatsiyasi rivojlanmaydi. O‘quv jarayoni murakkablashib borar ekan, faqat motivatsiya bolaga qiyin mavzularni yengishga yordam beradi, ammo u yo‘q ekan, bolalar muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Maktab bolalar hayotiy tajribasi va kuzatishlari asosida o‘z fikrlarini ochiq ifoda eta oladigan joy bo‘lishi kerak. Maktab tomonidan bola dunyosiga bo‘lgan qiziqishi ularda qoniqish hissini uyg’otadi”.

Tadqiqotlar natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, vitagen ta’lim – bu o‘qituvchi va o‘quvc-

hilarning darsda o‘zaro bir-birini to‘ldirib, boyitib boradigan muloqotni tashkil etishdagi birgalikdagi faoliyati bo‘lib, u shaxsning hayotiy tajribasini (rivojlanishning ushbu bosqichida dunyoqarashni belgilaydigan shaxs uchun muhim hayotiy tajribasi) va jamoaviy hayotiy tajribasini aktuallashtirish jarayoniga asoslanadi. Vitagenik ta’limni tashkil etish, muayyan tashkiliy shakllar va texnologiyalarning mavjudligini, shuningdek, o‘qituvchi ish dasturning ma’lum bir bo‘limida maktab o‘quvchilarining vitagenik ongini bilishini nazarda tutadi.

Bola – o‘z faoliyatining subyekti bo‘lib, unda faqat kattalar ta’siri obyektini ko‘rmaslik kerak. Hamkorlik pedagogikasi nuqtai nazariga ko‘ra ta’limni individuallashtirishning yondashuvlaridan biri bu – hayotiy (vitagen) ta’lim bo‘lib, unda o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayaniladi.

Keling, asosiy tushunchalarni aniqlab olamiz. Hayotiy tajriba deganda, shaxsning mulkiga aylangan, uzoq muddatli xotira zaxiralarida saqlanadigan va adekvat vaziyatlarni aktuallashtirishga doimiy tayyor bo‘lgan ma’lumotlar tushuniladi. Bu individ tomonidan to‘plangan va u uchun ma’lum (ko‘pincha juda muhim) qiymatga ega bo‘lgan fikrlar, bilimlar, his-tuyg’ular, harakatlarning birlashishi. Bu ma’lumot ong, his-tuyg‘ular, xulq-atvor xotirasi bilan bog’liq, ya’ni inson boshidan kechirgan narsadir.

Vitagenik hayotiy tajriba – bu inson uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan hayotiy tajribani to‘plash jarayonining natijasidir. Vitagenik tajriba ijtimoiy ahamiyatga ega, kelajakni bashorat qilish va loyihalash imkonini beradi. Uning asosini, mazmuni va hajmi bo‘yicha har bir mavzu uchun individual bo‘lgan axborot tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir . ‘‘Xalq so‘zi’’ gazetasi, 2017-y, 1-iyul.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr

3. Курганов С.Ю. Ребенок и взрослый в учебном диалоге. – М.: Просвещение, 1989.

4. Глассер У. Школы без неудачников. – М.: Прогресс, 1991.

5. Safarova R. Modernizatsiyalashgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ijtimoiylashtirish imkoniyatlari. Xalq ta’limi. - 2010. - №3. - B.5-9

D.N. ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi dotsenti v/b, p.f.f.d.
T.M. QURBONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi magistranti

MUQADDAS ZIYORATGOH MASKANLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI (Surxondaryo viloyati misolida) (Chilgiz ota, Takiya ota, Sulaymon ota)

Annotatsiya

O'zbekiston hududida boshqa dinlar singari islom madaniyatiga oid ko'plab muqaddas joylar mavjud. Ular eng qimmatbaho yodgorliklar hisoblanib, YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari sifatida tan olingan. Ushbu maqolada mamlakatimizdagi muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, ularning insonlar hayotidagi ahamiyati xususida so'z boradi. Shuningdek, ziyoratgohlarning tarixi hamda bugungi kundagi tarbiyaviy ahamiyati haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ziyoratgoh, ziyorat odobi, muqaddas qadamjolar, madaniyat, islom ta'limoti, masjidlar, ma'naviyat, Surxon vohasi.

На территории Узбекистана есть много священных мест, связанных с исламской культурой, как и с другими религиями. Они считаются наиболее ценными памятниками и признаны объектами Всемирного наследия ЮНЕСКО. В данной статье рассказывается о святых местах и святынях нашей страны и их значении в жизни людей. Есть также представления об истории святынь и их воспитательном значении сегодня.

Ключевые слова. Паломничество, паломнический этикет, святые места, культура, исламские учения, мечети, духовность, Сурханский оазис.

In the territory of Uzbekistan, there are many sacred places related to Islamic culture, like other religions. They are considered the most valuable monuments and recognized as UNESCO World Heritage Sites. This article talks about the holy places and shrines in our country and their importance in people's lives. There are also ideas about the history of shrines and their educational significance today.

Key words. Pilgrimage, pilgrimage etiquette, holy places, culture, Islamic teachings, mosques, spirituality, Surkhan oasis.

"Ziyorat" so'zining ma'nosi rus-tilidan tarjima qilinganda "Biror nasaga yaxshi qarashga imkon beradigan joy yoki mavqe" degan ma'noni anlatadi. Ziyorat – muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib muayyan rasm-rusmlarni bajarib kelish. Islom dini aqidasiga ko'ra, aziz avliyolarning maqbaralariga ziyorat uchun borganda ularning ruhidan madad so'rashlik, dardlarga shifo berilishini, farzand ato etilishi kabilarni so'rash nojoizdir. Chunki, bu amallarni bajarish faqat ollohning ixtiyoridadir. Ziyorat qiluvchilar payg'ambar bo'ladimi, avliyo yoki tariqat shayxi bo'ladimi, ulardan najot so'rash o'rniga haqlariga duoyi xayr qilish, sadaqa-eh-

son savoblarini ularning ruhlariga haqya etish o‘rinlidir. Muhammad (sollolohu a’layhi vasallam) o‘zlarining bir hadisi shariflarida aytganlar: “Qabristonlarni ziyorat qilib yuringizlar, zero oxiratni eslatadi”. Oxiratni eslash esa kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi.

Ziyorat maqsadi – ko‘p yillik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab avaylash, dunyo ilmu fani va ma’daniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bag’rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilat va qadriyatlarini davom ettirishga ko‘maklashishdir.

Ziyorat vazifasi quyidagilar hisoblanadilar:

1. Fuqorolarning diniy, ma’naviy va intelektual salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab quvvatlash, milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash;

2. Masjidlar va diniy ta’lim muassasalarning binolarini qurish, ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

3. Tarixiy-memoriy ahamiyatga ega ziyoratgohlarni saqlash, ta’mirlash obodonlashtirish, ularning tadqiqot markazlari faoliyatini moliyalashtirish, ularning professor-o‘qtuvchilari, tadqiqotchilari, mutaxasis va o‘quvchi talabalarni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

4. Masjidlar va ziyoratgohlar xodimlarni, xususan imom noiblar, mutavallilar, muazzinlarni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

5. Islom ilm-fan va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz, zamonamizning yetuk olim va ulamolari qalamiga mansub diniy-ma’rifiy asarlarni chop etish va aholiga yetkazishga ko‘maklashish;

6. Musulmon dunyosidagi nufuzini yanada oshirish, bu maskanlarga mahalliy va xorijiy fuqarolarning ziyoratlarini uyushtirish, ziyoratchilar uchun zarur sharoitlar yaratish;

7. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash.

Ziyorat odobi deganda quyidagilar tushuniladi:

1. Avvalo, niyatni to‘g’irlamoq, ixlos bilan, xolis olloh uchun ziyorat qilmoq, yordamni, najotni, yolg’iz ollohdan tilamoq lozim.

2. Ziyorat paytida tahoratli bo‘lmoq sunnatdir.

3. Qisqa muddat bo‘lsa ham dunyo mashg‘ulotlarini tark etib, oxiratni o‘ylamoq.

4. Ikki rakat nomoz o‘qimoq sunnatdir.

5. Ziyoratda viqor bilan sokin yurmoq.

6. Qabr ahliga salom bermoq.

7. Oyoq tomonidan borib, mayitga yaqin va yuzma-yuz o‘tirmoq.

8. Qabrni siypash, ushlash va o‘pishdan saqlanmoq.

9. Qabr boshida “Yosin” surasini yoki o‘zi bilgan boshqa sura yoxud oyatlarni o‘qimoq.

10. Ziyoratga poyabzalni yechib kirish sunnatdir.

11. Qabrni bosmaslik lozim. Qabr usti mayitning haqqidir.

12. Mo‘minlarning yaxshi sifatlarini eslash sunnatdir.

13. Ziyoratdan behad sokin, vazmin holatda qaytish lozim.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq muqaddas ziyoratgohlarga madaniy va ma’naviy merosimiz yodgorliklari sifatida alohida e’tibor berilib kelinmoqda. Islom dini va madaniyatining jamiyat manaviy hayotida tutgan o‘rnini hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash, dinimiz tarixi, buyuk allomalar va aziz avliyolarimiz merosini o‘rganish va targ’ib etish, yurtimizning o‘ziga xos tarixi, madaniyati va bebaho ma’naviy merosimizni to‘liq o‘rganish

bizning oldimizda turgan eng asosiy vazifamizdir.

Termiz shaxrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan Surxon vohasidagi ziyoratgohlar qaytadan ta’mirlandi va u yerga keluvchilar soni kundan-kunga oshib bormoqda. Bu maqbaralar mahalliy aholi doimiy ravishda ziyorat uchun boradigan muqaddas qadamjolar, ruhiy poklanish hamda, ma’naviy yuksalish maskanlaridir.

Xo‘sh, biz nima uchun o‘tmishda o‘tgan azizu avliyolarimizni qabrlarini yillar mobaynida ziyorat qilib kelamiz? Chunki, Alloh taolo o‘z kalomi bo‘lmish Qur’oni Karimda “Ogoh bo‘lingkim, Allohning do‘stlariga xavf yo‘qdir va ular xafa ham bo‘lmaslar. Ular iymon keltirganlar va taqvo qilganlardir. Ularga hayoti dunyoda ham, oxiratda ham xushxabar bor” (Yunus so‘rasi 62-63-oyatlar). Yana bir oyatda “Allohning yo‘lida qatil bo‘lganlarni o‘liklar deb hisoblamanglar. Balki, ular – tirik, Robbilari huzurida rizqlanmoqdalar”, (Oli Imron so‘rasining 169-oyatida) deb marhamat qilgan.

Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo sollollohu a’layhi va sallamning hadislarida “Olimlar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir” deyilgan. Mutaaxxirin ulomolarning ta’rifida shunday deyilgan: “Qilich qinidan chiqqanda, uning keskirligi kuchli bo‘lganidek, avliyolarning ruhi tanasidan chiqgach, ularning ruhi ham shu qilich kabi o‘tkir bo‘lur”. Shu sabab aziz avliyolarni dunyodan o‘tgandan so‘ng ham hurmati joyiga qo‘yilishi shart. Bizning musulmon diyorlarda aziz-u avliyolarga maqbara barpo qilish shu sababli joriy qilingan. Quyida shu kabi ziyoratgohlardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Takiya ota ziyoratgohi – Takiya ota XII asrga oid Takiya ota maqbarasi Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani Takiya mahallasida joylashgan. Tuman markazidan janubga qarab 13 km masofada, Qorasuv o‘zanidan shimoliy sharq tomonda 12 km uzoqlikda joylashgan. Takiya ota maqbara yodgorligi kimga tegishli ekanligi yaqin-yaqingacha ma’lum emas edi.

Ammo, mahalliy xalq ota-bobolaridan eshitgan hikoyalar, rivoyatlar asosida bu maqbarada avliyo darajasidagi bir inson yotganiga qattiq ishongan holda asrlar davomida uni ezozlab, avaylab kelgan. Deyarli har yili besh gumbazli, xom g’ishtdan bunyod etilgan maqbara somon shuvoq qilingan, tevarak-atrofi obodonlashtirilgan.



Takiya ota ziyoratgohi

Avliyo jasadining tuyaga ortib kelinganligi, so‘ngi manzil joyini avliyo xalifasi emas, balki g’oyibdan kelgan oq tuya belgilaganligi to‘grisidagi g‘aroyib va chiroyli rivoyat hali hanuz tillarda doston bo‘lib kelmoqda.

Rivoyatda keltirilishicha, Madinai Mukarramadan bizning yurtlarga islomni targ’ib etish uchun kelgan bu zot Buxoroda, Qizilqum yaqinida kasallanib, vafot etadi. Vafoti-

dan oldin u shogirdlariga shunday vasiyat qiladi: - “Janozam o‘qilishi bilan biroq tuya paydo bo‘ladi. Jasadimni shu tuyani o‘z ixtiyoriga qo‘yingiz, Agar tuya qayerda cho‘ksa va shomgacha o‘rnidan qo‘zg’almasa mening so‘ngi makonim o‘sha yer bo‘ladi, meni o‘sha yerga dafn etingiz. Lekin zinhor tuyaning xohishiga monelik qilmangiz! Voqea huddi avliyo aytganidek sodir bo‘ladi, unga janoza o‘qib bo‘linishi bilanoq, uy oldida katta oq tuya paydo bo‘ladi. Xalifalar avliyo jasadini tuyaga yuklab, uning izidan yo‘lga tushishadi.

Xullas yura-yura yayloq dasht o‘rtasidagi bir ko‘l yoniga yetishganda tuya asta cho‘kadi hamda shomgacha qimir etmaydi. Pirining so‘ngi manzili shu yer ekanini tushungan xalifa pirini dafn etishga hozirlik ko‘radi. Ular birgalashib avliyo jasadini shu yerga dafn etishadi.

Sulaymon ota ziyoratgohi – Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida joylashgan .O‘zbekistondagi madaniy me’ros obyekti hisoblanadi. Sulamon ota ziyoratgohi tarixi XVI asrlarga borib taqaladi. Bu ziyoratgoh maskaniga mahalliy aholidan tashqari respulika bo‘ylab ziyorat qilish va poklanish maqsadida kelishadi. Asosan aholi dardiga shifo so‘rab, ya’ni turli yara kasalliklariga shifo tilab kelishadi.

Chilgiz ota ziyoratgohi- Qiziriq tumani markazi Sariq shaharchada joylashgan bo‘lib, asosan aholi dardlariga shifo so‘rab ziyoratga kelishadi. Ziyoratgohning o‘ziga xos hususiyati shundaki, insonlar turli toshma, so‘gal, yara kabi hastaliklariga davoni shu yerdan istab kelishadi.

Surxon vohasida islom olamida mashhur bo‘lgan payg’ambar, sahoba, xo‘ja eshon, avliyo nomlari bilan ulug’lanadigan ziyoratgoh mskanlar mavjud. Masalan, Qur’oni Karimda nomi zikr etilgan Payg’ambar Zu-l-Kifl nomi bilan bo‘liq Termiz shahri yaqinidagi Payg’ambar orolining janubiy qismida Zu-l-Kifl ziyoratgohi joylashgan.

Zu-l-Kifl nomi Qur’oni Karimda keltirilib, unga ko‘ra “Ismoil, Idris va ZU-l-Kiflni eslang! Barchalari sabr qiluvchilardandir. Biz ularni o‘z rahmatimizga doxil qildik, darhaqiqat, ular solih zotlardandir”, deyiladi. “Yana Ismoil, al-Yasa va Zu-l-Kuflni eslang! Barchalari yaxshi kishilardandir” deb aytilgan.

Ibn Kasrning aytishicha, Mazkur oyati karimalarning zohiriy ma’nosiga binoan Zu-l-Kufl qaysi qavmga yuborilgani haqida ma’lumot yo‘q. Rivoyatga ko‘ra, rumliklarning Zu-l-Kuflga ergashganliklari naql etiladi. Bu qavm Zu-l-Kufldan o‘zlarining uzoq umr ko‘rishlarini Allohdan so‘rashini iltimos qilishgan. Alloh Zu-l-Kuflning duosini qabul etib, “Ular o‘zlari hohlaganlaricha o‘lmaslar. Bunga sen ham kafil bo‘lgin”, degan vahiy keladi. Bishr o‘z qavmiga bu bashoratini yetkazadi. Ilohiy vahiyga o‘zi kafl bo‘ladi. Shu sababdan ham uni “Zu-l-Kifl” deb atay boshlaganlar.



Zu-l-Kufl ziyoratgohi

Ayyub payg’ambar vasiyatlarini o‘g’illari Havmalga qoldirgan edilar. Havmaldan so‘ng esa ikkinchi o‘g’illari Bishr ibn Ayyub ota vasiyatini davom ettiradi. Ko‘pchilik ulomalarning kelishuvlariga binoan, Bishr ibn Ayyub-Zu-l-Kifl ismli payg’ambardir. Aksariyat tafsirlarda Zu-l-Kufl umrining ohirigacha Shomda yashaydi.

Surxon vohasidagi muqaddas ziyoratgohlarni o‘rganish va ularni ilmiy tahlil etishda uni yuzaga keltirgan ijtimoiy-iqtisodiy va ma’daniy voqeliklar alohida ahamiyat kasb etadi.

Surxondaryo qulay tabiiy sharoiti, tabiati, iqlimi, sharq mamlakatlarni bog’lovchi savdo hudud ekani va uzoq o‘tmishdan beri madaniyat shakllanishiga o‘zining hissasini qo‘shib kelayotgani bilan ajralib turadi. Xususan, Buyuk Ipak Yo‘li joylashgan vohada buddaviylik, zardo‘shtiylik, xristianlik, moniylik kabi turli dinlarning ta’sirini ko‘rish mumkin.

Muqaddas ziyoratgohlar tarixini o‘rganish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash o‘lka aholisining an’anaviy diniy tasavvurlari va e’tiqod qarashlarini ilmiy tahlil etishgina emas, ilmiy tadqiqotlar natijasi sifatida moddiy-ma’daniyat namunalarining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatini yoshlar ta’lim tarbiyasida qo‘llash imkonini ham beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi ‘‘Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PF-4068-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611 Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5781- son Farmoni.

4. N. Xaydarov. Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. Ochiq iqtisodiyot: sog‘lom raqobat, biznes muhiti investitsion muhit jozibadorligi / Xalqaro amaliy anjuman / TDIU.

5. I. Karimov. “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch”. T .: “Ma’naviyat”, 2008;

6. Z. Adilov (2021, June). Issues of ımprovıng tourıst opportunıtıes ın namangan regıon. InKonferensii.

7. Tursunov, Sh.Sh. (2019). Interer devoriy suratlari: o‘tmish, an’ana va zamonaviylik. Научное знание современности, (12), 161-165.

1. Boynanzarov F. “Antik dunyo”. “Mehnat” 1989;

Bahodir Eshov. “O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi” – T.: “Ma’rifat”, 2009.

Dilafruz QURBONOVA,
Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TALABA QIZLARDA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARINI PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada qizlarda temuriy malikalar ma'naviy merosini pedagogik texnologiyalar hamda axborot texnologiyalari asosida shakillantirish, ilmli qilish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini takomillashtirish, kitob o'qishga da'vat etish haqida fikr yuritiladi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar qizlarga ta'lim usuli, tarbiya nizomi, go'zal axloq, muomala usuli, o'zini tuta bilish odobi, zehnni poklash yo'llarini o'rgatadi.

Kalit so'zlar. Temuriy malikalar, o'smir qizlar, milliy qadriyat, ayollar ta'limi, Sharq allomalari, mahalla, oila, ta'lim, tarbiya, kitob mutolaasi, axloq-odob, afsona, rivoyat.

В данной статье речь идет о формировании духовного наследия тимуридских принцесс на основе педагогических технологий и информационных технологий, о научности, повышении их духовно-нравственных ценностей, поощрении к чтению книг. Духовно-нравственные ценности учат девочек методу воспитания, дисциплине воспитания, добрым нравам, манерам поведения, сдержанным манерам, способам очищения ума.

Ключевые слова. Тимуридские принцессы, девочки-подростки, национальная ценность, женское воспитание, восточные ученые, соседство, семья, воспитание, обучение, чтение книг, нравственно-нравы, легенда, повествование.

This article deals with the formation of the spiritual heritage of the Timurid princesses on the basis of pedagogical technologies and information technologies, about scientific character, increasing their spiritual and moral values, and encouraging them to read books. Spiritual and moral values teach girls the method of education, the discipline of education, good morals, manners, restrained manners, ways to purify the mind.

Key words. Timurid princesses, teenage girls, national value, women's education, Eastern scholars, neighborhood, family, upbringing, education, reading books, morals, legend, narration.

Oilalarning mustahkamligi va turmushning obodligi kelajak avlodning komil inson bo'lib yetishi uchun tayanch hisoblanadi. Ushbu yilda ham ishlab chiqilgan Davlat Dasturi asosida hamkorlik ishlarini tashkil etish zarur. Bunda oilaning ham, makatab va mahallaning ham tashabbuskorligi va o'zaro hamjihatliligi talab etiladi. Oila kabi mahalla ham jamiyatini shakllantirishning ajralmas qismidir. Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, o'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. "Mahalla" so'zi arabcha "Mahallun" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzelari degan ma'noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda.

Bilamizki, tarixning turli davrlarida ayollarga bo'lgan e'tibor alohidaligi bilan ahamiyatlidir. O'zbekiston tarixi sahifalarida mard va jasur, shoira, olima, zukko ayollar ko'p bo'lgan. Ular hamisha o'zlarining aqlu zakovati, donishmandona maslahatlari bilan kishini hayratda qoldirgan. To'maris, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Xonzodabegim, Zebunisobegim kabi malikalar fikrimiz dalilidir. Xususan, Amir Temur haz-

ratlari hamisha Bibixonim (Saroymulkxonim) so‘zlariga quloq tutganlar, maslahatlarini e’tiborga olganlar hamda temuriy shahzodalar asosan Bibixonim tarbiyasini olganlar. Malikalarning uzuk-muhrlari ham bo‘lgan. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘zining “Boburnoma” asarida 72 ta ayol to‘g‘risida ma’lumot bergan.

Ma’naviyat – insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, axloq-odobi, avlodlar tajribasi asosida shakllanib boradi. Ma’naviyat insonning hayoti va faoliyatiga maqsad va yo‘nalish beradi. Shunungdek, insonning o‘z xalqi tarixini, uning madaniyatini chuqurroq bilishi va tushunib yetishiga yordamlashadi. Inson ma’naviyatsiz yashay olmaydi. Ma’naviyat alohida bir inson uchungina emas, jamiki odamlar uchun ham, xalq, elat va millat uchun ham o‘ta zarur va muhimdir. Ma’naviyatsiz inson bo‘lmaganidek, ma’naviy yetuk, axloqan pok va mukammal insonlarsiz jamiyat va millat ham bo‘lmaydi. Inson ma’naviyati jamiyat, davlat va millat ma’naviyati bilan uzviy bog‘liq.

Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Shodmulk Xotun Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyoga keladi. Amir Temurning suyukli nabirasi Xalil Sulton Mirzo (Mironshoh Mirzoning o‘g‘li, 1366-1408) kunlardan bir kun shahar chetidagi bog‘ ko‘chadan otda o‘tib ketayotib, Shodmulkka ko‘zi tushadi va uni sevib qoladi. Xalil Sulton Mirzo (1384-1411) jasoratli, harbiy salohiyatli va iste’dodli yigit bo‘lgan. Balog‘atga yetgach, uni aslzoda xonadon qiziga uylantirishgan. Undan bir o‘g‘li ham bor edi. Ammo Shodmulkni sevib qolgach, o‘z zamonasining taomiliga qarshi o‘laroq, shu qizga uylanadi. Tabiiyki, bunday ‘‘tengsiz’’ nikohga Temur boshliq butun avlod qarshi turishgan. Biroq Xalil Sulton Mirzoning qat’iy qarori g‘olib chiqadi. Amir Temur avvalida qattiq g‘azablangan bo‘lsa-da, keyinchalik nabirasiga bo‘lgan yuksak e’tiqodi tufayli uning gunohini kechiradi.

Gulbadan begim Zahiriddin Muhammad Bobur shohning Dildor begim nomli xotinidan tug‘ilgan uchinchi qizidir. Gulbadan begim 1523-yili Kobulda tug‘ilgan. Uning onasi Dildor begimning haqiqiy ismi Soliha Sulton begim bo‘lib, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning qizi edi. Gulbadan begim otasi Bobur podshohning farmoniga ko‘ra katta onasi, ya’ni Humoyun Mirzoning onasi — Mohim begim qo‘lida tarbiyalanadi. Mohim begim Bobur podshohning eng suyukli katta xotini bo‘lib, hukmdorning xotinlari orasida oqila va bilimdoni edi. Binobarin, 1525 yili Gulbadan begimni Mohim begim o‘z tarbiyasiga oladi. Gulbadan begim har ikkala onasini ham samimiy e’zozlagan. U o‘z asarida onasini ‘‘Dildor begim’’, Mohim begimni esa ‘‘onam hazratlari’’ deb tilga oladi.

Zebunniso begim Zahiriddin Muhammad Boburning pannevarasi Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangzeb (taxtbezagi) Olamgirning qizi. Uning onasi Dilrasbonu Shohnavozxonning qizi bo‘lib, Boburning Gulbadan begim ismli qiziga borib tutashadi. Zebunniso begim (1048-hijriy yil shavvol oyi) 1639-yil-milodiy, fevral oyida Dehlida tug‘ilgan.

Uning otasi Avrangzeb (1618-1707) yoshligidanoq dindorligi bilan nom chiqargan edi. Sankt-Peterburg Davlat Ermitajining qimmatbaho ashyolar fondidan temuriy malika Gavharshod begimning uzuk-muhri, XIX asr saroy malikalarining oltindan yasalgan uzuklari, taqinchoqlari saqlanmoqda.

Gavhar Shod begim Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh Mirzoning suyukli katta xotini edi. U Chig‘atoy zodagonlaridan G‘iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilishlaricha, G‘iyosiddin Tarxonning bobokaloni – Qushlik bir vaqtlar Chingizxon mulozimatida bo‘lib, bir jang asnosida uni o‘limdan saqlab qolgan ekan. Shundan buyon

Chig‘atoy ulusida bu avlod yuksak e’tibor va hurmatga sazovar bo‘lgan. Gavhar Shod begim 1379-yilda tug‘ilib, 1393-yilda Shohruh Mirzo nikohiga kirgan. Undan uch o‘g‘il va ikki qiz ko‘rgan. To‘ng‘ich o‘g‘li – Ulug‘bek Mirzo ko‘ragon (Muhammad Tarag‘ay, 1394-1449), o‘rtancha o‘g‘li – Boysung‘ur Mirzo (1397-1433) va kichik o‘g‘li – Muhammad Jo‘ki Mirzo (1401 -1445) lardir.Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavhar Shod begim yuksak did-farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir so‘zli, qat’iyatli, husn bobida ham benazir ayol bo‘lgan.

Tabiatan dindor Shohruh Mirzo ko‘p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflardi. Saltanat, devon ishlarini o‘ktam va tadbirkor xotini Gavhar Shod begim boshqarardi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so‘ng, sekin-asta saltanat ishlarini o‘z qo‘liga oldi. Zotan, Shohruh Mirzoning o‘zi ham xotini Gavhar Shod begimning donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Shu bois, saltanatga doir ko‘pgina ishlar malikaning nazar-e’tiboriga havola qilingan. Viloyatlarga hokim tayinlash, qo‘shinga sarkarda belgilash, hatto kimga qanday in’om va kimga qanday jazo berish masalalari ham malikaning inon-ixtiyorida edi. Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko Gavhar Shod begim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g‘amxo‘rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma’rifiy hayot birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo‘lib, hatto g‘azal ham bitganlar.

Maqolada so‘z ketgan ushbu uzuk-muhr bodom shaklida ishlangan bo‘lib, Gavharshodbegimdan bizgacha saqlanib qolgan yagona buyumdir. Uning otasi G‘iyosiddin Tarxon Chig‘atoyzodalardan bo‘lgan. Amir Temur saroyida bu oilaning mavqei baland turgani bois, Gavharshodbegimning muhri shubhasiz katta qudratga ega bo‘lgan. Muhr temuriylar davri hunarmandchiligining yorqin namunasi bo‘la oladi. Albatta, temuriylar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayotini badiiy hunarmandchiliksiz tasavvur qilish qiyindir. Bu davrda metallga badiiy ishlov berish san’ati nihoyatda rivojlangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, temuriylar davrida podshoh buyruqlari maxsus farmonlarda qayd etilgan. Farmonlarlarga qo‘yiladigan muhrlar 5 xil bo‘lib, turli maqsadlarda foydalanilar edi. Ulardan birinchisi, amir va beklarga hamda arkoni davlatga unvonlar berish, lavozimlarga tayinlash, mukofotlash haqidagi hujjatlarga qo‘yilgan. Ikkinchisi esa xorijiy davlatlar rahbarlariga yozilgan xatlar va boshqa diplomatik hujjatlarga qo‘yilgan. Uchinchi muhr adliya ishlari borasidagi hujjatlarga bosilgan bo‘lsa, to‘rtinchisi, saroy ma’muriyati bo‘limlariga tegishli hujjatlarga va oxirgisi unchalik muhim bo‘lmagan hujjatlarga qo‘yilgan ekan. Shu o‘rinda aytish kerakki, yana bir o‘ta maxfiy sanalgan muhr ham bo‘lib, u uzuk muhr deyilgan. U eng ishonchli shaxslarda saqlangan. Ayrim shohlarning bu muhri ularning suyukli malikasida bo‘lgan. O‘ta muhim farmonlar matnining oxirida shu kabi muhr bosilgan. Shubhasiz, Gavharshodbegimning uzuk-muhri ham ana shunday yuqori qiymatga ega bo‘lgan.

O‘sha davrlarda ayollar kiyimining to‘plamini zargarlik buyumlari ham to‘ldirib turgan. Bular qatoriga suyakdan yasalgan bezaklar, munchoqli, og‘ir kumushdan yasalgan taqinchoqlar, quloq va burun bezaklari, bo‘yin va ko‘krak uchun bezaklar; qo‘l bezaklari – uzuklar va bilakuzuklar; kiyim bezaklari – tugmalar, qadama bezaklar, bezakli kamarlar, tumorlar, ayollar bosh kiyimiga qadaladigan bezaklardir. Ayollarning bezakli bosh kiyimini asosan turmushga chiqqan ayollar mehmonga borganda yoki mehmon kutib olganda taqishgan. Bular; tillaqosh – (Toshkent, Farg‘ona, Buxoro viloyatlari) nafis qilib ishlangan oltin suvi yugirtirilgan, firuza toshlari va mayda rang-barang shishalar bilan bezatilgan; osmado‘zi – (Xorazm viloyati) shakli qoshga o‘xshaydigan shokilali

beshona bezagi, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan; tillabargak – (Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari) bog‘ich shakldagi peshona bezagi, atroflari mayda firuza toshlari bilan bezatilgan va ayrim hollarda shokildalari ham bo‘lgan.

Tabiiyki, kitob mutolaasi o‘smir qizlarda hayo, ibo, iffat, andisha kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi va muhim tarbiyaviy vosita ekanligini uqtiradi. Alloma hakim Ibn Sino tili bilan aytganda ‘‘Insonda doim turadurgan husn va latofat hayo ila iffatdur, hayosiz yuz jonsiz jasad kabidur’’. Darhaqiqat, qiz boladagi hayoni dilni ravshan qiladigan nurga qiyoslash mumkin. Yana iffat, hayo ko‘proq qizlar va ayollar uchun olmosdan qimmat, injudan qadrli ziynat va fazilatdir. Aynan ana shu aqidaga amal qilgan Sharq allomalari, dono xalqimiz turli hikoyat va rivoyatlarni yaratganlar.

Shu o‘rinda, Sharq xalqlarining, mashhur ‘‘Ming bir kecha’’ kitobida asosiy qahramon, Sharq go‘zali Shahribonu tilidan hikoya qilingan ibratli hikoyatlarni misol qilib olishimiz mumkin. Hikoyatlarni so‘zlovchi sifatida ayol kishining tanlanishi ham, uning birinchidan, aqlzavoti tan olinganligini tasdiqlasa, ikkinchidan Sharq ayoliga bildirilgan hurmat va ehtirom belgisi ekanligini anglab olish qiyin emas. Shahribonu tomonidan hikoya qilingan bir rivoyat diqqatga sazovordir. Hikoyat ‘‘Kanizak qissasi’’ deb nomlanadi. U kichik, mo‘jazgina bo‘lishiga qaramay, mazmun mohiyati jihatidan katta ma’rifiy-ta’limiy, axloqiy ahamiyatga egadir. Shuning barobarida hikoya qahramoni, hayoli, iboli, bilimli dono kanizak qiz hisoblanadi. Hikoya bevosita Sharqda mashhur ilm-ma’rifat homiysi bo‘lgan, Xorun ar-Rashid (763-809) davri va uning nomi bilan bog‘liqdir.

Hikoyada aytilishicha, bir savdogarning Abulhasan nomli o‘g‘li otasidan qolgan bor mol-mulkni qisqa vaqt ichida sarflab tugatadi.

Natijada bisotida bir kanizidan boshqa hech vaqosi qolmaydi. Hojasining tang ahvolda qolganini ko‘rgan kanizak, og‘ir vaziyatdan chiqishning yo‘lini o‘ylay boshlaydi. Shunda, u hojasiga qarata: – ‘‘Meni halifa Xorun ar Xonuran – Rashid huzuriga olib boring va ming oltin qiymatida sotishingizni ayting’’ - deb aytadi. Shuningdek, mening qiymatim ming oltindan ham qimmat turishini uqtiring. Bunga sabab, mening ilmim chuqurligini, qunt bilan o‘rganganimni, ishonmasa imtihon qilishini so‘rang» - deya o‘qtiradi. Abulhasan kanizni olib Xorun ar – Rashid huzuriga boradi va u tayinlagan so‘zlarni takrorlaydi. Xalifa kanizdan qanday ilmlarni bilishini so‘raganda u bilgan ilmlarini sanab beradi va xalifani hayratda qoldiradi. Kanizak ilmlarni dastlab arab tilining nahv (grammatikasini chuqur o‘rganishidan boshlaganligini, keyinchalik she’riyat, fiqih va tafsir, lug‘at va musiqa, ilmi sitora va shammora – yulduz va quyosh ilmi, ilmi sanoq, qismat va masohat – yer o‘lcham ilmlarini o‘rganganligini aytadi. Shuningdek, kanizak din ilmini yaxshi bilishini, Qur’onni yetti xil qiroat bilan o‘qishini, hadislardan ko‘pini yod bilishini ham isbotlab beradi. Aniq fanlardan handasa ilmi, riyoziyot, falsafa, mantiq, maoniy, shantranjni chuqur bilishini aytadi. Xalifa kanizakni qirolar, olimlar, tabiblar, munajjimlar, faylasuflar, qo‘yingki, o‘sha davrda mashhur bo‘lgan olimu ulamolar ishtirokida imtihon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, alqissa, hamma imtihondan a’lo darajada o‘tgan kanizak halifadan bir necha ming tilloni olib, hojasining davlatini tiklaydi.

Hikoya, xalq tomonidan to‘qilgan afsona yoki rivoyat bo‘lishi mumkin. Lekin, xalq ayol kishilarda ham ilm – fanni o‘rganish qobiliyati borligini, aynan bu ilmlarning sohibasi ayol – kanizak ekanligini, hikoya qilishar ekan, xalqimizning Sharq xotin-qizlariga bo‘lgan hurmat va ehtiromi belgisi ekanligini isbotlab turibdi.

Darhaqiqat, kanizak o‘zlashtirgan ilmlar majmuasi asrlar davomida maktab, mad-

rasalarda o‘rganilganligi haqiqatdir. Eng muhimi hikoyatda ilgari surilgan fikrda, kanizning mazkur ilmlarni o‘rganish uchun mustaqil, har sohaga oid kitoblarni o‘qiganligini, tinimsiz izlanganligini uqtirishdan iboratdir. Haqiqatdan ham, har qanday zamonda, ilm-ma’rifatni qadrlagan xonadonlar qizlarini savodli, ziyoli, bilimli qilishga intilganlar. Dastlab, ichkarida xususiy tarzda ochilgan qizlar maktablarida savod chiqarganlar. Qizlarga saboq beradigan otin oyilar, asosan o‘qimishli, madrasa ko‘rgan akasi, otasi, bobosi qo‘lida ilm o‘rganganlar yoki ular ham xususiy ustozlar qo‘lida ta’lim olganlar. Shu nuqtayi nazardan oladigan bo‘lsak, otin oyi, muallimalarning bilim berish saviyasi u ta’lim olgan daraja muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan.

“Erta oila qurishning salbiy oqibatlari” mavzusida talaba-qizlarning soha mutaxassislari bilan muloqotlarini uyushtirish ularda erta oila qurishdan saqlanish – sog‘lom farzand ko‘rishning, tartibli hayot kechirish garovi ekanligiga ishonch paydo qildi va bu borada salomatlik markazlari bilan aloqa o‘rnatish, ayniqsa, ijobiy natijalarga olib keladi.

Zarurat tug‘ilganda o‘quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarni ta‘lim-tarbiya yuzasidan olib borayotgan ishlari to‘g‘risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Hamkorlik kenagshi mahalla hududida istiqomat qilayotgan o‘z farzandalari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma‘muriy choralarni qo‘llashi mumkin. Hamkorlik kenagshi mahalla hududida o‘zbek milliy tarbiya an‘analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o‘tkazish, bolalar va kattalarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o‘yingohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o‘smirlar klublari, maktabgacha tarbiya va makatabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi. Hamkorlik kenagashi o‘tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Hamkorlik kenagashi yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala va muammolarini mahalla hududidagi o‘quv-tarbiya muassasalari, tashkilotlar va idoralari ishi rejalashtirilishi va amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatliligini ta‘minlaydi. Ta‘lim-tarbiya sohasiga e‘tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, ma‘muriy ko‘rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o‘ziga xos pedagogik tizim uslub va shakllarga ega bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkamoy Tursunova. Madrasa barpo etgan malikalar. Ilmiy – ommabop risola. –T.: “Zilol buyuk” nash. 2019, 16-17 bet.

2. Rizouddin Faxriddin o‘g‘li. Mashhur xotinlar. – T., 2019, 8-bet.

3. Qodirova M. Dilshod (hayoti va ijodi). – T.: Fan 1971 62-bet.

4. Ulug‘bek Dolimov. Milliy o‘yg‘onish pedagogikasi. –T.: Nashr nashriyoti 2012, 34-35 betlar.

5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1992. 16-bet.

6. Лисикова О.В. Музеи Мира. – Москва: Флинта, 2004.- 117 с.

Telman ACHILOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti, "Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi dotsenti

O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH VA TAYYORLASH MODELI

(Jismoniy tarbiya fani misolida)

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'rta maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va tayyorlash modelini yaratish bilan bog'liq muhim muammolar haqida so'z borib, maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jismoniy tarbiya o'qituvchisi muhim rol o'ynashi ochib berilgan. Shuning uchun maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini kasbiy tayyorlashning bir jihati (vatanparvarlik ruhida tarbiyalash) ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Vatanparvarlik, ta'lim, vatanparvarlik tarbiyasi, jismoniy tarbiya, kasbiy tayyorgarlik, o'qituvchining tayyorgarligi.

В статье говорится о важных проблемах, связанных с созданием модели воспитания и подготовки будущих учителей физической культуры в духе патриотизма, и большую роль в воспитании школьников в духе патриотизма играет учитель физической культуры. Поэтому в статье рассматривается один из аспектов профессиональной подготовки будущего учителя физической культуры (воспитание в духе патриотизма).

Ключевые слова. Патриотизм, воспитание, патриотическое воспитание, физическое воспитание, профессиональная подготовка, подготовка учителей.

The article talks about the important problems associated with the creation of a model of education and training of future physical education teachers in the spirit of patriotism, and a teacher of physical culture plays an important role in educating schoolchildren in the spirit of patriotism. Therefore, the article considers one of the aspects of the professional training of the future teacher of physical culture (education in the spirit of patriotism).

Key words. Patriotism, education, patriotic education, physical education, professional training, teacher training.

O'zbekiston jamiyatida sodir bo'layotgan dinamik butun jahon integratsiyasi va millatning shakllanishi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, O'zbekiston mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha konstitutsiyaviy burchlarini bajarishga ijobiy munosabatni shakllantirish zarurligini keltirib chiqardi. Butun jamiyatimizning taqdiri yoshlarning fuqarolik va vatanparvarlik pozitsiyasi va tarbiyasiga, ularning faol fuqarolik va siyosiy pozitsiyasiga, axloqiy va ma'naviy qadriyatlariga bog'liq. Mamlakatimizda yoshlarni tarbiyalash konsepsiyasini ishlab chiqishda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday qilib, o'zbek xalqining ma'naviy, milliy-madaniy holatini tiklash zarurati, har bir fuqaroning milliy ongni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojini qondirish va o'zbek yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun sharoit yaratish g'oyasi amalga oshiriladi.

"Vatanparvarlik" tushunchasi milliy g'urur va Vatanga muhabbat, uni himoya qi-

lishga tayyorlik sifatida qat'iy qabul qilinadi. Keng ma'noda vatanparvarlik insonning axloqiy va ma'naviy fazilati, mafkuraviy xususiyati, uning yashashining axloqiy tamoyili sifatida qaraladi. Vatanparvarlikni o'rgatish haqiqatan ham muhim rol o'ynashi mumkin va bu vatanparvarlikni fuqarolik fazilati deb qarash yoki qaramasligidan va maktablarda vatanparvarlikni targ'ib qilishdan maqsad qonuniymi yoki yo'qligidan qat'i nazar, haqiqatdir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini o'rta maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun tayyorlash natijasi uning yuqorida aytib o'tilgan faoliyatga tayyorligidir. Biz bu tushunchani murakkab birlik, shaxsning ajralmas xususiyati, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ijobiy turtki bo'lgan bo'lajak mutaxassisning o'rta maktab o'quvchilari bilan vatanparvarlik-tarbiyaviy faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarligi natijasi sifatida qaraymiz. Ushbu jarayonni takomillashtirish maqsadida biz model ishlab chiqdik va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'rta maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish jarayonini sinovdan o'tkazdik.

Bo'lajak o'qituvchilarning umumta'lim maktablari o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorgarligini shakllantirish jarayoni samaradorligi nazorat (68 nafar o'quvchi) va eksperimental (66 nafar o'quvchi) guruhlarida kasbiy tayyorgarlik darajalarini taqqoslash yo'li bilan o'rganildi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligining xususiyatlari belgilangan mezon va omillar asosida ajratildi. Ushbu omillarning sifat tahlili ham eksperimental, ham nazorat guruhlarida o'tkazildi. Taqqoslash natijalari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'rta maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish jarayonining ishlab chiqilgan modeli samaradorligini baholash imkonini berdi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'rta maktab o'quvchilarini vatanparvarlik tarbiyasiga tayyorlash tarkibiy qismlarining shakllanish darajasini tekshirish uchun ma'lum mezonlar asoslab berildi va ularning ko'rsatkichlari aniqlandi: shaxsiy motivatsiya (ko'rsatkichlar: kasbiy motivatsiya, kasbiy jihatdan muhim xususiyatlar – (qahramonlik, fidoyilik, O'zbekiston Konstitutsiyasi va uning qonunlariga rioya qilish, fuqarolik va ijtimoiy hayotda ishtirok etish, faol fuqarolik); mazmunga asoslangan (indekslar: kasbiy va psixologik-pedagogik bilimlar); faoliyatga asoslangan (ko'rsatkichlar: o'rta maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ko'nikmalari, ta'lim va sport tadbirlarini o'tkazishdan manfaatdor bo'lish va ommaviy tadbirlar) va ularning shakllanish darajalari (past, o'rta, yuqori).

Pedagogik tadqiqotning maqsadi mutaxassislikni olishning yakuniy bosqichida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'rta maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlik darajasini aniqlash edi. Nazorat guruhi o'quvchilarini o'qitish standart metodlar bo'yicha olib borildi, tajriba guruhi talabalarini o'qitish pedagogik shart-sharoitlar va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining vatanparvarlik tarbiyasiga tayyorgarligini shakllantirish modelini o'z ichiga oldi.

Eksperimental ish quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Motivatsion bosqich. Talabalarda vatanparvarlik tarbiyasiga aksiologik munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchining vatanparvarlik tarbiyasiga tayyorgarligini shakllantirishning ushbu bosqichining vazifasi o'rta maktab o'quvchilari bilan vatanparvarlik tarbiyasi ishining motivlarini aniqlash, jismoniy tarbiya o'qituvchisi sifatida shaxsiy tarbiyaviy salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun shaxsiy fazilatlarni oshirishdir.

2. Kognitiv bosqich. Maqsad talabalarda vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati to‘g’risida tushunchalarni shakllantirish: vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shakllari, usullari, tamoyillarini o‘rganish, o‘quvchilarni o‘quv-tarbiyaviy ish bilan tanishtirish maqsadida shaxsiy tajribani boyitish. O‘rta ta’lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni va tuzilishini o‘quvchilarga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

3. Refleksiv va baholash bosqichi. Maqsad – o‘quvchilarning amaliy mashg’ulotlar va maktab amaliyotidagi faoliyati orqali o‘quv jarayoniga jalb qilishga qaratilgan faoliyati.

Rasmiy eksperiment yakunida eksperimental va nazorat guruhlari talabalari o‘rtasida o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorlik darajalari bo‘yicha taqqoslash o‘tkazildi.

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

- nazariy, falsafiy, madaniy, sotsiologik, psixologik, pedagogik manbalarni tahlil qilish, qonun hujjatlari va me’yoriy hujjatlar, o‘quv-metodik hujjatlar (mutaxassislik dasturi, fan dasturi, maktab amaliyoti dasturi), modellashtirish; diagnostikaning empirik usullari (so‘rov, suhbat, test);
- kuzatish usullari (ta’lim jarayoni subyektlarini pedagogik kuzatish);
- o‘quv, sinfdan tashqari, individual, ilmiy-tadqiqot ishlari, talabalarning dala tajribasi, pedagogik tajriba (aniqlash, shakllantirish) natijalarini tahlil qilish – statistika.


Natijalar

O‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash mazmuni quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi kerak: sport va yoshlarning vatanparvarlik harakatining tarixiy va zamonaviy rivojlanishini chuqur tahlil qilish; bo‘lajak mutaxassisda zamonaviy yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi darajasini obyektiv baholash qobiliyatini shakllantirish; vatanparvarlik tarbiyasining zamonaviy shakllari, vositalari va usullarining aniq g‘oyasi va tasnifi; o‘qituvchi o‘z faoliyatining ushbu yo‘nalishi bo‘yicha malakasini oshirishi uchun o‘quv dasturini ishlab chiqishi va amalga oshirish.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish modelini ishlab chiqishda ikkita jihat e’tiborga olindi: birinchi navbatda, zamonaviy pedagogika fani ta’limni tashkil etishga qo‘yadigan talablar bloki, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari jarayoni; ikkinchidan, o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yuqori darajada tayyor bo‘lgan jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga ijtimoiy talablar tizimi. Talabalarni vatanparvarlik tarbiyasiga jalb qilishga intilishi hech qanday pasayish belgisini ko‘rsatmaydi va aslida yangi ishtiyoq uyg‘otishi mumkin.

Model o‘zaro bog’liq bo‘lgan 4 ta blokdan iborat:

subyektiv (pedagogik o‘zaro ta’sir subyektlari: talaba - professor - jismoniy tarbiya o‘qituvchisi - o‘rta maktab o‘quvchisi); maqsadlar (maqsad, vazifalar, uslubiy yondashuv va tamoyillar, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar). , mazmuni va faoliyati (bosqichlari, mazmuni, shakllari, usullari, o‘quv jarayonini tashkil etish tamoyillari, o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlashning pedagogik shartlari) va natijalari (bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini shakllantirish mezonlari, omillari va darajalari).



1-rasm. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish modeli.

Model shaxsiy, madaniy, aksiologik, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning bayonotlarini hisobga olishi kerak. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: shaxsiy motivatsiya, kognitiv va harakatga undash.

Model aksiologik, kognitiv, refleksiv va baholash bosqichlaridan o‘tish orqali amalga oshiriladi. Ularning har biri bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining yuqori sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorgarligining yanada yuqori darajalariga olib keladi.

Modelni amalga oshirish samaradorligi o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini tayyorlash uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi: o‘qituvchilarning o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligini rivojlantirish uchun o‘quv muhitini yaratish; o‘quvchilarning o‘quv, amaliy, kasbiy, ta’lim va fuqarolik faoliyati mazmunida ma’naviy-axloqiy tendentsiyani ta’minlash; “talaba-talaba”, “talaba-o‘qituvchi”,

“stajyor-o‘quvchi-litsey o‘quvchisi” pedagogik o‘zaro munosabatlarini tashkil etish.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorgarligi tarkibiy qismlari darajasini pedagogik baholash uchun tegishli mezonlar va ko‘rsatkichlar aniqlandi: shaxsiy motivatsiya (ko‘rsatkichlar: kasbiy motivatsiya, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar (qahramonlik), o‘ziga sadoqat, Milliy Konstitutsiya va O‘zbekiston qonunlariga rioya qilish, jamoat va fuqarolik hayotida ishtirok etish, alohida fuqarolik pozitsiyasi); mazmunga asoslangan (ko‘rsatkichlar: mutaxassislik, psixologik va pedagogik malaka); faoliyatga asoslangan (ko‘rsatkichlar: o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ko‘nikmalari, o‘quv va sport tadbirlarini o‘tkazishga qiziqish) va ularni yakunlash darajalari (past, o‘rta va yuqori).

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish uchun o‘quv-uslubiy majmua ishlab chiqildi. Kasbiy-amaliy tayyorgarlik (“Mutaxassislikka kirish”, “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”, “Sport va ommaviy ishlarni tashkil etish metodikasi”, “Kasbiy faoliyat” fanlari bo‘yicha o‘quv rejasini takomillashtirishga qaratilgan jismoniy tarbiya sohasi”) qo‘shimcha tematik modullarni integratsiyalash orqali.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash nazariyasi va amaliyotini o‘rganish shuni tasdiqlaydiki, o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashning ijtimoiy tartibini amalga oshirish faqat pedagogik oliy o‘quv yurtlarida bunday o‘qitish mazmunini takomillashtirish orqali mumkin. Shu asosda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga tayyorligini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan. Taklif etilayotgan model ijtimoiy tartib, ta’lim malaka talablariga muvofiq ishlaydigan, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining irodaviy fazilatlarini, vatanparvarlik qarashlarini, o‘rta maktab o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish vazifalariga mos keladigan mavhum nazariy konstruktsiyani taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amarai S., Hammoudi Nassibi, S. & Mkaoueri B. (2015) Teaching process of future tunisian physical education’ teachers during a professional training. Journal of Physical Education and Sport, 15(4), pp. 736–743.

2. Bailey R. (2006) Physical education and sport in schools: a review of benefits and outcomes. Journal of school health, 8, pp. 397–401.

3. Cojocariu V-M. (2013) Petre łuŃea or some axiological anchors for a necessary patriotic education. Social and behavioral sciences, 76 (95), pp. 204–208.

4. Ismoilov Temurbek. “The Content And Practical Significance of The Principles of Academic Independence In The Management Process of Higher Education.” Nveo-natural volatiles & Essential oils journal| NVEO (2021): 4264-4270.

5. Ismoilov T., 2020. The development of physical qualities of the pupils of primary forms of secondary schools through mobile activities in the process of study. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(11), pp.391-394.

Feruzaxon RAXIMOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ORQALI BO'LAJAK TARBIYACHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini shaklantirish va rivojlantirish tizimini takomillashtirish yo'nalishidagi muammolarga bag'ishlangan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lajak tarbiyachilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida samaradorlikka erishishi uchun mazkur faoliyatining mazmuni va mohiyati hamda pedagogik jarayonlar sub'ektlarining ijodiy, aqliy va intelektual salohiyatini namoyon etishiga zaruriy shart-sharoitlar yaratishi zarurligini angatishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiya, mutaxassis, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, metod.

В данной статье рассматриваются проблемы совершенствования системы формирования и развития творческой деятельности будущих воспитателей посредством личностно-ориентированного образования, определяются содержание и характер деятельности дошкольных образовательных организаций, а также условия, необходимые для проявления творческого, умственного и интеллектуального потенциала субъектов педагогического процесса для достижения эффективности в развитии и совершенствовании творческой деятельности будущих воспитателей.

Ключевые слова. Инновационное образование, педагогическая технология, специалист, личностно-ориентированное образование, метод.

This article discusses the problems of improving the system of formation and development of the creative activity of future educators through personality-oriented education, defines the content and nature of the activities of preschool educational organizations, as well as the conditions necessary for the manifestation of the creative, mental and intellectual potential of the subjects of the pedagogical process to achieve effectiveness in the development and improvement of the creative activity of future educators.

Key words. Innovative education, pedagogical technology, specialist, person-oriented education, method.

Jahon amaliyotida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tatqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, demokratik jamiyatda bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, mazkur jarayon muntaazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi va tarkib toptiriladi. Shuningdek, bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma va malakalari, mavjud ijodkorlik faoliyati kompetensiyalari o'rtasidagi nomutanosiblik jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos kelmasligiga sabab bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Adabiyotlarda «Ijodkorlik» tushunchasining ma'nosi va mazmuni jihatdan turlic-

ha yondashuvlar mavjud. Jumladan, ‘‘ijodkorlik’’, “kreativlik”, “ijodiy faoliyat’’, “ijodiy tafakkur”, “ijodiy yondashuv”, ”ijodiy sifat va fazilatlar” kabilarni aytish mumkin. Amerikalik psixolog E. P. Torrensning nuqtai nazaricha ‘‘Ijodkorlik – insonning nostandart, ijodiy qobiliyatiga ega bo‘lish qobiliyati, ijodiy fikrlashi, shaxsning muammolarga nisbatan sezgirligi va ularning yo‘llarini topish yechimlariga egaligi, moslashuvchan fikrlash qobiliyati va yangi g‘oyalarni ilgari surishi; mavjud bilimlarning noqulayligi uchun sezuvchanlik’’ degan ma’nolarni anglatadi degan qarashlarni ilgari suradi.

D.B. Bogoyavlinskaya, F. Uilyams, E.P. Ilyin, A.M. Matyushkin, A.V. Petrovskiy, A.V. Xutorskaya kabi mualliflar ham ijodkorlik shaxsning qobiliyati (xususiyati, sifati) ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadilar. Shuningdek. ijodkorlik ostida ma’lum bir aqliy va shaxsiy xususiyatlar, yangi qaror qabul qilish qobiliyati va nostandart fikrlash kabilar mujassam ekanligini ilgari suradilar.

Bo‘lajak tarbiyachilarni o‘qitish jarayoni shaxs ijodiy faoliyatini faolligi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘langan. Oliy maktabda zamonaviy o‘qitishning eng muhim vazifalaridan biri – bu bo‘lajak tarbiyachilarning kasbi bo‘yicha xabardorligini aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratish muhim amiyatga ega ekanligini anglatadi. Ijodiy faoliyat uzoq vaqt tayyorgarlik ko‘rishni, eruditsiyani, kasbiy qobiliyatlarni talab qiluvchi ijodiy jarayon hisoblanadi. Ijodiy faoliyat – insonning uzoq faoliyati asosi, barcha moddiy va ma’naviy boyliklar manbasi ekanligini anglatadi.

Shaxsning muvaffaqiyatli ijodiy faoliyati uning muhim va zarur axborotni tanlab olishi hisoblanadi. Shuningdek, ijodiy fikrlar va farazlarni generatsiyalashga undovchi asosiy omillar ehtiyojlar hisoblanadi. Bu ehtiyojning sifati bilimlar va malakalar bilan uzviy qurollanganlik va farazlarning mazmuni bilan belgilanganligida ifodalanadi. Ong bilan nazorat qilinmaydigan intuitsiya doimo ehtiyojga bog‘liq sanaladi. Bilishni ifodalagan ehtiyojsiz odamning mahsuldor ijodiy faoliyat yuritishga mo‘ljal olishi juda qiyin kechadi. Bu tegishli ehtiyojni qanoatlantirgandagina uning intuitsiyasi g‘oyalar va farazlarni generatsiyalashi amalga oshiriladi.

Shaxsning ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilg‘or qarashlar J. Gilford, A. Maslau va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ham o‘z aksini topgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muammoli ta’lim, modul ta’limi dasturiy ta’lim, rivojlantiruvchi ta’lim, o‘yin texnologiyalari, interfaol ta’lim, hamkorlik ta’limi, tabaqalashtirilgan ta’lim, individual ta’lim, masofaviy ta’lim, mustaqil ta’lim va innovatsion ta’lim kabi turlari mavjud bo‘lib ulardan ta’lim tarbiya jarayonida keng foydalanish ta’lim sifatini ta’minlash va bo‘lajak tarbiyachilarni ijodkorlik faoliyatini tarkib toptirish imkonini beradi. Avtoritar texnologiyada, tarbiyachi yagona subyekt sifatda namoyon bo‘ladi, tarbiyalanuvchilar esa faqatgina ‘‘obyekt’’ vazifasini bajaradi. Bunda tarbiyalanuvchilarning tashabbusi va mustaqilligi yo‘qoladi, o‘qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. An’anaviy o‘qitish asosan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, shaxsning rivojlanishini ko‘zda tutmaydi.

An’anaviy o‘qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo‘ravonlik pedagogikasi, o‘qitishning tushuntiruv – ko‘rgazmali usuli, ommaviy o‘qitish kabilar bilan ifodalanadi.

An’anaviy o‘qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo‘ladi: tarbiyalanuvchi – bu hali to‘la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, tarbiyachi esa – bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda esa tarbiyalanuvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo‘yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga qulay shart-sharoit va imkoniyat yaratiladi

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;

– har bir tarbiyalanuvchi qobiliyat egasi, ko‘pchiligi esa iste’dod egasi hisoblanadi;

– yuqori estetik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari sifatida qaraladi.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– bo‘lajak tarbiyachi va pedagog huquqlarini tenglashtirish;

– bo‘lajak tarbiyachini erkin tanlab olish huquqi;

– xatoga yo‘l qo‘ymaslik huquqi;

– o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi;

– pedagog va bo‘lajak tarbiyachilarning o‘zaro munosabati zayli;

– uning iqtidori va qobilyatini taqiqlamaslik;

– boshqarish emas, birgalikda boshqarish;

– majburlash emas, ishontirish;

– buyurish emas, tashkil etish;

– chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamon sharoitida samarali natija bermaydigan va g‘ayri insoniy hisoblanadigan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir. Muammo bu tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashda o‘z ifodasini topadi.

Umuman olganda tarbiya jarayonida zo‘ravonlik mumkin emas, chunki jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda odamovi, ichingdan top, yalqov, mas’uliyatsizlik, tajanglik, asabiylik kabi salbiy xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o‘qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

– ishonchga asoslangan erkin talabchanlik;

– o‘quv materialiga qiziqish uyg‘otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish;

– bo‘lajak tarbiyachilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;

– jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta’minlash.

Bo‘lajak tarbiyachi shaxsini shakllantirishda ijodiy yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– bo‘lajak tarbiyachi shaxsini ijodiy izlanishga innovatsion yo‘naltirish;

– shaxsning ijodiy xislatlarini izlash va rivojlantirish;

– shaxs rivojlanishining individual dasturlarini tuzish.

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi:

– har bir bo‘lajak tarbiyachi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish.

– bo‘lajak tarbiyachida barcha tarbiyalanuvchilarni ‘‘iste’dodli’’ degan ishonchni olib kirish;

– shaxsga muvofaqiyatlarni ma’qullovchi, qo‘llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya’ni ijodiy faoliyatidan qoniqish va xursandchilik olib kelishi;

– bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;

– pedagogik jarayonda, bo‘lajak tarbiyachilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish kabilar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, bo‘lajak tarbiyachilarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmunini quyidagilarda o‘z aksini topgan:

– o‘qituvchining bo‘lajak tarbiyachi shaxsiyatini qadriyat sifatida qabul qilishiga yo‘naltirilgan faoliyat mazmuni;

–ijodkorlikni maqsadga muvofiq rivojlantirish, ya’ni ijod jarayonidagi ijodiy elementlarni loyihalash, rejalashtirish va tanlashga alohida e’tibor qaratilishi;

– mazkur faoliyat jarayonida ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan tajriba shakllanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni ijodkorligini rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

– ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirish usullarini o‘rganish va tahlil qilish;

– ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish

– o‘quv jarayonida ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun motivatsiyani rivojlantirish;

– ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishni nazorat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.

3.“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

4. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna. “Problems with the social attitude of the individual.” Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.

5. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzakhon. “Development of pedagogical activites with preschool children in need of inclusive education.” Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.

6. Raximova, Feruzaxon Muxammadjonovna, and Zoya Mixaylovna Burdina. “Issues of organization and management of inclusive education and upbringing in Uzbekistan.” International academic research journal impact factor 7.4 1.6 (2022): 112-118.

7. Mukhammadzhonovna, Rakhimova Feruzakhon. “Problems of development of creative abilities in preschoolers.” International journal of early childhood special education 14.7 (2022).

8. Raximova, F. M. “Processes of formation of intellectual abilities of preschool children by means of innovative technologies.” Экономика и социум 1-1 (104) (2023): 54-57.

9. N.A. Sultonova, Ibragimova Sh, D. Xolqoziyeva // TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES /2020/3 European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences – 2- 3 p 115-119

Ziyoda MIRZAYUNUSOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari to‘g‘risida fikr yuritilali.

Kalit so‘zlar. O‘yin, faoliyat, pedagogik texnologiya, samaradorlik, raqobat.

В данной статье рассматриваются преимущества использования педагогических технологий в воспитании детей дошкольного возраста.

Ключевые слова. Игра, деятельность, педагогическая технология, эффективность, конкуренция.

This article discusses the benefits of using pedagogical technologies in the education of preschool children.

Key words. Game, activity, pedagogical technology, efficiency, competition.

O‘quv jarayonida bolaning faoliyati faolligi prinsipi didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Ushbu konsepsiya yuqori darajadagi motivatsiya, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga ongli ehtiyoj, samaradorlik va ijtimoiy me’yorlarga muvofiqligi bilan ajralib turadigan faoliyat sifatini anglatadi. Bunday faoliyatning o‘zi kamdan-kam uchraydi, bu maqsadli boshqaruv pedagogik ta’sirlari va pedagogik muhitni tashkil etish natijasidir, ya’ni ishlatilgan pedagogik texnologiya.

O‘yin, mehnat va o‘rganish bilan bir qatorda, inson faoliyatining asosiy turlaridan biri, bizning mavjudligimizning ajoyib hodisasidir.

Faoliyat sifatida o‘yin tarkibiga maqsadni belgilash, rejalashtirish, maqsadni amalga oshirish, shuningdek, shaxs o‘zini subyekt sifatida to‘liq anglaydigan natijalarni tahlil qilishi kiradi. O‘yin faoliyatining motivatsiyasi uning ixtiyoriyligi, tanlov imkoniyatlari va raqobat elementlari, o‘zini o‘zi tasdiqlash, o‘zini o‘zi anglash ehtiyojlarini qondirish bilan ta’minlanadi.

Jarayon sifatida o‘yin tarkibiga quyidagilar kiradi:

a) o‘yinchilar tomonidan qabul qilingan rollar;

b) o‘yin harakatlari ushbu rollarni amalga oshirish vositasi sifatida;

v) obyektlardan o‘yin orqali foydalanish, ya’ni haqiqiy narsalarni o‘yin, shartli narsalar bilan almashtirish;

d) o‘yinchilar o‘rtasidagi haqiqiy munosabatlar;

e) syujet – bu o‘yinda shartli ravishda takrorlanadigan haqiqat sohasi.

O‘yinning ahamiyatini ko‘ngilochar va dam olish imkoniyatlari bilan tugatish va baholash mumkin emas. Bu uning o‘yin-kulgi, dam olish, o‘rganish, ijodkorlik, terapiya, inson munosabatlari va mehnatdagi namoyon bo‘lish turiga aylanishi mumkin bo‘lgan hodisasidir. O‘yin – bu qadimgi zamonlardan beri odamlar tomonidan katta avlodlarning tajribasini yoshlarga etkazish, o‘qitish usuli sifatida ishlatilgan. O‘yin xalq pedagogikasida, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalarda keng qo‘llaniladi. O‘quv jarayonini faollashtirish va intensivlashtirishga pul tikadigan zamonaviy maktabda o‘yin faoliyati quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

– konsepsiya, mavzu va hatto fan bo‘limini o‘zlashtirish uchun mustaqil texnologiyalar sifatida;

– kengroq texnologiyaning elementlari sifatida;

– dars yoki uning bir qismi sifatida;

– sinfdan tashqari ish texnologiyasi sifatida .

“O‘yin pedagogik texnologiyalari” tushunchasi turli xil pedagogik o‘yinlar shaklida pedagogik jarayonni tashkil etish usullari va usullarining juda keng guruhini o‘z ichiga oladi.

O‘yinlardan farqli o‘laroq, pedagogik o‘yin ham muhim xususiyatga ega - aniq belgilangan o‘quv maqsadi va unga mos keladigan pedagogik natija, ular asoslanishi, aniq ko‘rinishi va o‘quv va kognitiv yo‘nalishi bilan ajralib turishi mumkin. Darslarning o‘yin shakli sinfda o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga undash, rag’batlantirish vositasi sifatida ishlaydigan o‘yin texnikasi va vaziyatlari yordamida yaratiladi.

Darslarning dars shaklida o‘yin texnikasi va vaziyatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: didaktik maqsad o‘quvchilarga o‘yin vazifasi shaklida qo‘yiladi; o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi; o‘quv materiali uning vositasi sifatida ishlatiladi, didaktik vazifani o‘yinga aylantiradigan raqobat elementi o‘quv faoliyatiga kiritiladi; didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o‘yin vazifasi bilan natijasiga bog‘liq. O‘yin texnologiyasining o‘quv jarayonidagi o‘rni va roli, o‘yin va ta’lim elementlarining kombinatsiyasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining funktsiyalarni tushunishi va pedagogik o‘yinlarning tasnifiga bog’liq .

Avvalo, o‘yinlarni faoliyat turiga qarab jismoniy, intellektual, mehnat, ijtimoiy va psixologik turlarga bo‘lish kerak.

Pedagogik jarayonning tabiati bo‘yicha quyidagi o‘yin guruhlari ajratiladi:

a) o‘qitish, o‘qitish, nazorat qilish va umumlashtirish;

b) kognitiv, tarbiyaviy, rivojlanish;

C) reproduktiv, samarali, ijodiy;

D) kommunikativ, diagnostika, kasbga yo‘naltirish, psixotexnik va boshqalar.

O‘yin metodologiyasining tabiati bo‘yicha pedagogik o‘yinlarning keng tipologiyaning ishlatiladigan turlarni eng muhimlarinisanab o‘tamiz: mavzu, syujet, rol o‘ynash, biznes, taqlid va dramatizatsiya o‘yinlari. Mavzu bo‘yicha barcha maktab fanlari doirasida o‘yinlar ajralib turadi.

Va nihoyat, o‘yin texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati asosan o‘yin muhiti bilan belgilanadi: obyektlar va narsalarsiz o‘yinlar, stol, xona, ko‘cha, er, kompyuter va transport vositalari bilan, shuningdek, turli xil transport vositalari bilan ajralib turadi.

O‘yin texnologiyalarining tasniflash parametrlari:

– qo‘llash darajasi bo‘yicha: barcha darajalar;

– falsafiy asosda: moslashuvchan;

– rivojlanishning asosiy omili bo‘yicha: psixogen. Tajribani o‘zlashtirish konsepsiyasiga ko‘ra: assotsiativ-refleks – Gestalt – taklif;

– tarkibning tabiati bo‘yicha: barcha turlar – penetratsion;

Boshqaruv turi bo‘yicha: maslahat tizimidan tortib dasturiy ta’minotgacha bo‘lgan barcha turlari.

Tashkiliy shakllar bo‘yicha: barcha shakllar.

Bolaga yondashuv bo‘yicha: erkin ta’lim.

Amaldagi usul bo‘yicha: rivojlanish, qidirish, ijodiy.

Modernizatsiya yo‘nalishi bo‘yicha: faollashtirish.

Talabalar toifasiga ko‘ra: ommaviy, barcha toifalar.

Maqsadli yo‘nalish spektri:

* Didaktik: ufqni kengaytirish, kognitiv faoliyat; ZUNNI amaliy faoliyatda qo‘llash; amaliy faoliyatda zarur bo‘lgan muayyan ko‘nikma va ko‘nikmalarni shakllantirish; umumiy ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish; mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish.

* Ta’lim berish: mustaqillik, irodani tarbiyalash; muayyan yondashuvlar, pozitsiyalar, axloqiy, estetik va dunyoqarash munosabatlarini shakllantirish; hamkorlik, kollektivizm, xushmuomalalik, kommunikativlikni tarbiyalash.

* Rivojlantiruvchi: diqqat, xotira, nutq, fikrlash, taqqoslash, o‘xshashlik, tasavvur, xayolot, ijodkorlik, hamdardlik, aks ettirish, maqbul yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantirish; o‘quv faoliyati uchun motivatsiyani rivojlantirish.

* Ijtimoiylashtirish: jamiyat normalari va qadriyatlari bilan tanishish; atrof-muhit sharoitlariga moslashish; stressni boshqarish, tartibga solishning o‘zi; muloqotni o‘rganish; psixoterapiya.

O‘yin texnologiyasining kontseptual asoslari:

* o‘yin faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, o‘zini o‘zi tasdiqlash, o‘zini o‘zi belgilash, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi anglashdagi asosiy ehtiyojlariga asoslanadi;

* o‘yin psixogen xatti-harakatlarning bir shakli, ya’ni .ichki o‘ziga xos, immanent shaxs;

* o‘yin-bu bolaning “ichki sotsializatsiyasi” maydoni, ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtirish vositasi;

* o‘yin-bu tasavvurdagi shaxsning erkinligi,” amalga oshirilmaydigan manfaatlarning xayoliy amalga oshirilishi”;

* o‘yinga qo‘shilish qobiliyati odamning yoshiga bog’liq emas, lekin har bir yoshda o‘yin o‘ziga xos xususiyatlarga ega;

* bolalar o‘yinlarining mazmuni asosiy tarkib ob’ektiv faoliyat bo‘lgan o‘yinlardan, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiruvchi o‘yinlarga va nihoyat, asosiy tarkib ijtimoiy xulq-atvor qoidalariga va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘ysunadigan o‘yinlarga qadar rivojlanadi;

* bolalarning yosh davriylashuvida har bir yosh uchun o‘ziga xos tarkibga ega bo‘lgan etakchi faoliyatga alohida ahamiyat beriladi. Har bir etakchi faoliyatda tegishli aqliy neoplazmalar paydo bo‘ladi va shakllanadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun etakchi faoliyatdir.

O‘yin texnologiyalarining xususiyatlari:

– maktabgacha yoshdan keyingi barcha yosh davrlari o‘zlarining yetakchi faoliyati bilan o‘yinni almashtirmaydilar, balki uni jarayonga kiritishda davom etadilar.

Maktabgacha yoshdagi o‘yin texnologiyalari:

– bola hayotning uchinchi yilida rol o‘ynashni o‘zlashtiradi, inson munosabatlari bilan tanishadi, hodisalarning tashqi va ichki tomonlarini ajrata boshlaydi, tajribalar mavjudligini ochib beradi va ularda harakat qilishni boshlaydi.

Bola ongning tasavvurini va ramziy funktsiyasini shakllantiradi, bu unga ba’zi narsalarning xususiyatlarini boshqalarga o‘tkazishga imkon beradi, o‘z his-tuyg’ularida yo‘nalish paydo bo‘ladi va ularning madaniy ifoda qobiliyatlari shakllanadi, bu esa bolaga jamoaviy faoliyat va muloqotga qo‘shilishiga imkon beradi.

Maktabgacha yoshdagi o‘yin faoliyatini rivojlantirish natijasida ijtimoiy ahamiyatga ega va ijtimoiy baholanadigan ilmiy faoliyatga tayyorlik shakllanadi.

Boshlang’ich maktab yoshi idrokning yorqinligi va o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi, tasvirlarga kirish qulayligi bilan ajralib turadi. Bolalar har qanday faoliyatga, ayniqsa o‘yin faoliyatiga osonlikcha jalb qilinadi, mustaqil ravishda guruh o‘yinida tashkil etiladi, ob’ektlar, o‘yinchoqlar bilan o‘yinlarni davom ettiradi va taqlid bo‘lmagan o‘yinlar paydo bo‘ladi.

O‘quv jarayonining o‘yin modelida muammoli vaziyatni yaratish o‘yin holatini joriy etish orqali sodir bo‘ladi: muammoli vaziyat ishtirokchilar tomonidan uning o‘yin timsolida yashaydi, faoliyatning asosi o‘yinni modellashtirish, talabalar faoliyatining bir qismi shartli o‘yin rejasida amalga oshiriladi.

O‘yin natijalari ikki tomonlama – o‘yin sifatida, o‘quv va kognitiv natija sifatida. O‘yinning didaktik funktsiyasi o‘yin harakatlarini muhokama qilish, o‘yin holatining modellashtirish sifatida nisbatini, uning haqiqat bilan munosabatini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu modeldagi eng muhim rol yakuniy retrospektiv muhokamaga tegishli bo‘lib, unda talabalar o‘yinning borishi va natijalarini, o‘yin modeli va voqelik o‘rtasidagi munosabatni, shuningdek, o‘quv va o‘yin o‘zaro ta’sirining borishini birgalikda tahlil qiladilar. Boshlang’ich maktab pedagogikasi arsenalida bolalarda kundalik lug’atni, izchil nutqni boyitish va mustahkamlashga yordam beradigan o‘yinlar mavjud; raqamli vakilliklarni rivojlantirishga, hisoblashni o‘rganishga qaratilgan o‘yinlar va xotirani, e’tiborni, kuzatuvchanlikni rivojlantiradigan, irodani kuchaytiradigan o‘yinlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кахарова, Н.Н. Роль информационно-образовательных технологий в обучении русскому языку в неязыковой аудитории // Наука, общество, образование в условиях цифровизации и глобальных изменений: сборник статей II Международной научно-практической конференции, Пенза, 12 июня 2022 года. – Пенза: Наука и Просвещение (ИП Гуляев Г.Ю.), 2022. – с.128-131.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.

4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

5. Raximova Feruzaxon Muxammadjonovna. “Problems with the social attitude of the individual.” Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.

6. N.A. Sultonova, Ibragimova Sh, D. Xolqoziyeva // Technologies of urbringing children in modern families /2020/3 European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences – 2- 3 p 115-119

7. Sultonova Nurxon Anvarovna. Issues of Education during the Oriental Renaissance //Internatıonal journal of ınclusıve and sustaınable educatıon. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 301-305.

Nurxon SULTONOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDAGI O‘YIN FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivojlantiruvchi markazlardagi o‘yin faoliyatlarini tashkil etish borasidagi ma’lumotlar va fikrlar berilgan. Shuningdek, rivojlantiruvchi markazlardagi o‘yin faoliyati xususiyatlari, e’tiborli jihatlari batafsil yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yosh, faoliyat, o‘yin, rivojlantiruvchi markaz, ijro, rol, vazifa, taqlid.

В данной статье представлена информация и мнения по организации игровой деятельности детей дошкольного возраста в развивающих центрах. Также была предпринята попытка подробно осветить особенности игровой деятельности в развивающих центрах, основные моменты.

Ключевые слова. Дошкольный возраст, деятельность, игра, развивающий центр, исполнение, роль, задание, подражание.

The article presents information and opinions on the organization of gaming activities in developmental centers for preschool children. An attempt was also made to explain in detail the features and important aspects of gaming activities in development centers.

Key words. Preschool age, activity, game, development center, representation, role, task, imitation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida maktabgacha ta’lim tizimida olib boriladigan ishlar mazmuni aniq belgilab berildi. Unga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, MTTlarda bolalarni rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish[1] kabi vazifalar belgilab qo‘yildi. Qaror bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ham tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Bolaning rivojlanishi – bu faoliyat jarayonida ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi demakdir. Maktabgacha bolalik davrida o‘ynash bolaning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O‘yin davomida bola odamlar tomonidan to‘plangan tajribaga ega bo‘ladi.

O‘yin faoliyati bolani rivojlanishning keyingi, yanayam yuqori bosqichiga – maktabda o‘qishga o‘tishga tayyorlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar juda katta ahamiyatga ega: ular uchun o‘yin – bu o‘qish, hamda jiddiy tarbiya shaklidir.

O‘yinlarning barcha turlari orasida bolani rivojlantirish uchun eng yaxshi ta’sir etadigani syujetli va rolli o‘yinlardir. Bolalar uchun eng sevimli, eng kerakli o‘yinlar – bu

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son

shunday o‘yinlarki, unda bolalar o‘zlari o‘yin maqsadini belgilaydi. Bular: uy qurish, maktabga borish, tushlik qilish kabilar. O‘yin jarayoni ushbu maqsadga erishishdan iboratdir: bola reja tuzadi, amalga oshirish usullarini tanlaydi. U minadigan poyezd stullardan qurilgan bo‘lsin, uy yog’och chipslardan qurilsin, lekin gap bunda emas, bolaning tasavvurlari haqiqatni to‘ldiradi; bu yerda reja tuzish jarayonining o‘zi juda muhimdir.

O‘yin faoliyatida bolaning kattalar hayotida ishtirok etish zarurati amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi markazlarda bolalar bilan ishlashda va o‘yinlarni bolalarning yoshiga mos tarzda tashkil qilish, pedagoglarning pedagogik mahoratlariga va ish uslublariga bog‘liqdir. Pedagogik mahorat bugungi kunda barcha maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘z faoliyatini olib borayotgan pedagoglar va barcha xodimlar uchun juda ham zarurdir. Aynan bugungi kun bolasi uchun, unga qiziq bo‘lgan barcha savollariga, bizning jonkuyar tarbiyachilarimiz va ota-onalarimizning javoblari doimo bo‘lishi shart. Ba’zida vaziyatdan chiqib ketishimizga ham to‘g‘ri keladi. Albatta, bu bizning mahoratmizga bog‘liqdir. Rivojlantiruvchi o‘yin markazlarida bolalar erkin va mustaqil fikrlashga o‘rganadilar. Tasavvur va tafakkur qilish tez rivojlanadi. Rivojlantiruvchi markazlarni joylashuvi quydagicha bo‘lishi lozim. Tinch markazlarni shovqinli markazlardan xoli, ya’ni, markazda bolalar ishlashlari va o‘ynashlari uchun to‘g’ri joylashtirishimiz maqsadga muvofiqdir. Bolalarni markazlarga mustaqil tanlab, borib o‘ynashlarini va zerikib qolmaslaridan boshqa markazlarga yo‘naltirib turish kerak. Aks holda bolalar zerikib ana shu markaz ular uchun qiziq emasdek, fikrlab qoladilar.

O‘yin faoliyati sabablari o‘ziga xosdir. O‘yin faoliyati asosan uning mahsulotiga emas, balki jarayonning o‘ziga qaratilganligidadir. Ushbu faoliyatning amalga oshirilishi bolaga doimo mamnuniyat va zavq bag‘ishlaydi. Bu o‘yin faoliyatining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, uni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turadi.

O‘yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta’sir qo‘rsatadi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga bog‘liq psixologik muammoni o‘rgangan Z.V. Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotga nisbatan, o‘yinda xulq ko‘knikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin. Ayniqsa, bu omil bog‘cha yoshi davrining xususiyati sifatida o‘zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘z xulqini o‘zi boshqarish ko‘nikmasi o‘yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba’zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o‘yindagiga qaraganda yuqoriroq ko‘rsatkichga ham erishishlari mumkin. Yuqoridagi mulohazalar asosida, umuman aytganda, o‘yin va o‘yin faoliyati bolada o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yinda bola o‘zi boshqa sharoitlarda haligacha qila olmaydigan narsaga egadir. Masalan, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘z xulqini boshqarish qobiliyati o‘yinda to‘g‘ridan-to‘g‘ri topshiriq berishdan oldin paydo bo‘ladi; o‘yinda bolalar boshqa holatlarga qaraganda ko‘proq so‘zlarni eslashadi; o‘yin motivatsiyasi bo‘lganda bolalar tomonidan oddiy mehnat operatsiyalarini bajarish boshqa motivatsiya turlarida o‘sha operatsiyalarni bajarishdan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi.

Syujetli va rolli o‘yinlar jarayonida bolalar turli xil narsalardan foydalanadilar, ular bilan harakat qiladilar, ularni taqqoslaydilar, qiyoslaydilar, ularning ba’zi xislatlaridan chalg‘iydilar va fikrlaydilar, boshqalarini xayol bilan qurib bitkazadilar, ba’zi predmetlarni boshqalar sifatida ishlatadilar.

Bularning barchasi bolalarning sezgisini va his etishini yaxshilaydi, ularning tafak-

kuri rivojlanishiga yordam beradi, tasavvurlarini rivojlantiradi va chiniqtiradi.

O‘yinlar davomida bolalar rollarni o‘z zimmalariga oladilar (ya’ni ular o‘zlarini boshqa odam sifatida namoyon qiladilar), rolning mantig’iga binoan har xil harakatlarni bajaradilar va olingan rolning tabiatiga zid bo‘lgan boshqa harakatlarni to‘xtatadilar. Bu bolalarning xayolotini rivojlantirishga yordam beradi, ularning irodasini chiniqtiradi, natijada bolalar ixtiyoriy xulq va birgalikdagi faoliyat ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Syujetli va rolli o‘yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlashtiradi va chuqurlashtiradi, bilimlarini kengaytiradi. O‘yinda bolalarning amaliy kundalik hayotida yuzaga kelmaydigan va ularning bilimlarini, nutqiy zaxirasini va so‘zlarning ma’nosini kengaytirishing mumkin bo‘lgan holatlari yaratiladi. Ushbu o‘yinlar davomida bola dunyoni o‘rganadi.

Syujetli va rolli o‘yinlar hayvonlarga, kitobga bo‘lgan qiziqishni va ishtiyoqni, o‘rganishga, ishning har xil turlariga qiziqishni, mehnat odamlariga hurmatni, mehnat qilish qobiliyatini va istagini rivojlantiradi. Ushbu o‘yinlar davomida bolalar ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini o‘rganadilar, kundalik hayotda o‘zini tutish normalarini o‘zlashtiradilar.

Syujetli va rolli o‘yinlari jarayonidagi qo‘shma faoliyat bolalar o‘rtasida do‘stona, o‘rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bolaga o‘yinda o‘rtoqlar zarur – unga kimnidir davolashi, yuvintirishi, o‘qitishi, dalahovliga olib borishi, kimdir uchun kechki ovqatni tayyorlashi, mahsulotlarni sotishi kerak. O‘yin davomida bolalar birgalikda, kelishgan holda harakat qilishni, o‘yindagi boshqa ishtirokchilarning manfaatlarini hisobga olishni, o‘z manfaatlarini umumiy manfaatga bo‘ysundirishni, yon berishni, umumiy maqsad uchun harakat qilishni o‘rganadilar, ya’ni jamoaviy faoliyat, jamoada o‘zini tutish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Xulosa qilib aytgada, o‘yinda mustaqil ravishda harakat qilish, u yoki bu harakatlarni amalga oshirish bilan birga bola o‘zining qiziqishlari, shaxsiy fazilatlari, his-tuyg‘ularini ham namoyish etadi. Shuning uchun o‘yinda, boshqa hech qanday mashg‘ulotda kuzatilmagan holda, bolaning samarali tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan uning xususiyatlari va imkoniyatlarini bilib olish mumkin. O‘yinda va o‘yin orqali bolaning o‘zini, o‘ziga bo‘lgan munosabatini, jamoadagi mavqeini, boshqa bolalarning unga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirgan holda yanayam muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan “Davlat talablari”. 2018-yil 3-iyul, ro‘yxat raqami 3032.

4. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan) 2022-yil nashr etilgan dasturi.

5. Raximova Feruzaxon Muxammadjonovna. “Problems with the social attitude of the individual.” Innovative development in the global science 2.9 (2023): 112-121.

6. Mukhammadjonovna, Rakhimova Feruzakhon. “Development of pedagogical activites with preschool children in need of inclusive education.” Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603 11.12 (2022): 423-427.

Vazira G‘ANIYEVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘YINNING BOLA FAOLIYATI SIFATIDAGI MOHIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy va eng sevimli mashg‘ulotdir. O‘yin - bolalarning o‘zaro munosabatini yo‘lga soladi, xis-tuyg‘ularini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya berish jarayoniga o‘yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi mashg‘ulotlarni jonlantiradi. Maqolada o‘yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o‘ziga xosligi haqida ayrim qarashlar va yechimlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. O‘yin, faoliyat, tarbiyachi, bolalar, vazifa, tarbiya, ta’lim, aloqa, ijodiy faoliyat.

Игра способствует взаимодействию детей, развивает их чувства и укрепляет их свободу. Поэтому включение в учебный процесс игровых элементов и проблемных ситуаций оживляет обучение. В статье представлены некоторые взгляды и решения о сущности и своеобразии игры как деятельности ребенка.

Ключевые слова. Игра, деятельность, воспитатель, дети, задание, обучение, воспитание, общение, творческая деятельность.

Game is the main and most favorite pastime of preschool children. Therefore, the inclusion of game elements and problem situations in the educational process enlivens learning. The article presents some views and decisions about the essence and originality of the game as a child’s activity.

Key words. Game, activity, educator, children, task, training, education, communication, creative activity.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy va eng sevimli mashg‘ulotdir. Ta’lim va tarbiya berish jarayonida har xil o‘yinlardan, og‘zaki, stol ustida, harakatli, ijodiy, hayolan sayohat, o‘yin viktorinadan foydalanish, muammoli xolatlar keltirib chiqarish, yechimini topish, bahslashish, natijaga erishish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi.

Ta’limning o‘yin jarayonini, ayniqsa, ochiq havoda amalga oshirish bolalarda kuzatuvchanlik va ijodkorlikni rivojlantirib, ularni ranglarni, shakllarning katta-kichikligini, xidini, ta’mini aniqlashga, umuman sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishga o‘rgatib boradi. O‘yin faoliyati nazaryasi go‘dakning bir yoshgacha davrdagi psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar mavjud. Shular orasida N.L. Figurin, M.P.Denisova, M.Yu. Kistyakovskaya, A. Vallon, D.B. Elkonin, Ye.A. Arkin, S. Fayans, Sh. Byuler, F.I. Fradkinalarning asarlari aloqida aqamiyatga molikdir. S. Fayans tajribasida go‘dakka chiroyli va jozibador o‘yinchoqlar 9 sm masofadan ko‘rsatilganda u butun vujudi bilan ularga intilgan, keyinchalik oraliq 60 sm bo‘lganida bolaning intilishi, qo‘l cho‘zishi, sustlashgan, cho‘zilishi, ixtiyorsiz harakati mutlaqo so‘ngan. U o‘yinchoq bilan bir qatorda turgan katta kishiga ham ana shunday befarq qaragan. Masofa qanchalik qisqarsa, bolaning unga intilishi, qiziqishi shunchalik kuchayib borishini kuzatish mumkin. M.Yu. Kistayakovskaya ma’lumotiga ko‘ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o‘giradi, xatto, qo‘rqib yiqlab yuboradi. Bolada o‘zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga bog‘lanib qolishi sodir bo‘ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko‘rsa qiyqirib qarshilaydi,

unga talpinadi, qo‘l-oyog‘ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to‘lganda atrofdagi yaqin kishilari, qarindosh-uruqlariga, xatto qo‘ni-qo‘shnilarga ham bog‘lanib (o‘rganib), ko‘nikib qoladi. Taxminan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o‘yin faoliyatini boshlaydi. O‘yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik, tuyg‘ulari avval faqat kattalar ishtirokida namayon bo‘ladi, vaqt o‘tishi bilan o‘yinning o‘zi bolaga quvonch bag‘ishlaydi. Go‘dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning xatti-harakatlarini izchil kuzatishdan tashqari unda asta-sekin ularning ko‘mak berish ishtiyoqi tug‘iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o‘ta boshlaydi. Ma’lum, hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi. Bolaning umumpsixologik taraqqiyoti faqat o‘yin jarayonidagi (A. Leontev) amalga oshishini inobatga olib, ularning o‘yinlarining mazmunan boyitishiga katta e’tibor qaratishimiz lozim. O‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda maktabgacha ta’lim tashkiloti ishida katta o‘rin egallaydi. O‘yinda yosh organizmga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qondiriladi, hayotiy faollik ortadi, birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda o‘yin munosib o‘rin egallaydi. Atoqli trener va shifokor E.A. Arkin o‘yinni “ruhiy vitamin” deb bekorga aytmagan. Bolalarning to‘laqonli jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. O‘yin jarayonida bolaning jismoniy o‘sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Bunga erishmoq uchun o‘yinlarning bolalarga yetarli suratda zavq tug‘dirishini, ularda faollik hosil bo‘lishini, bu o‘yinlar turli hil harakatlarni o‘z ichiga olishini, serharakat o‘yinlar ketidan kam harakatli o‘yinlarga o‘tilishini ta’minlash zarur.

O‘yin – bolalarning o‘zaro munosabatini yo‘lga soladi, xis-tuyg‘ularini rivojlantiradi, erkini mustahkamlaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya berish jarayoniga o‘yin elementlarining, muammoli holatlarning kiritilishi mashg‘ulotlarni jonlantiradi. O‘yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o‘ziga xosligi haqida ayrim qarashlar va yechimlar masalasiga e’tibor qaratilgan.

O‘yin faloiyati bola hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi, u mehnat va ta’lim bilan uzviy aloqada bo‘lgani holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar o‘yinning ahamiyati, qadri, uning shartliligini hamda ijtimoiy xulqni shakllantirishda shaxsning jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilab olishi, uning muomala chog‘idagi xatti-harakatini aniqlab olishi hamda miyaning keyingi o‘rganiladigan mavzuga tayyorlanishida juda katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Tug‘ilgandan boshlab to 3 yoshgacha bo‘lgan davrda bolaning aqliy qobiliyatlari rivojlanayotgan davrda o‘yin juda muhim ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdilar. O‘yin inson o‘zligining namoyon qilishi, uning takomillashuvi usulidir. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosini tashkil qiladi. O‘yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: Bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o‘ylaydi, o‘yin davrida bolaning hayoli, xotirasi faol ishlaydi, ta’sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarning suyujetli va rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlari deyarli hamma vaqt jamoaviy amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlar bolalarning ko‘pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin sharoitining o‘ziyoq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yo‘naltirishini talab qiladi. Bu esa, o‘yin faoliyati davomida bolalarni nihoyatda faollashtiradi, ya’ni ular kuzatuvchan, tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqur taqlid qiladigan bo‘ladilar. Syujetli va rollarga bo‘linib, o‘ynaladigan o‘yinlar o‘yin jarayonida bolalarning bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘lishlariga imkon yaratadi. Bu bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma’lumki, syujetli va rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning o‘z

qonun-qoidalari mavjud. Bu qonun-qoidalarga rioya qilishda bolalar o‘z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o‘yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatlari ham rivojlanadi. Turli yoshdagi bog‘cha bolalarining o‘yin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish, ya’ni psixik jarayonlarini, aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, xarakter xislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. Shu narsa xarakterliki, bog‘cha yoshidagi bolalarning turli - tuman o‘yin faoliyatlari sekin-astalik bilan ularni o‘qish faoliyatiga tayyorlaydi. Rolli o‘yin mazkur yosh davirdagi bolalarning eng muhim faoliyati bo‘lib, ular bunday o‘yinda go‘yot katta yoshdagi odamlarning barcha vazifali va ishlarini amalda bevosita bajaradilar, shu boisdan, o‘yin voqealari, oilaviy turmush hodisalari, shaxslararo munosabatlarni umumlashtirgan holda aks ettirishga harakat qiladilar. Bolalar kattalarning turmush tarzi, his-tuyg‘u, o‘zaro muomala va muloqotlarning xususiyatlarni o‘ziga va o‘zgalarga atrof-muhitiga munosabatlarni yaqqol voqelik tarzida ijro etishi uchun turli o‘yinchoqlardan, shuningdek, ularning vazifasini o‘tovchi narsalarda ham foydalaniladi.

Bolani o‘yinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to‘g‘risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni o‘z shaxsiy faoliyatida sinab ko‘rish istagidir, shuningdek, jamoa bo‘lib o‘ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida to‘plangan ma’lumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri bo‘yicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

– o‘yin faoliyatida bola turli harakatlarni to‘laligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini ko‘rsatishga ishtiyoqmand bo‘ladi;

– keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bola o‘sib borgan sayin narsalar va o‘yinchoqlarning nomini o‘zgartirish, yangi nom bilan atash engillashadi. Shuningdek, faqat yangi vaziyatda jismlar nomini o‘zgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qo‘llash imkoniyati ham keladi. O‘yin faoliyatida foydalaniladigan narsalarni yangicha nomlash qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi. o‘yin faoliyatida narsalar nomini o‘zgartirish o‘zining psixologik mohiyati bilan murakkab holat hisoblanadi. Ayniqsa, so‘z bilan predmetning o‘zaro munosabatida ularga uzviy bog‘liq harakatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o‘rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. Shunday ekan, o‘yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o‘yin mazmuniga ko‘proq bog‘liqdir. Chunki, bolaning xatti-harkati qanchalik ihcham va umumlashgan bo‘lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o‘tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to‘g‘ri ifodalashga intiladi. Har qanday o‘yinning va o‘yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o‘zaro munosabatini, muomalasini o‘ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. Shunga ko‘ra, o‘yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yarailgan qimmatli bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, malakalar va odatlarni o‘rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi. Shunday qilib, psixolog adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga qiziqadi;

– bolalar rolli o‘yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo‘shqin xistuyg‘uli

jihatlarini aks ettiradilar;

– rolli o‘yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qiladi;

– kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo‘lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o‘chmas iz qoldiradi. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o‘ymnning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bola hayotida o‘yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin. Jahon psixologiyasi fanida to‘plangan boy ma’lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o‘sishiga o‘yinning ta’siri haqida gap borganda, avvalo, shuni aytish kerakki: birinchidan, o‘yinni tashkil qilishning o‘ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o‘stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o‘yinning bola harakatiga ta’sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko‘nikmalarini subyekt aynan o‘yin paytida emas, balki bevosita mashg‘ulot orqali o‘zlashtiradi. Uchinchidan, o‘yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, atoqli trener va shifokor E.A. Arkin o‘yinni “Ruhiy vitamin”, deb bekorga aytmagan. Bolalarning to‘laqonli jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlash uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. O‘yin jarayonida bolaning jismoniy o‘sishi uchun muvofiq sharoit yaratish nihoyatda muhimdir. Harakatli o‘yinlar bolalarda quvnoqlikni oshirishga yordam beradi, o‘zaro munosabatlar, xis-tuyg‘ularni tarbiyalaydi. O‘yin qoidalarini bajara olish malakalari, jasurlik, odillik kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Mashg‘ulot, sayr va kunning turli jarayonlarida amalga oshiriladigan harakatli o‘yinlar bola shaxsi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosini tashkil qiladi. O‘yinda shaxsdagi mavjud barcha jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok qiladi, o‘ylaydi, o‘yin davrida bolaning hayoli, xotirasi faol ishlaydi, ta’sirchanlik va iroda sifatlari namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

2. Alvested M. Pedagogy and interdisciplinarity: Research on the reformed kindergarten teacher education (KTE) in Norway

3. Azizova Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish Avtoref. p.f.n T.: 2020-52b

4. Азаров Ю.П. Мастерство воспитателя. М.: “Просвешение”,1971.-126 б

Barno XAKIMOVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

GENDER – O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA O'SMIRLARNI MUSTAQIL QAROR QABUL QILISHGA YO'NALTIRISHNI AMALDAGI HOLATI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda ta'limda gender nazariyasi qoidalarini, tamoyillarini joriy etish, o'g'il va qiz bolalar gender madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari va shaxs umummadaniyatini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, gender tenglik, madaniyat, o'smirlar, tadqiqotlar, qonun, siyosat.

В статье представлен анализ исследований по внедрению положений, принципов гендерной теории в образование в нашей стране, педагогико-психологических факторов формирования гендерной культуры мальчиков и девочек и совершенствования общекультурной личности.

Ключевые слова. Образование, гендерное равенство, культура, подростки, исследования, право, политика.

The article presents an analysis of research on the implementation of the provisions and principles of gender theory in education in our country, pedagogical and psychological factors of the formation of gender culture of boys and girls and the improvement of the general cultural personality.

Key words. Education, gender equality, culture, adolescents, research, law, politics.

Gender tenglik tarbiya tizimi nihoyatda keng qamrovlidir. Maqsadli disputlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, tematik ma'ruzalar, seminar-treninglar, nazariy-amaliy konferensiyalar ham ushbu yo'nalish rivojiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalashning eng muhim ahamiyati ularni, birinchi galda, qiz bolalarni o'zligini anglashiga, ijtimoiy muhitni, ijtimoiy ruhiyatni, ichki uyushtiruvchi, harakatga keltiruvchi va yetaklovchi, inson qadr-qimmatining jinsiga qarab belgilanmasligini isbotlovchi kuchga aylanishiga xizmat qilishidir. Bu holda gender tenglik g'oyasi (o'g'il va qiz bolalarga teng huquq hamda teng imkoniyatlar yaratish) shaxsning ham, jamiyatning ham ma'naviy yuksalishiga ta'sir qiladi, ijtimoiy tafakkurning o'zgarishiga olib keladi. Gender tenglik g'oyasi jamiyatda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga, ma'naviy-ruhiy jihatdan tenglik tamoyillarini o'ziga singdirishga undovchi va uni harakatga keltiruvchi bunyodkor g'oyadir.

Gender tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yoshlar xulq-atvorining, dunyoqarashining ijtimoiy foydali, adolatli, insonparvar, demokratik sifatlarini shakllantirish ishiga yordam berishi shubhasiz. Chunki gender tenglik g'oyalari bilan sug'orilgan ta'lim-tarbiya yoshlarda gender bilimlarni hosil qilishi, ularning dunyoqarashiga va e'tiqodiga aylanib borishi, ruhiyatiga ta'sir etishi mumkin. Bu, ayniqsa, qiz bolalarning mas'uliyat va qat'iyatlik, qiziqish bilan o'zlari istagan sohalarni o'rganishlariga intilishlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o'rganib, ular ongida jamiyat taraqqi-

yotining barcha sohalarida faoliyat ko‘rsata olishlariga ishonch hosil qilish mumkin. Bu esa ularda tegishli ma’naviy-axloqiy sifatlar bilan bir qatorda, Vatanga muhabbat, uning yuksakligini ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shishga ishonch tuyg‘usini shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida gender tarbiyaning imkoniyatlaridan izchil foydalanish yoshlarni barkamol shaxs sifatida kamol toptirishda katta rol uynaydi.

Olimlarning fikrlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, shaxsiyatni kamol toptirish chog‘ida yuqori sinf o‘quvchilarida gender madaniyatini shakllantirish zarurligini e’tiborsiz qoldirish va tushunmaslik, gender tengligi g‘oyasiga asoslangan faol mafkuraviy izlanish o‘zaro munosabatlarning samarasiz bo‘lishiga olib keladi. Turli xil jins vakillari, zararli xatti-harakatlar va shaxslararo nizolar birgalikda bularning yig‘indisi jamiyat, alohida oila va shaxs hayotida ko‘ngilsiz vaziyatlarni yaratadi.

Gender madaniyatning asosiy ma’nosi balog‘at davridagi o‘g‘il va qiz bolalararo munosabatlar erkaklik, ayollik va androgenizmni anglash davrida talabaning shaxsini shakllantirish jarayoni sifatida taqdim etiladi va shu bilan birga uning gender roli to‘g‘risida bilim jamg‘armasi shakllanadi.

Yuqori sinfdagi o‘quvchilar orasida gender bag‘rikengiligini singdirish gender madaniyati vujudga kelishida hal qiluvchi faoliyat maqomidadir. Gender bag‘rikengligi – bu gender farqlari va tasavvurlari mavjud bo‘lganda, hayotning turli sohalarida, oilada va jamiyatda yashash va hamkorlik qilish istagi va qobiliyatidir. Buning uchun ham ustozlardan, ham ziyolilardan, boshqa jins tashuvchilarining dunyoqarashi va hayot tarzini izzatlash va qabul qilish uchun ozroq istak, rag‘bat, harakat so‘raladi.

Zamonaviy pedagogika sohasida yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi, bu – o‘quvchilarning gender o‘zini o‘zi tenglashtirishni ta’minlash va o‘quvchilarning shaxsiy moyilligini rivojlantirish uchun ta’lim jarayoniga gender yondashuvini keng joriy etish shartlarini o‘rganadigan individual gender pedagogikasidir.

Muallimlarning balog‘at yoshidagi o‘g‘il va qiz bolalar bilan yuritadigan tarbiyaviy-o‘quv soatlarining foydalilik koeffitsiyenti mezonlarini ishlab chiqish o‘ta e’tiborga molikdir. Ushbu mezonlar quyidagilar:

1. Pedagoglarning o‘g‘il va qiz bolalarga nisbatan o‘z kasbiy nuqtayi nazaridan alohida-alohida jins vakillari sifatida qarash;

2. Bugungi hamjamiyatda erkaklik va ayollik xususiyatlarining yetilishining zaruriy omili sifatida jinsi, munosabatlar madaniyatini shakllantirishni hisobga olgan holda bitiruvchi o‘g‘il va qizlarning o‘z-o‘zini tushunib yetishini qo‘llab-quvvatlash.

Bugungacha muallimning gender tajribasini takomillashtirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqilmagan. Gender kompetensiyasi yetakchi pedagogik kompetensiyalarning jami to‘plamiga asoslanadi va o‘ziga xos sintezlovchi xususiyat sifatida ishlaydi. Shu bois, o‘qituvchining malakasini oshirish uchun sharoit tug‘dirish vazifasi bo‘lib, uni an’anaviy ta’lim vositalari orqali hal etib bo‘lmaydi.

Gender kompetensiyasi – bu muallimning o‘quv jarayonidagi gender yondashuvining o‘zaki mohiyatini bilishi, dars berishni tashkil etishda gender siyosatini yuzaga chiqarish iqtidori hamda gender bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘qituvchining 9-11-sinflarda gender kompetensiyasini rivojlantirish barobarida quyidagilarni ham e’tiborda tutish lozim:

– umumta’lim maktablarida pedagogik jarayonni yaratishda o‘qituvchi-tarbiyachining gender bilim va qobiliyatlari;

– o‘qitish davrida o‘qituvchi-tarbiyachining o‘z gender roli va o‘zini tutishning yak-

ka tartibdagi gender metodi haqida tasavvur paydo qildirish;

– o‘qituvchi-pedagogning professional hozirligi va gender savodxonligi gender yondashuvi maqsadlariga mosligi;

– o‘qituvchi-pedagogning maktabda uning dars berishi davomida gender kompetensiyasi monitoringini yaratish.

Quyidagilar o‘qituvchi-pedagogning o‘rta maktab o‘quvchilari bilan o‘qitish va tarbiyaviy ishlar samaradorligini kafolatlash yuzasidan gender kompetensiyasini vujudga keltirish qoidalarini tashkil etadi:

– o‘qituvchi-tarbiyachining gender tayyorgarligini insonparvarlik jihatiga yo‘naltirish qoidasi;

– umumta’lim maktab o‘quvchilarining gender xislariga asoslanib o‘qituvchi-pedagogning gender kompetensiyasini shakllantirishni tashkil etish va mazmunini farqlash prinsipi;

– o‘qituvchi-tarbiyachining gender qobiliyatini shakllantirish uchun fanlararo integratsiya;

– o‘qituvchi/pedagogning gender ta’lim texnologiyalari uning kasbiy o‘sish qonunlariga uyg‘unligi prinsipi.

Ayni damlarda umumiy o‘rta ta’lim muassasasida o‘rta maktab o‘quvchilari shaxsiyatining barkamollashuviga qarshilik ko‘rsatuvchi qoliplardan qutulishni va xulq-atvorining ijtimoiy maqbul modellarini shakllantirishni ko‘zda tutadigan (turli xil) gender yondashuvini qo‘llash ehtiyoji ko‘ndalang bo‘lmoqda.

Balog‘at yoshidagi o‘g‘il va qizlarni kelajakdagi turmushga tayyorlab, oilaviy hayotni boshlash davri yaqinlashganda, har ikki jins vakillari mashaqqatlar bilan yuzlashadilar, buning oqibatida, genderni anglatuvchi vakolatli pedagoglar soni ortadi. Va nihoyat, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘quvchisi shaxsiyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan qoliplarni bartaraf etish va shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy ehtiyojlari asosida uning xulq-atvorining sotsial maqbul modellarini shakllantirishni qamragan gender yondashuvidan foydalanish zarurati tug‘iladi.

O‘qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o‘qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. Shunday ekan, ta’limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o‘qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko‘nikmalarni, shu jumladan, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, mustaqil va hamkorlikda ishlashga o‘rgatish, gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta’lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. O‘qituvchining gender tengsizlikni bartaraf qilishning eng samarali mexanizmlaridan – bu o‘quvchilarning gender faoliyati vaqtida faol qatnashishi, erkak va xotin-qizlar orasidagi o‘rtoqlikning namunali isboti va boshqa xilma-xil vaziyatlarida qatnashishidir.

Ta’kidlash kerakki, gender o‘qitish muayyan uslubiy yo‘riq bo‘lib, hududning ta’lim muassasalari sharoitida ta’lim va tarbiya qatnashchilarining gender ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq holatni, xilma-xil jinsdagi o‘quvchilarning manfaatli sherikligi va o‘zaro ta’si-

rini yaxshi tomonga o‘zgartirish maqsad qilingan.

Olib borilgan kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, XXI asrda umumiy o‘rta maktab o‘quvchilari o‘tgan asr yoshlariga qiyoslaganimizda ular, anchagina tanqidchi, mustaqil qaror qabul qiluvchi, pragmatik va shijoatli bo‘lib borishmoqda. Zero, ular biror narsani tabiiy deb qabul qilmaydilar, boshqalarning qarashi, fikri, qarorlari, baholari bilan kirishib ketishga intilmaydilar, ular bu o‘rinda darrov isbot talab qiladilar. Ular o‘zlarining jamiyatga qo‘shgan ulushlariga ehtiyotkorlik bilan yondashadi, shuningdek, kelajakdan ko‘proq umidvor bo‘lib, hayotda shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga ishonishadi va buni kasbga ko‘tarilish vositasi, ya’ni narvon sifatida ta’lim olish zarurligi bilan bog‘laydilar. “Jamiyat tomonidan tan olinishi” va “faol harakatchan hayot” kabi qadriyatlar juda muhimdir.

O‘smirlarning ijtimoiylashuvi tengdoshlar guruhida muloqot orqali sodir bo‘ladi, ular ta’lim faoliyati doirasida jamiyat tomonidan o‘rnatilgan yaqin munosabatlarni o‘rnatadi va ko‘pincha, shaxsiyatning gender komponenti, ya’ni o‘zini tutish sharoitida o‘zini boshqarishning ustun modellari ma’lum bir jinsning vakili sifatida xabardorlik bilan belgilanadi. Gender ijtimoiylashuv masalalarini o‘rganish ijtimoiy o‘zaro ta’sir sharoitida o‘zini tutishning shaxslararo xulq-atvor o‘rtasidagi aloqa mexanizmlarini ko‘rish, o‘rta maktab o‘quvchilari (o‘g‘il bolalar va bolalar) da guruh va shaxsiy prinsiplarning o‘zaro bog‘liqligi va qarama-qarshiligini tushunish imkoniyatini ochib beradi.

Shunday qilib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ko‘p jihatdan gender tenglikni ta’minlashga bog‘liq.

Zero, bugun bizning jamiyatimiz yangi siyosiy munosabatlar shakllanishi, uchinchi renessans jarayonining ilk bosqichida turibdi. Ushbu jarayonda erkaklar va ayollar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va boshqa sohalarda gender tengligini ta’minlash, ayniqsa, o‘g‘il-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtirokini takomillashtirish talab etiladi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bu borada yuqori samaradorlikka erishishda quyidagilarga e’tiborni kuchaytirish lozim:

– ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmuniga ushbu masala bo‘yicha ustuvorlik berish;

– ta’lim muassasalarida “Gender tenglik strategiyasi” maxsus kurslarini, nazariy-metodik laboratoriyalarni tashkil etish va ular uchun dasturiy mahsulotlarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A.X. Inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat. 2004.

2. Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna_Gender tenglik tushunchasi va gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyillari_issn: 2181-4027_sjif: 4.995_pedagogs international research journal.

3. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. – T.: “O’zbekiston”, 2007.

4. Shamsiyeva M.X. Gender tenglik. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. //2015.

А. В. ШАРКОВА,
студентка группы 020-48, Каршинский государственный университет

РОЛЬ ПОСЛОВИЦ В ВОСПИТАНИИ УЧЕНИКОВ ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Annotatsiya

Maqolada aytilishicha, maqollar ko'p jihatdan fikrlashni rivojlantirishga, tilga bo'lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi, nutq madaniyatini va grammatikani o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Maqollarni bilish bilan bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, kattalarga hurmat, milliy madaniyat, urf-odatlar va urf-odatlarga qiziqishni rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar. Maqol, maqol, kontekst, lug'at, an'ana, fikrlash, hissiy-sezgir soha, atrofdagi dunyo.

В стать говорится что пословицы во многом способствуют развитию мышления, развитию любви к языку, помогают развить культуру речи и умение усваивать грамматику. С знанием пословиц становится возможным воспитание у детей чувства патриотизма, уважения к старшим, развитие интереса к национальной культуре, традициям и обычаям.

Ключевые слова. Пословица, поговорка, контекст, словарный запас, традиция, мышление, эмоционально-чувствительная сфера, окружающий мир.

The article says that proverbs greatly contribute to the development of thinking, the development of love for language, help to develop the culture of speech and the ability to learn grammar. With the knowledge of proverbs, it becomes possible to educate children with a sense of patriotism, respect for elders, and develop interest in national culture, traditions and customs.

Key words. Proverb, saying, context, vocabulary, tradition, thinking, emotionally sensitive sphere, the surrounding world.

Пословицы – есть не что иное, как один из видов народного фольклора. Во многом они отражают богатство языка, а также – традиции и обычаи народов.

На сегодняшний день многие научные деятели, уделяющие внимание изучению пословиц, сходятся во мнении, что пословицы во многом способствуют развитию мышления, развитию любви к языку, помогают развить культуру речи и умение усваивать грамматику. Кроме того, пословицы помогают школьникам глубже изучить литературу и усвоить мудрость предыдущих поколений.

В особенности все вышесказанное относится к русским пословицам и языку в целом. Обширный развивающий потенциал пословиц делает необходимым применение таковых в контексте обучения в рамках начальных классов. Применяться пословицы могут на уроках русского (или иного) языка и литературы.

В контексте воспитания младших школьников современные научные деятели отмечают, что пословицы (равно как и поговорки) способствуют тому, чтобы при обучении дети младшего школьного возраста лучше понимали художественную речь. Нельзя забывать о том, что смысл данного типа речи отражается в контексте фольклорных произведений. Важно понимать, что чем подробнее и точнее школьники понимают образное обобщение в контексте различного рода

произведений, тем более объективно они оценивают любую речь в целом. Данное утверждение касается как выразительности речи, так и ее смыслового содержания. Аналогичным образом дети оценивают и свою собственную речь.

В своих работах Н. Ф. Талызина говорит о том, что развивающий и воспитательный потенциал пословиц заложен в самой структуре таковых. По мнению данного деятеля, эта структура характеризуется прежде всего как нетипичная. Также для структуры такого рода характерным является наличие ритмичности и особенного звукового оформления. Данный автор отмечает особое композиционно-синтаксическое строение пословиц. В конечном итоге все вышеуказанные характеристики обеспечивают расширение и общее развитие речевых навыков учащихся младших классов, способствуя активации и обогащению словарного запаса.

Ранее научный деятель Н. Н. Ушакова проводила обширные исследования в сфере развития речевых навыков у детей. Помимо этого, в контексте данного исследования также принимали участие дети с нарушениями развития речи. В конечном итоге данный автор пришел к выводам о том, что применение пословиц в контексте образовательного процесса является целесообразным, поскольку они позволяют сделать весь процесс обучения более эффективным. Данное утверждение касается не только уроков русского языка и литературы, но и занятий внеклассного типа.

Также активное использование пословиц на практике (в контексте повседневного общения) между учениками, а также в контексте «педагог-школьник» способствует развитию речи и с грамматической точки зрения. Кроме того, благодаря пословицам речь школьника становится более яркой, эмоциональной, последовательной, осмысленной, содержательной. В особенности данное утверждение является особенно актуальным для учеников младших классов, в том числе и для тех, которые имеют задержки в области речевого и возрастного развития.

Авторы Т. П. Солоухина и О. А. Конусова в процессе исследования дидактического потенциала пословиц обращают внимание на то, что русские пословицы характеризуются наличием функции, посредством которой становится возможным отображение объектов реальности именно с художественной точки зрения. В конечном итоге посредством использования пословиц оратор может создавать яркие портреты людей, описывать внутреннее состояние, эмоции, характер и поведение.

Поскольку пословицы характеризуются наличием художественной функции, они нередко используются именно для выражения эмоциональной оценки человеческих действий, поступков и иных проявлений. Нужно сказать, что эмоциональная оценка, в отличие от прочих, зачастую является максимально чёткой и краткой. Кроме того, оценка подобного типа не подразумевает подробных высказываний, которые носят преимущественный характер монолога.

Учитывая то обстоятельство, что все богатство речи сводится не только и не столько к обширному лексическому фонду, сколько к наличию в словарном запасе человека четких, кратких и метких фраз, наличие в лексиконе ребенка пословиц свидетельствует о богатстве как речи, так и образного воображения. Как правило, именно фразы такого типа делают возможным краткое изложение мысли.

